


ISBN: 978-93-86327-23-5

AQSH YOZUVCHILARI IJODIDA SHARQ MAVZUSI



Authors:

**TO'XTAYEVA FARIDA
ISMATULLAYEVNA**



Published by

Novateur Publication

466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030
novateurpublication.org

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**TO‘XTAYEVA FARIDA
ISMATULLAYEVNA**

**AQSH YOZUVCHILARI IJODIDA SHARQ
MAVZUSI**

Buxoro-2024

Ushbu monografiya Jahon adabiyotida xalqlarning o`zaro aloqalar orqali bir-birini ma`naviy boyitishi va ta`sir ko`rsatish muammolariga bag`ishlangan. Amerika adabiyotida Sharq mavzui yo`nalishi bo`yicha manbalarni bir tizimga solishga urinib ko`rildi. AQSh yozuvchilari va O`zbekiston mavzui qaytadan o`rganilib, yanada aniqroq va kengroq yoritildi. Ushbu monografiya Angliya adabiyoti, Qiyosiy adabiyotshunoslik, Adabiy tanqid kabi fanlarning tegishli o`rinlarini yoritishga yordam beradi. Shuningdek, monografiyada zikr etilgan natijalar bo`yicha ma`ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda, sohaga doir lug`atlar yaratishda foydalanish mumkin.

Taqrizchilar:

f.f.n dotsent **Bakayev N.B.**
f.f.n. **Yusupova H.O`.**

Monografiya Buxoro davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnik kengashining
2024-yil 7 oktyabrdagi 2-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

Kirish

Mustaqillikdan soʻng Oʻzbek xalqi katta yutuqlarga erishdi. Oʻzbek adabiyotining millatlararo aloqasini oʻrganish, respublikamizning tarixiy rivojlanishi bilan bogʻliq boʻldi. “Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalari chet tillariga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarsi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo boʻlmoqda. Ilgari oʻzbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, yaʼni rus tili orqali amalga oshirilardi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholangan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan gʻarb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima sanʼatining nazariy va amaliy jihatlarni har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud”¹.

Yurtimizning Gʻarb va Sharq yoʻllari tutashgan hududda joylashganligi sababli, yuz yilliklar davomida turli xalqlar madaniyatlarining oʻzaro uygʻunlashganligini kuzatamiz. Oʻzbek madaniyati hech bir davrda jahon madaniyatidan ayri holda rivojlangan emas. “Buyuk ipak yoʻli”ning tarixiy vazifasi ham ana shundan iborat edi. Shuning uchun jahon madaniyati ijodiy tajribasini oʻrganmay turib, bugungi oʻzbek madaniyati rivojini tasavvur etib boʻlmaydi.²

Buni oʻzbek adabiyoti tarixi ham toʻla tasdiqlaydi. Milliy soʻz sanʼatimiz rivoji boshqa xalqlar adabiyoti bilan chambarchas bogʻliq holda taraqqiy etib kelyapti. XX asrning birinchi yarmida oʻzbek-amerika adabiy aloqalari yangi va boy manbalar bilan boyiy boshladi. Uning yoʻnalishlaridan biri haqida professor B.A.Gilenson³ maqolasida aytilib oʻtiladi. Biroq uning bu tadqiqoti mavzuni toʻla qamrab olmagan. Ayniqsa, XX asr birinchi yarmida AQSh yozuvchilari ijodida oʻzbek mavzuidek muhim yoʻnalish atroflicha ochib berilmagan. Eng

¹ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – T.: Maʼnaviyat, 2008, 138-139-betlar.

² Karimov I.A. Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Oʻzbekiston, 1998, 5-bet.

³ Gilenson B.A. Дорого длиной в шестьдесят лет. Советский Узбекистан глазами прогрессивных американских писателей // Звезда востока, 1977, №11.

muhim tomoni Amerika ma'lumotlariga tayangan holda ochib berishga harakat qilamiz. O'zbekiston mavzusi, uning adabiyoti, madaniyati Amerika yozuvchilarini, tanqidchilarini va olimlarini befarq qoldirmagan, ammo o'zbek adabiyoti xalqaro aloqalar uchun dolzarb mavzu sifatida o'rganilmagan edi. Shu qatorda u tanqidchilar nuqtai nazaridan qiziqarli va umumiy ma'noda dolzarb.

Ushbu monografiyaning maqsadi Amerika yozuvchilari ijodida Sharq mavzuiga urg'u berilishi va ularning Sharq adabiyoti va madaniyatiga munosabatini tahlil qilish. Maqsad quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- E.Heminguey va P.Bak ishlarida sharq tasvirini o'rganish;
- Amerika yozuvchilarining Sharq adabiyoti va madaniyatiga yaqinlashishi va izlanishi;
- L.Hyuz ishlarida Sharq mavzusining dolzarbligini ko'rsatish;

A.L.Strong va H.Lemb ijodida Markaziy Osiyo va O'zbekiston tasviri va tahlili. Amerika yozuvchilari ijodida Sharq mavzuiga urg'u berilishi va ularning Sharq adabiyoti va madaniyatiga munosabatini tahlil qilish. Maqsad quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- E.Heminguey va P.Bak ishlarida sharq tasvirini o'rganish;
- Amerika yozuvchilarining Sharq adabiyoti va madaniyatiga yaqinlashishi va izlanishi;
- L.Hyuz ishlarida Sharq mavzusining dolzarbligini ko'rsatish;
- A.L.Strong va H.Lemb ijodida Markaziy Osiyo va O'zbekiston tasviri va tahlili.

I BOB

SHARQ DAVLATI SIFATIDA XITOIY AQSH YOZUVCHILARI

IJODIDA

1.1. Xitoy romanchiligining Perl Bak tomonidan tadqiqi

Amerika adabiyotining mashhur yozuvchilaridan biri Perl Bak (1892-1973) o'zining ijodini Sharq va G'arb o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bag'ishladi. P.Bak so'ngi asarlaridan birida oziga yaqin bo'lgan Xitoy donishmandligidan "Biz bir osmon ostida yashaymiz"¹, - degan hikmatli fikrini keltiradi. Bu fikr yozuvchi hayotining mazmuniga aylanadi.

Perl Bak 1982 yil 26-iyunda Virjiniya shtatining Xilsboro shaharchasida dunyoga keladi. Yozuvchi uch oyligida Xitoyga oilaviy ko'chib ketishadi. Adiba deyarli 40 yil Xitoyda yashadi, bu uning umrining birinchi yarmi edi. Qolgan ikkinchi yarmida u ona vatanida yashadi.

Uning ota-onasi Xitoyda missionerlik faoliyati bilan shug'ullanishardi. Shunga qaramay Absolom va Kerolayn Saydenstrikerlar bolalarining tarbiyasiga kata e'tibor berishardi. Otasi hazilni tushunmaydigan, o'ta jiddiy inson edi. Ko'p yillar davomida xitoyliklarni xristian diniga da'vat etdi.

P.Bak to'rt yoshligida ingliz tilida qanday so'zlashsa xitoy tilida ham shunday so'zlasha va yoza olardi. Perlning do'stlari ham xitoylik bolalar edi, Perlning enagasi xitoylik bo'lib u xitoy xalq ertak va rivoyatlarini aytib berardi. Perl Bak Kornell universitetida 1927 yil XX asr ingliz essenavislari ijodiga bag'ishlangan nomzodlik ishini himoya qildi. Bak talabalik davrida siyosat, tarix, madaniyat muammolari bo'yicha ham maqolalar yozib, o'zining fikrlash doirasini kengligini ko'rsatdi. Tanlovlarda g'olib chiqib mukofotlandi. U keyinchalik bularni eslab "Mukofot menda yozuvchi sifatida o'zimga ishonch bag'ishladi"², - deydi. Tinimsiz izlanishlar Perl Bakni oziga xos uslubga ega bo'lishiga olib keldi. Perl Bakning ilk asari "Xitoy ayoli so'zlaydi" nomi ostida ikki hikoyalari 1925 yil "Asia" jurnalida nashr etildi. Keyinchalik aynan shu

¹ Buck, Pearl S. The Good Earth. Introduction. Pearl Buck and the Good Earth by Peter Conn. -N.Y., 1994, p.37.

² Same source. p.38.

hikoyalarni qayta ishlab 1930 yil “Sharqiy shamol, Gʻarbiy shamol” (“East Wind. West Wind”) nomi bilan roman sifatida nashr ettiradi. Uning bu ilk romani noma shaklida yozilgan boʻlib, xitoylik qiz Kvey Lanning Xitoyda yashayotgan chet ellik dugonasiga yozgan xatlari shaklida, yaʼni monolog tarzida edi.¹ Bak uchun roman mavzui Xitoy va Yevropa turmush tarzining toʻqnashuvi boʻlib qoldi.

Bak ijodiy faoliyatida hal qiluvchi mavqe tutgan “Saxiy yer” (“The Good Earth”) asarini 1931 yilda nashr ettirdi. Ushbu roman nashr etilgunga qadar amerikaliklar Xitoy va xitoyliklar haqida deyarli hech narsa bilmas edilar. “Saxiy yer” romanidagi voqealar Perl va uning turmush oʻrtogʻi Lossi turmushlarining ilk yillarini oʻtkazgan Anxoy viloyatining Nansxgou qishlogʻida boʻlib oʻtadi. Asarda dexqon Van Lun hayoti tasvirlanadi. Unda uning uylanishidan toʻ keksalik davrigacha hikoya qilinadi. Roman boshida Van Lun kambagʻal bir dexqon boʻlib asar soʻngida u boyib ketadi.

Xitoy xalqining hayoti va urf-odatlarini yaxshi bilgan Perl Bak yosh kelin-kuyovning oʻzaro munosabatlarini quyidagicha tasvirlaydi: “There was a woman coming to the house. Never again would Wang Lung have to rise summer and winter at dawn to light the fire. He could lie in his bed and wait, and he also would have a bowl of water brought to him, and if the earth were fruitful there would be tea leaves in the water. Once in some years it was so ”². Mazmuni: “Tez orada uyda kelin boʻladi. Van Lun endi erta turib, qishin-yozin olov yoqishining zarurati qolmaydi. Ornida yotganicha unga ham bir payola qaynoq suv olib kelishlarini kutishi mumkin, hosil moʻl boʻlganda esa choy ham boʻlishi mumkin. Ayrim yillarda shunday ham boʻlgan”³. Quyosh nuridan qizigan yer, loydan qurilgan uy va ertadan kechgacha qilinadigan mehnat – bular haqida koʻplab kitoblar yozilgan. Ammo bu asar boshqacha xususiyatga ega.

¹ Bu romanda ulugʻ fransuz vatanparvari, siyosiy va badiiy asarlar vuallifi Sarl Lui de Sekonda Monteskye (1689-1755) taʼsiri sezilar edi. “Eronidagi xatlar”(1721) bu maktub tusidagi roman Monteskyening asosiy asaridir.

² Buck,Pearl S. The Good Earth. (Introduction, Pearl Buck on the Good Earth by Peter Conn). – N.Y.:Washington Square Press, 1994.p.3.

³ Akobirova.S. “Amerika adabiyoti va Sharq”. Noshkent -2011,p.20.

Perl Bakning manbalar ustida ishlash bo'yicha o'ziga xos yo'li borligi uchun "Saxiy yer" romani oziga xosdir.

O-Lan – Van Lunning qaylig'i, muloyim, chidamli va mehnatsevar ayol. Bu kamgap, uncha chiroyli bo'lmagan keng yuzli ayolning hayoti og'ir, hech kimga ko'rinmaydigan mehnat bilan o'tdi. P.Bak u haqda: "Her face was wet and streaked with the earth"¹, - deb yozadi. Yozuvchi bu yerda mohirona o'xshatish qo'llagan: "Uning terlab chang yopishgan yuzi yerning rangiday edi". O-Lan, homiladorligiga qaramay, Van Lun bilan yonma-yon ertadan kechgacha dalada og'ir mehnat qildi. Hatto, u o'zining bu holatini Van Lunga ayollarga xos sharqona tortinchoqlik, uyatchanlik bilan pastgina ovozda: "Men homiladorman" ("I am with child"), - deydi. O-Lan obrazining tabiatga yaqinligi misolida yozuvchi yer va inson ramziy birligiga ishora qiladi.

Uy-ro'zg'or ishlari va og'ir mehnat ostida umrini o'tkazib, o'ziga ayollarcha zeb berishni xayoliga ham keltirmaydigan O-Lanning holatini P.Bak oddiy va hayotiy tarzda er-xotinning so'zlashuvi orqali tasvirlab beradi: "I mean, can not you buy a little oil for your hair as other women do and make yourself a new coat of black cloth? And those shoes you wear are not fit for a land proprietor's wife, such as you now are.

But she answered nothing, only looked at him humbly and without knowing what she did, and she hid her feet one over the other the bench on which she sat. Then, although in his heart he was ashamed that he reproached this creature who through all these years had followed him faithfully as a dog, and a dog, and although he remembered that when he was poor and labored in the fields himself she left her bed even after a child was born and came to help him in the harvest fields, yet he could not stem the irritation in his breast and he went on ruthlessly, although against his inner will. I have labored and have grown rich and I would have my wife look less like and hind".²

¹ Buck, Pearl S. The Good Earth. – N.Y.: Washington Square Press, 1994, p. 3.

² Same source. P170.

Mazmuni: “ – Nahotki, sen boshqa ayollarga o`xshab soching uchun bo`yoq, o`zingga esa qora materialdan ko`ylak tiktira olmayсан? Oyoq kiyiming ham yaramay qolibdi, unutmа, sen endi katta yer egasining xotinisаn.

Garchi xotini bilan shunchа yil birgа turmush qurib, qanchа qiyinchiliklarni boshdan kechirgаn bo`lishlarigа qaramasdan, eng qashshoq bo`lgаn paytida ham ayoli ungа itoatkorona ergani va bo`ysunganini, birgalikda kecha—kunduz dalada tinimsiz mehnat qilganlarini, hattoki, ayol farzand ko`riboq darrov dalagа – hosil yig`ishgа chiqib u bilan teppа-teng mehnat qilganini bilsа ham, beixtiyor tundlashib, jahl ilа dedi:

- “Men ter to`kib, mehnat qilib, boyidim, mening xotinim xizmatkor bo`lishini istamasdim”.

Van Lun uchun yer yashashning mazmuni va maqsadi edi. U yersiz yashay olmaydi. Doimo fikru-o`yida, yer – saxiy zamin, mo`l-ko`lchilik manbai, farovon hayoti, qolaversа, uning kelajagi. Uning yeri judа kamhosil edi, lekin Van Lun uchun yer dunyodagi yagonа yashash manbai bo`lib, u boshqа narsani tasavvur qilа olmasdi. U bir necha bor ochlik, qirg`in, qurg`oqchilik, suv toshqini, chigirtkalar hujumidan zarar ko`rgаn bo`lsа ham, bu narsalargа yer, u bilan birgа, o`zi va o`zига o`xshaganlar barham bera olishini yaxshi bilar edi. Van Lun konfutsiylik g`oyasi ruhida tarbiyalanganligi uchun qurg`oqchilik bo`lganda yoki yil seryog`in kelib, hamma yoqni suv bosganda, tabiat injiqliklari ko`paygаn chog`larda osmon xudosidan madad so`rab, ibodatxonagа kelib, orombaxsh shamlar yoqadi.

Yerning serhosil bo`lishi tabiat in`omi ekanligini tushungan Van Lun har kun ertalab uyqudan uyg`onganida eng avval ob-havoni bilish uchun derazani ochib tashqarini kuzatar edi.

P.Bak eng oddiy so`zlar bilan xitoy dehqonining o`y-kechinmalarini asar boshida quyidagicha ifodalaydi:

“He went to the hole and tore the paper away.

It is spring ... The hole was barely large enough to admit his hand and he thrust it out to feel of the air. A small soft wind blew gently from the east, a wind mild

and murmurous and full of rain. It was a good omen. The fields needed rain for fruition.

There would be no rain this day, but within a few days, if this wind continued, there would be waret. It was good. Yesterday he had said to his father that if this brazen, glittering sunshine continued, the wheat could not fill in the ear. Now it was as if Heaven had chosen this day to wish him well. Earth would be fruit”¹.

Mazmuni: “U derazaga yaqinlashdi-da, unga yopishtirilgan qog`ozni yirtib, teshikcha ochdi.

Bahor keldi...Kichkina ochilgan teshikchadan, tashqarida ob-havoni bilish uchun zo`rg`a qolini tiqdi. Tashqarida bilinar-bilinmas tovush chiqarib, osoyishta shabada esardi. Bu yaxshilik alomati edi. Hosil yaxshi bo`lish uchun yomg`ir kerak. Garchi, kunlar issiq, havo quruq bo`layotgan bo`lsa ham, agar shamol tinmasa bir necha kundan keyin yomg`ir bo`lishini u sezdi. Bu yaxshi. Kecha u otasiga, agar bu quruq issiq havo yana bir necha kun davom etsa, bug`doylar don olmasligini aytgan edi. Go`yo ona tabiat uning dodini eshitib, atayin bugun quvontirayotganday. Yer bu yil, albatta, yaxshi hosil beradi”.

Romanning birinchi qismidayoq Van Lun muvaffaqiyat qozonadi, uning to`ng`ich farzandlari o`g`il bo`lib, bu xitoyliklar nazdida baxtlilik belgisi edi. Har kuni ertalabdan kechgacha O-Lanning Van Lun bilan yonma-yon mehnat qilishi va tejamkorligi evaziga anchagina yerga ega bo`ldilar. Ularning Xvanlar oilasidan yangi yerlar sotib olib, oilasi mavqeining ko`tarilib borishi hikoya qilinadi. Ko`rib turibmizki, bir oila avlodlari tarixi, ulug` xalq taqdiri, Xitoy xalq mumtoz romani yoqtiradigan mavzu bo`lib, bu amerikalik yozuvchi ijodining asosiy maanbaidir.

Romanda tasvirlangan birgina voqea Van Lun hayotini larzaga soladi. Bu – qizining nogiron tug`ilishi va o`shining kechikishi edi.

Darhaqiqat, romanda bu nomsiz chaqaloq insonning tabiat va dard oldida ojizligini ko`rsatadi. Perl Bakning o`z qizi ham nogiron tug`ilgan bo`lib, ushbu

¹ Buck,Pearl S. The Good Earth. – N.Y.: Washington square press, 1994,pp.1-2.

romanda uning biografik elementlari ko`rinadi, ya'ni nogiron qizi uchun qayg`urishi Van Lun va O-Lan obrazlari orqali ifodalab beradi.

Van Lun oilasining ravnaq topishi uzoqqa cho`zilmadi. Hamma joyda bo`lgani kabi, Xitoy qishloq xo`jaligida har vaqt ham sarflangan mehnatning samarasi aniq bo`lavermaydi. Ehtimol, romanning eng kuchli tomoni halokatli ocharchilikni tasvirlab beruvchi qismi bo`lib, ocharchilik asta sekin butun qishloqni yo`q qilib yuboradi va Van Lun, uning qo`shnilarini qashshoqlikka olib keladi. Ularda oziq-ovqat tugagach, odamlar o`simliklar ildizlarini, keyin qimmatli bo`lgan urug`likni, so`ngra “Yer xudosining sovg`asi” deb nomlangan ovqat ta`mini beruvchi, lekin oziq bo`lmagan loyni yeya boshlaydilar.

Ochlik kuchayib borar ekan, erkak va ayollar vaxshiylashib boradilar. Qishloqda odamxo`rlik haqida ham turli gaplar tarqaladi. Van Lunning otasi bolalik chog`ida ocharchilikda o`z ko`zi bilan ko`rganini gapirib beradi. Ayollar o`z qizlarini o`ldira boshlaydilar. O`sha og`ir yillarda O-Lan qiz tug`adi va uni darhol bo`g`ib o`ldiradi. Van Lun jasadni lattaga o`rab, eski qabrga qo`yib ulgurmasdan bo`riga o`xshash kuchuk uning orqasida paydo bo`ladi. Van Lun kuchukni haydab yuborish uchun kuchi yetmas, ochlikdan o`lgudek toliqqan edi. U qaytib ketishi bilan och hayvon o`ldirilgan jasadni kovlab olishini bilardi, ammo qay tarzda o`z jigargo`shasini himoya qilishni bilmasdi. Perl Bak bolalik chog`larida bunday voqealarning guvohi ekanligi romanda ularni yaqqol tasvirlab berishiga turtki bo`ldi.

Qurg`oqchilikdan talofot ko`rgan Van Lun va uning oilasi janubga ko`chib ketdi. U hammollik (riksha) orqali iolasini boqdi. Van Lun atrofdagilardan inqilob haqida eshitar, lekin bu so`zni avvallari hech qachon eshitmagani uchun tushunolmas edi. Uning tushunchasi bo`yicha dushman imperator ham, iqtisodiy tizim ham, konfutsiylik yoki boshqa mavhum g`oya ham emas, balki dushman – bu qurg`oqchilik, ayovsiz taqdir va baxtsizlik...

Van Lun faqat pul toppib, o`z fermasiga qaytish va o`z hayotini qaytadan boshlashni xoxlar edi.

Romanning uchinchi qismida Van Lunning janubdan qaytib kelishi, o'z yeriga ega bo'lishi, mehnat tufayli oilasining mavqei oshishi, boylik orttirishi, shuningdek, o'g'illarining savodli bo'lishi uchun maktabga berishi jonli tarzda yoritilgan.

Shunga qaramay, kitobning oxirida falokat oldinda ekanligi bashorat qilinadi, chunki o'g'illari Van Lunning Yerga bo'lgan sadoqatini qo'llab-quvvatlamaydi. Ular o'zlarini zamonaviy erkaklar deb hisoblab, dehqon otasi va uning qadriyatlaridan jirkanadi.

Yozuvchi Xitoy xalqining yerga bo'lgan munosabatini roman yakunida bosh qahramon Van Lunning yerni sotmoqchi bo'lgan farzandlariga murojaati epizodi orqali yorqin ifodalaydi: "It is the end of a family – when they begin to sell the land, he said brokenly. Out of the land we came and into it we must go – and if you will hold your land you can live – no one can rob you of land"¹ (Mazmuni: "Yerni sotsangiz, oila barbod bo'ladi. Ibtidomiz yer, intixonimiz ham yer bo'lmog'I darkor. Faqat yerga egalik qilib yashash mumkin. Yeringizni hech kim o'g'irlab ketolmaydi"), - degan chaqiriq so'zlari bilan ifodalab, Van Lunning holatini shunday tasvirlaydi: "And his two sons held him, one on either side, each holding his arm, and he held tight in his hand the warm loose earth"². Mazmuni: "Uni o'g'illari qo'ltig'iidan suwab turgan paytda u qo'lida iliq, yumshoq tuproqni mahkam siqib ushlab turardi".

Romanda xarakterlarni rivojlantirish asta-sekin va ketma-ketlik bilan amalga oshiriladi. Tekis va vazmin hikoya qilish usuli kutilmagan hodisalar va falokatlar tavsiloti bilan almashinishi muallif uchun xos bo'lgan usul edi. P.Bak o'sha ravon, biroq past ovoz bilan Van Lunning asta o'sib borayotgan boyligi haqida gapirsa, uning xonavayron bo'lishi to'g'risida ham, ularning qo'shnilarini odamxo'rlikka olib kelgan ochlik xususida ham, uning birdan boyib ketishi, xotining olamdan o'tishi haqida ham shunday tarzda hikoya qiladi.

¹ Buck, Pearl S. The Good Earth. – N.Y.: Washington Square Press, 1994,p.360.

² Same source, p.360.

Hikoyalarga izoh berilmaydi. Muallif eslatmalari kitobxon nazaridan chetda qoladi. Romanda xitoblar, ko`p ma`noli sukut, hhayajonlar yo`q.

Aniqlik muallifning asosiy bayon qilish mezoni hisoblanadi. Ana shu aniqlik shunday mohirona amalga oshirilganki, kitobda unga erishish uchun ortiqcha urinishlardan asar ham yo`q.

Roman sahnalashtirildi, Brodveyda qo`yildi, Gollivudda ekranlashtirildi.

“Saxiy yer” romanining muvaffaqiyati yozuvchini ruhlantirdi, uni bu oilaviy epopeyani davom ettirishga undadi. Unda trilogiya yaratish fikri tug`ildi, keyinchalik u “Zamin makonimiz” (“The House of Earth”, 1935) deb nom oldi.

“Saxiy yer” romanidan keyin yozuvchining yana to`rtta asari – “Og`illar” (“Sons”, 1932), “Yosh inqilobchilar” (“The young revolutionist”, 1933), “Ona” (“The mothes”, 1934) va “Bo`lingan makon” (“A house divided”, 1935) chop etildi.

“Ona” romani adiba ijodida muhim o`rin tutadi. U xitoy ayollarining mashaqqatli axvolini tasvirlagan. Yozuvchi romanda ramziy belgilardan unumli foydalangan. Asarda qahramonlar nomsiz: Ona, Ota. Katta o`gil, Ko`r qiz, Kichik o`gil va hokazo.

Bu asarida Perl Bak onani eng yuksak maqomga ko`tarib tasvirlaydi. U roman sahifalarida tunganmas kuch-qudrat sohibi, xalqning ulug`yo`lboshchisi sifatida ishtirok etadi.

Ona “Saxiy yer” romanining qahramoni O-Lan bilan yaqin. U o`ta sabrli, itoatkor, yuzining rangi ham hosildor yerga o`xshab ketadi. Ona hamma sinovlardan bardosh bilan o`tadi. Turmush o`rtog`i tashlab ketganidan keyin yolg`iz o`zi bolalarini tarbiyalaydi, yashash uchun kurashib, bir parcha yerida tirishib mehnat qiladi.

Kitobxonlarni o`zi yaratgan xarakterlar o`tkinchi emasligiga ishontirishga harakat qiladi.

“Saxiy yer” romanini yuqori badiiy saviyada yaratgan realist adiba trilogiyasining, “O`g`illar”, ayniqsa, oxirgi “Bo`lingan makon” romanida yana

“Injil” g`oyalarini targ`ib qilishga qaytadi. U bo`layotgan hodisalarning sababini qidirishni o`ylamaydi.

Trilogiyaning birinchi kitobi sifatida “Saxiy yer” Perl Bakdan kamroq kuch talab qilardi, bu asarida u o`z qarashlarini ifoda etish bo`yicha oldiga qo`ygan maqsadiga erishgan. Bu yerda badiiy tasvirchi o`z raqibi bo`lgan maslahatgo`yidan kuchliroq edi. “O`g`illar”da muallif g`oyasi ancha aniqroq ko`rinsada, uning ijtimoiy yuki yengil, romanning badiiy qadri ancha tushgan. “Bo`lingan makon”da fikrini oxirigacha bayon qiladi va missioner tamomila badiiy tasvirchidan ustunlikni qo`lga kiritadi.

Siyosiy maydonga “Saxiy yer” romanining ta`siri uning mashhurligidan ham ahamiyatliroq edi. P.Bak romanlari o`tgan asrning 30-yillaridan to 60-yillarigacha Xitoy bilan munosabatlar o`rnatishga boshqa har qanday amerikalik yozuvchining kitobiga qaraganda muhimroq mavqe tutdi. Romanda Amerika va Xitoy kitobxonlari birinchi marta insonlararo hayotiy munosabatlarni, haqiqiy, oddiy odamlarday o`ylaydigan, ekzotik “sharqiy” qahramonlarga o`xshamaydigan xitoy xarakterlarini ko`rdi.

Xuddi shu narsa asarning asosiy yutug`I hisoblanadi va muallifga chinakam shuxrat keltirdi. Roman nashr etilishigacha yevropalik yoki asli shu qit`adan chiqqan ayrim yozuvchi va jurnalistlar o`z asarlarida Osiyo xalqlarini kamsitgan, ularga past bir toifa odamlardek qaragan. Ular xitoyliklarni johil, allaqanday sirli insonlar deb bilishgan. Yana giyohvandlikka ruju qo`ygan, jamiyatlari esa qoloq va odobsiz, deb hisoblashgan. Bu xunuk, bema`ni va ba`zi yevropaliklar onglarida mustahkam o`rnashib qolgan qarash, albatta, haqiqatdan yiroq edi.

Perl Bakning adabiy merosi juda keng miqiyosli, boy va bebaho. Biroq u o`zbek kitobxoniga deyarli tanish emas. Uning adabiyotga qo`shgan hissasi, eng avvalo, Xitoy mavzusini G`arb dunyosi uchun birinchilardan bo`lib yoritgani bilan bog`liq. U o`zining uzoq hayoti va sermahsul ijodiy faoliyatining so`nggi davrlarida bunga iqror bo`lib, shunday deb yozdi: “Dunyoning qaysi bir qismi ko`proq qadrli ekanini aytish men uchun mushkul. Men Osiyoga xuddi o`z

vatanimga bo`lgani kabi sodiqman”. Chindan ham, yozuvchi Xitoyning o`zining “ikkinchi vatani” deb hisoblar edi.

Perl Bak 1938 yil 10 dekabrda Nobel mukofoti bilan taqdirlanadi. Va o`sha kungi nutqida shunday deydi¹: “Agar men norasmiy nuqtai nazardan haqiqatda Xitoy xalqi nomidan gapirsam, men yanglishgan bo`lardim. Ko`p yillar davomida Xitoy xalqi hayoti mening hayotimning bir qismi bo`lgan edi. Mamlakatimning va Xitoyning, mening jonajon o`lkamning aqli, zehni, ko`p sohalarda bir-biriga o`xshashdir. Ayniqsa shu kunda, ya’ni Xitoyning barcha xalqi eng buyuk, muhim kurash – ozodlik uchun kurash olib borayotgan paytda, ikki mamlakatning ozodlik, erkinlik bo`yicha tushunchalari har qachongidan ham bir-biriga o`xshab ketadi...Ozodlik bugungi kunda har qachongidan ham insonning eng qimmatbaho narsasidir”, - deb yozadi.

P.Bak ijodida hayotning barcha og`ir-yengil kechinmalari kuzatiladi: shodlik, quvonch va tashvishlar doimo almashinib turadi. Unga qo`rquv, vahima va zavq-shavq, muvaffaqiyatlar, yutuqlar doimo hayotiy hamroh bo`lgan. Yozuvchining butun jahonda sevib o`qiladigan ajoyib romanlari – inson taqdirini qalamga olish usulining mumtoz namunasi. Uning muxlislari butun jahon bo`ylab keng tarqalgan, hatto o`z vatani Amerikadan tashqarida yanada ko`proq edi. Adibning kitoblari dunyoning keng tarqalgan o`n tilida chop etildi va shu sababli ham uning asarlari eng ko`p o`qiladigan Amerika yozuvchilaridan biri bo`lgan Mark Tven asarlari bilan bir qatordan joy oldi.

Yozuvchi o`tgan asrning 30-yillarida sobiq ittifoqda ham mashhur bo`lgan. Ammo ikkinchi jahon urushidan so`ng sobiq ittifoqda uning hech bir asari nashr etilmadi. Adibning kitoblaridagi insonparvarlik ruhi, totalitarlik rejimining har qanday shakllarini inkor etishi sho`ro mafkurasiga xush yoqmadi.

Nobel mukofotini taqdim etish qo`mitasining kotibi Anders Osterling shved akademiyasi nega aynan P.Bakni tanlaganini shunday tushuntiradi: “Akademiya qaroriga ta’sir ko`rsatgan birinchi sabab – ota-onasining ajoyib

¹ Akobirova.S. “Bu mukofot barchamizniki” (Perl Bakning Nobel mukofoti bilan taqdirlangan kundagi nutqi)//Jahon adabiyoti, 1999, 2- son,174-bet.

tarjimai holini yaratgani, ularning Xitoydagi missionerlik hayoti, bu ikki asarning mumtoz adabiyot deb atashga loyiq ekanligi va kitobxonlarda katta qiziqish uyg`otgani. Bu ikki tarjimai hol badiiy nuqtai nazardan Perl Bakning avval va bundan keyin yozgan asarlari orasida eng qimmatlisi bo`lib qoldi”¹.

“O`zga O`lkalar” (“The Exile”, 1936) degan birinchi kitobida ko`p qirrali ona obrazi gavdalantirilgan. Kerolayn Staltingning avlodlari gollandlar bo`lib, ular diniy ta`qiblardan qochib, Amerikaga kelib qolishgan. Kerolayn iste`dodli ayol, shu bilan birga, fe`l-atvori, dunyoqarashi qarama-qarshi, bir tomondan, xushchaqchaq, ilimli, musiqani yoqtiradigan, atrofdagilardan, ayniqsa, bolalaridan jonini ham ayamaydigan, ikkinchi tomondan, qattiq tartibli tarbiya olgan, o`z hayotini Xudo yo`liga bag`ishlagan insondir.

Shved yozuvchisi, Nobel mukofotlarini taqdim etish qo`mitasi a`zosi Selma Lagerlyof bu ikki avtobiografik asarni alohida ta`kidlab o`tdi, “har bir epizod – haqiqat, har bir gap – bo`lgan voqea ekan”.

“O`zga o`lkalar” (“The Exile”, 1936) degan birinchi kitobida ko`p qirrali ona obrazi gavdalantirilgan. Kerolayn Staltingning avlodlari gollandlar bo`lib, ular diniy ta`qiblardan qochib, Amerikaga kelib qolishgan. Kerolayn iste`dotli ayol, shu bilan birga, fe`l-atvori, dunyoqarashi qarama-qarshi, bir tomondan, xushchaqchaq, ilimli, musiqani yoqtiradigan, atrofdagilardan, ayniqsa bolalaridan jonini ham ayamaydigan, ikkinchi tomondan, qattiq tartibli tarbiya olgan, o`z hayotini xudo yo`liga bag`ishlagan insondir. Mavjud hayotni sevish bilan birga, dinga berilish uning qalbida qarama-qarshi kurash olib borar edi. “Har gal bu haqida gapirganimizda yoki u haqida o`ylaganimizda, ko`z oldimizda bir-biridan juda farq qiluvchi ikki shaxs gavdalanadi. Biri yoqimli, xushchaqchaq, nozik didli, hazilni yoqtiruvchi, tug`ma qobiliyatli o`zining ajoyib mimikasi bilan yaxshi kayfiyatda bo`lganida hammamizni kulishga majbur etadi...boshqasi esa duoxonlikka joni-jahdi bilan berilgan, Xudoga qattiq ishonuvchi shaxs. U o`zi bilan doimo kurash olib boradi”.

¹ P.A.Doyle. Pearl Buck. – N.Y., 1980, p.81.

Bir gal eri safarga ketgan kunlarida Kerolayn uyi oldida bir to`da olomon yig`ilib, uni va bolalarini jazolamoqchi bo`ladi, chunki bu oila shu yerda yashovchilar orasida yagona “oq tanlilar” oilasi edi. Kerolayn bolalari bilan xotirjam darvoza oldiga kelib, uni ochadi va xushmuomalalik bilan “mehmon”larni choyga taklif etadi. Olomon uning xotirjamligidan hayratlanadi va ularni tinch qo`yadi. Hayotining oxirgi yillarida u og`ir kasalga chalinadi. O`lim to`shagida qiziga shunday deydi; “Men ishonamanki, inson hayotida yorug`likka, baxtli onlar hisoblanmish, o`yin-kulgiga, chiroyga intilishi kerak. Agarda men hayotimni boshqatdan boshlasam, men ana shunday qilardim, deb o`ylayman va buni hech ham gunoh deb hisoblamayman”¹.

P.Bakning tarjimai hol sifatida yozilgan ikkinchi kitobi - 1931 yili vafot etgan otasi Absolom Saydenstriker haqida. Asarda u otasiga Endryu deb ism bergan. “Kurashayotgan farishta” (“Fighting Angel”, 1936) deb nomlangan bu kitob badiiy jihatdan birinchisiga nisbatan yanada yorqinroq chiqqan. Adiba otasining murakkab shaxs sifatidagi obrazini xolisona va mulohazakorona ish yuritgan holda yaratgan.

P.Bakning fikricha, otasi bardoshli, sarguzasht izlovchilar toifasiga mansub bo`lib, agarda u yoshligida diniy xizmat yo`liga kirib missioner bo`lmaganida, shubhasiz, kema kapitani, oltin izlovchi yoki sayohatchi bo`lar edi.

Ikkala kitob ham matbuotda juda yuqori baholandi. “Nyu-York Tayms” ro`znomasi “O`zga o`lkalar” romani haqida “Bu asar davrimizning eng oliyjanob qissalaridan biridir”², deb yozadi.

Shuni takidlash kerakki, P.Bakning Sharqqa bo`lgan muhabbati hayotining so`ngigacha saqlanib qoldi.

Adibaning so`nggi yillardagi asarlari har qancha tortishuvlarga sabab bo`lgan bo`lsada, bu davrda muallif sermaxsul ijod qildi, yuzdan ortiq asar yaratdi, son-sanoqsiz maqola, stenariy va hikoyalar yozdi. Bu yutuqlar uni jahon

¹ Buck, Pearl S. A Biography by Theodore H. Harris in constitution with Pearl S. Buck. Volume 2. - N.Y., 1974, p.316.

² The New-York Times, March, 30, 1970.

miqiyosida ulug` inson darajasiga ko`tardi. P. Bak hayotligida yirik adabiyot arbobi sifatida tanildi. Tanqidchilardan biri, hatto, uni “Amerika adabiyoti qirolichasi” deb atadi. “U yaratgan asarlarning hammasi, - deb yozadi Perl Bak haqidagi birinchi kitobida uning Korneliya Spenser, - insonlar o`rtasida aloqa o`rnatishga xizmat qiladi. U shunday yozar ediki, har qanday kishi ham uning kitobxoni bo`la olar, chunki u xalq uchun yozishga intilgan edi”¹.

Jahon adabiyoti rivojiga Perl Bak ijodining muhim ahamiyati shundan iboratki, uning butun hayoti, ijodi va ijtimoiy faoliyati Sharq va G`arb umuminsoniy qadriyatlarni va insonparvarlik g`oyalarini tushungan holda birlashishlarini tushuntirishga harakat qilgan.

Xuddi ana shu insonparvarlik mazmunini yuksak darajada yoritgan asarlari, haqli ravishda, uning Nobel mukofoti egasi bo`lishiga olib keldi.

Perl Bak ijodiga juda ko`p adabiy tanqidchilar o`z fikrlarini bildirdilar. “Saxiy yer” romani G`arbgaga yangi dunyoni ochib berdi. P. Bak, tanqidchi Jeyms Grey fikriga ko`ra, g`arblik kitobxonga Xitoy haqida ma`lumotga ega bo`lishga yordamlashdi. Boshqa bir tanqidchi Donald Adamsning fikricha, roman amerikaliklarga “boshqa xalq hayoti orqali insonlarni birlashtiruvchi umuminsoniylikni asosini ko`rish uchun imkon yaratadi”². Mashhur adabiyotshunos Karl Van doren roman “xitoyliklarni birinchi marta shunday yaqin va tushunarli qilib qo`ydiki, uni o`qib so`z xuddi sizning tanish qo`shnilaringiz haqida borayotgandek his etasiz”³, - deb baxolaydi. Shu tariqa P. Bak romanlari Amerika va Yevropa tanqidchilari tomonidan yaxshi qabul qilinib, nafaqat mavzuning yangiligi, umuman, odatdan tashqari ekanligi va yuksak yozuvchilik maxoratini ham ta`kidlanganligini ko`ramiz.

Umuman olganda P. Bak ijodiga nisbatan tanqidchilar fikri bir xil emas edi. Yozuvchining asarlari Xitoyning o`zida Amerika va Yevropadan farqli tarzda – boshqacha qabul qilingan edi. Rasmiy doiralarda mehnatkashlar

¹ Spencer, Cornelia. The exile's Daughter. A biography of Pearl S. Buck. – N.Y.: Coward McCann, 1994, p. 192.

² Buck Pearl S. The Good Earth (Critical experts). _ N.Y.: John Day, 1994, p. 369

³ Same source, p. 370

boshiga tushgan baxtsizlik va muxtojliklarni tasvirlash mamlakat haqida yomon taassurotlar keltirib chiqarishi mumkinligidan g`azablanar edi.

Yangil Kong (Younghill Kang) P.Bak haqida ayol va erkaklar o`rtasidagi xitoycha haqiqiy munosabatlarni soxtalashtirdi¹, - deb yozdi.

Kiang Keng-xu (Kiang Kang-hu) "Xitoylik xristian student" jurnalida Van Lun va O-Lanlar o`ziga xos qahramonlar bo`lib, ular oddiy xitoyliklarga xos xarakter xususiyatiga ega emas. – deb da`vo qiladi². Uning fikricha P.Bak mumtoz xitoy matnlarini o`qishni bilganida, qora mehnatkashlardan olgan ma'lumotlarga ishonmaganda, Xitoyni boshqacha ko`ra olgan va tasvirlagan bo`lardi. Yozuvchi Amerikada yashovchi adabiyotshunos, professor Chan Kan Xu tomonidan "Nyu-York Times" gazetasida qattiq tanqid qilindi. U yozuvchini dehqonlarning urf-odatlarini, hayot tarsi bo`yicha noaniqliklarni yozish va voqea tavsilotlarini bayon etishda bo`rttirib yuborganlikda ayblaydi. Chet ellik yozuvchi taqrizida P.Bak Xitoy, uning axolisi va mentalitetini umuman tushunmagani haqida gapirib o`tadi³.

P.Bak bularga javoban "The New York Times Book Review" jurnalida⁴ Kiang Keng-xuning fikrlari noto`g`ri ekanligini isbotlovchi ajoyib esseni e`lon qildi. U o`zining xitoy tilini mukammal bilishini eslatib o`tishni lozim topmadi. Yuqoridagi tanqidiy fikrlarni P.Bak hokimiyat qo`lida bo`lgan tabaqarning sinfiy hujumi deb hisobladi. Kiang va unga o`xshash odamlarning takabburona bildirgan fikrlari uning jaxlini chiqardi. U Xitoy olimlari, aqliy mehnat kishilari, dehqonlari va shaharlik kambag`allarni hurmat qilishga, ularni sevish, ular bilan hamdard bo`lishga chaqiradi. Uningcha, Xitoyda kurash olib borayotgan "bu oddiy insonlar bilan faxrlanishlari kerak, chunki ular Xitoyning qudrati va shon-shuxratini tashkil etadi"⁵.

¹ Younghill Kang. "China is different" в журнале "The new republic", 67 (July,1.1931),pp.185-186.

² Kiang Keng-xuning sharxlari "Xitoy xristian studenti" jurnalida bosildi va 1933 yili "The New York Times" jurnalida qayta chop etildi.

³ Buck, Pearl S. The Good Earth. – N.Y.: John Day, 1994,pp. 370-371.

⁴ The New York Times Book Review. – N.Y.,1993.

⁵ Buck, Pearl S. The God Earth. – N.Y., 1994, p. 372.

Shunday bo`lsa ham P.Bak bilan adabiyotshunoslar orasidagi mojaro 1930 yillar boshlarida Xitoydagi mahalliy va xorijiy jamoalardagi turli g`iybatlarga sabab bo`ldi.

Yosh jurnalist X.Foster ilk marotaba Xitoyga 1931 yil tashrif buyurganda, P.Bak romani haqida munozaralar hali ham davom etardi. X. Fosterning fikricha P.Bak olimlar va boy hukmdorlar o`rtasida mashhur emas edi. Sababi u kambag`allik va tengsizlik to`g`risidagi bor haqiqatni aytdi, ular esa buni qo`pol va noto`g`ri deb hisobladilar.

X. Foster yana P.Bak romani haqida xitoylik adabiyotchilar va talabalar bilan bo`lgan suhbatni eslaydi: “Men yosh ziyolilar romanni yomon ko`rishlarini bilib, juda hayratlandim...”. Ular “Yozuvchi bunday yomon odamlar haqida yozishi shart emas edi: nima uchun u madaniyatli odamlar haqida yozmadi?”, - deyishadi¹.

G`arbda bilim olgan xitoyliklar ham romanni ko`rarga ko`zlari yo`q edi va ularning ko`pchiligi unga dushmanlarcha qaradi, chunki ular chet elliklar Xitoy haqida nomaqbul narsalarni bilib olishlarini istamas edilar: ular bor haqiqatni sir sifatida yashirishga harakat qildilar, Xitoyning faqatgina tashqi ko`rinishini, go`zal manzaralarini ko`rsatishni xoxlar edilar.

P.Bakning uchta romani 30-yillarga kelib sobiq ittifoqda tarjima qilindi. U kitobxonlar orasida juda mashhur bo`ldi.

Shu sababdan P.Bakning ijodini rus tanqidchilari tomonidan qanday baholanganligini tahlil qilishni o`rinli deb bildik. Ayni o`sha davrda mamlakatda Xitoyga qiziqish katta edi. Xitoy xalqining taqdiri boshqa xalqlarni ham tashvishga slogan edi. P.Bakning “Saxiy yer” romaniga bildirilgan ilk adabiy-tanqidiy munosabat, mashhur dramaturg va tanqidchi Sergey Tretyakovning fikrlarida ko`rish mumkin. Tanqidchi adibaning asarlarida siyosiy xarakteristika yo`qligini qoralaydi va bu – uningcha, yozuvchining siyosiy savodsizligidan. Tanqidchi asarni romanni realistic asar deb, Van Lun va uning rafiqasi

¹ Taniqli rus amerikashunoslari B.A.Gilenson, A.S.Mulyarchik, A.N.Nikolyukinlar Xitoy ziyolilari va burjuylari oddiy xalq manfaatlaridan uzoq bo`lganliklarini to`g`ri ta`kidlaydilar. Bu dalillar o`zbek adabiyotshunosi K.K.Rafiqov ishlarida o`z tasdig`ini topgan. Amerika jurnalisti Foster “Xitoy ziyolilari P. Bakdan o`zlari haqida yozishni da`vo qildilar. Oz ham emas, ko`p ham emas”, - deb yozadi.

obrazlarini alohida ajratadi. 30- yillar odati ruhida S.Tretyakov P.Bakka bir necha da'volarni qo'yadi. U Van Lunning hayoti colonial zulm tizimidan tashqarida berilgan va yozuvchi o'z romanlari qahramonlarini unga munosib ravishda badiiy gavdalantira olmagan, deb hisoblaydi.¹

“Литературный современник” jurnalining 2-sonida 1935 yil adabiyotshunos N. Konstantinovaning “Saxiy yer” romaniga taqrizi chop etildi. Unda shunday fikrlar bore di: “P.Bakning romani hech ham qayg'uli emas va g'ayritabiiylikdan yiroq. Ana shunday real va keng qamrovli asarni missioner yozganiga ajablanasan kishi... Xitoy to'g'risidagi kitoblar orasida, afsuski, ular bizda juda kam, Perl Bak romani, so'zsiz, ahamiyatli badiiy asar sifatida ajralib turadi ”².

Ammo adiba falsafasi tanqidchi uchun yot narsaga o'xshab ko'rinadi . U asarning bosh qahramoni Van Lunni dehqonlarni yollab, ayovsiz ishlatadigan quloq deb hisoblaydi: “... dehqonlarni yollagan, foizga pul qarz berib, yaqinlarining mehnati hisobiga boyib ketgan. Lo'nda qilib aytganda, unga “yerga munosabat” emas, “pulga munosabat” yordam beradi”³. Maqola muallifi adibaning romani bilan taniqli norvegiyalik yozuvchi Knut Gamsunning romanlari o'rtasida o'xshashlik bor, deb hisoblaydi: “Jahon adabiyotida P.Bakning romani K.Gamsunning “Zamin sharbati” romaniga yaqin turadi. Ularni nomi va syujeti o'zaro yaqinlashtiradi... Ayrim farqlariga qaramay , bu ikki romanning o'xshashligiga shubha yo'q. Bunga sabab K. Gamsun va P.Bak badiiy so'zlar vositasida so'zlar vositasida xususiy mulkchilikni oqlamoqchi bo'ldilar ”⁴, - deb xulosa qiladi tanqidchi. Kolesnikova P.Bakni “O'z qahramonini ijtimoiy aloqalardan ajratib olib, hodisalar vaqti va joyini soya ostiga berkitishga”⁵. Tanqidchi bosh qahramonda sinfiy dushman, xususiy mulk egasini ko'radi. Bu esa o'z davr mafkurasi bo'yicha ijobiy qahramon tushunchasiga mos kelmas edi . Shuning uchun ham maqola : “Mayli, P.Bak uni

¹ Третьяков С. О. “Земле” П. Бак // Интернациональная литература, 1934, № 3.

² Константинова Н. Чувство земли под ногами // Литературный современник, 1935, № 2, 222-бет

³ Same source

⁴ Same source

⁵ Kolesnikova G. Проповедь возвращения // Интернациональная литература. – М., 1936, №1, 121-бет

(Van Lunni) do`st qilib ko`rsatishga harakat qilsin, baribir, obrazning real mazmuni bizga unda dushmani ko`rishga majbur etadi”¹, - degan so`zlar bilan yakunlanadi.

Sobiq ittifoqning adabiy tanqidchilari ajoyib yozuvchi ijodini oxirigacha to`la tushuna olmadir. Bo`lmasa, 30- yillarda dunyo P.Bak asarlarini o`qir, ular asosida spektakllar qo`yar, filmlar suratga olar edi. Rus adabiyotshunoslari esa amerikalik yozuvchining o`ziga xos ijodini tushunib, uning mazmuniga yetishga harakat ham qilmadi. Balki ular tanqidchilar ijtimoiy buyurtmani bajarish nuqtai nazaridan shunday yo`l tutgandirlar.

40-50- yillar badiiy tanqidchiligida P.Bak ijodini tushunishga harakat ham qilinmadi . Tanqidchilar o`z kata kasbdoshlari an`analarini davom ettirdilar . Ularni P.Bakning siyosiy nuqtai nazari qiziqtirar edi, u esa, antikommunist edi. Bu holatni esa o`sha davr g`oyaviy boshliqlari kechira olmas edi . 70-80-yillarda yozuvchi ijodi haqida birorta ham maqola yozilmadi, uning vatanida esa yozuvchining ijodini o`rganishda ko`tarilish davri bo`lib, ko`p tirajda uning kitoblari, novella, xotiralari va tarjimai holiga oid asarlar nashr etildi.

Yozuvchi ijodi adabiy tanqidchilikni qiziqtirib o`rganilgan bo`lsa-da, taqrizlarda berilgan baholar bir xil emas . Ularning ko`pchiligi ijobiy bo`lgan , ayniqsa, “Saxiy yer” romani haqida shunday taqrizlar yozilgan. Hatto rus tanqidchiligi ham mafkuraviy jihatdan yondashilgan holda bo`lsa-da, unga o`z qiziqishini bir qator chiqishlarda bayon etdi .

P.Bak ijodiga berilgan taqrizlar sonining nihoyatda ko`pligi yozuvchi ijodining jahon adabiyotida ulkan hodisa bo`lganligini tasdiqlaydi.

Perl Bak romanlaridagi “birovniki” va “boshqasiniki” munosabatlarini tahlil qilish orqali “birovniki” va “boshqasiniki” ning o`zaro kirib borishi va bu ikki tushunchaning almashinishi jarayonini qayd etish mumkin. Sharq va G`arb olamlarining to`qnashuvi sharoitida uning kitoblari “begona” ni nisbiy yaqinlashtirish, tushunish va assimilyatsiya qilish, madaniy asarlar “begona”

¹ Kolesnikova G. Проповедь возвращения // Интернациональная литература. – М., 1936, №1, 127-бет

makondan “biznikilar” makoniga o‘tishga erishadi. Sharqshunoslik adabiyotiga xos bo‘lgan butparast, turg‘un Xitoy, Perl Bak ko‘rishni xoxlagandaka mamlakatga aylanadi: uning Xitoyi “o‘zimizniki”, tanish, doimo o‘zgaruvchan. Bayram va marosimlar, urf-odat va an‘analar rivojlanish jarayonida namoyon bo‘lib, turli xarakterlar bilan, ba‘zan butunlay qarama-qarshi nuqtai nazardan talqin qilinadi¹.

Turli madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot yozuvchining ko‘plab kitoblarining mavzusini belgilaydi. “East wind: West wind”, “Fighting Angel”, “Pavilion of Women”, “Peony: A Novel of China” va “Three Daughters of Madame Liang” bunday romanlarning mantiq va semantik chiziqlari, madaniyatlarning asosiy aloqasi - faol to‘qnashuv - o‘zaro tan olish va o‘zaro hurmatga asoslangan muvaffaqiyatli muloqot deb nomlangan xuddi shunday sxema bo‘yicha qurilgan². Uning romanlari qahramonlari, turli millat va madaniyat vakillari bir madaniy va tarixiy makonda - Xitoyda joylashgan. “O‘zga sayyoraliklar” “biz” ga aylanadi va amerikaliklar va yevropaliklarning o‘zlari begonaga aylanadi. E’tiborli jihati shundaki, Perl Bakning ilk romanlarida xorijiy personajlar ishtirokidagi hajviy epizodlar g‘arbparastlik namunasi bo‘lib, bu yerda Xitoy me‘yor, G‘arb esa og‘ish ramzi sifatida ko‘rsatilgan. Perl Bak o‘z ishida boshqaning ijobiy tarkibiy qismlarini ta’kidlashga yordam beradigan ba’zi doimiy xususiyatlar (axloqiy troplar) bilan ishlaydi. Masalan, Perl Bak ko‘pincha xitoyliklarning oila va ota-onalarning ahamiyati, samimiylik va mehnatga muhabbat kabi ijobiy fazilatlarini ta’kidlaydi. Har qanday millatga xos bo‘lishi mumkin bo‘lgan bu universal belgilar Xitoy xalqiga hamdardlikni keltirib chiqaradi, bu Bakning niyatidir. Shu bilan birga, bir xalq uchun ijobiy bo‘lgan ayrim xususiyatlar boshqa xalqning dunyoqarashida millatga salbiy baho berishi mumkin. Misol uchun, xitoyliklarning diniy bag‘rikengligi Bak uchun ijobiy belgidir, ammo protestant Amerika bilan solishtirganda, xurofot, xudosizlik va vahshiylikning negativ belgisi sifatida salbiy baholanishi mumkin.

¹ Bentley P. The Art of Pearl S. Buck // The English Journal. – 1935. – Vol. 24. – No. 10. – P. 793.

² Wen Yiming, Using ‘others’ to construct one’s own image: An analysis of Pearl S. Buck’s self-reflection in The Pavilion of Flowers, Journal of Southwest Jiaotong University, No. 6, 2006, p. 65.

Perl Bak romanlarida “o‘ziniki” va “o‘zga”ni tahlil qilib, “yaqin” va “uzoq” tushunchalarini qo‘shish va bu tushunchalarni bitta kalitda ko‘rib chiqish tavsiya etiladi. Agar Xitoy Bak uchun begona va ko‘pincha u chet ellik ekanligini asos qilib olsak, fazoviy-vaqtinchalik ma‘noda Xitoy uning haqiqiy muhiti, uning birinchi tili. Xitoy va yozuvchi Xitoy madaniyati kontekstida fikr yuritadi. Aynan “yaqin”, ammo “begona” Xitoydagi hayot uning ijodiy yo‘li va ijtimoiy qarashlarini shakllantirishda katta rol o‘ynadi va unga “o‘zini”, ammo “uzoq” Amerikani tashqaridan kuzatish va baholash imkoniyatini berdi. Yozuvchi “yaqin, ammo begona” Xitoy va “uzoq, lekin vatan” Amerika motivlarini AQShda yozilgan keyingi romanlarida ham saqlab qolgan¹.

“O‘zimiz va begona”ning diskursiv xususiyatidan kelib chiqib, Xitoy va G‘arb madaniyatlari o‘rtasidagi muloqotni aks ettiruvchi Bak romanlarida ushbu tushunchaning mavjudlik sohasini ko‘rib chiqamiz. Xitoy qiyofasini tahlil qilishda tarixiylik tamoyiliga amal qilgan holda, Bak romanlarida Xitoyni qabul qilish va tasvirlash tarixiy tebranishlar va AQSh-Xitoy munosabatlarining tabiatiga bog‘liqligini ta’kidlash kerak. Zamonaviy imagologlar tomonidan e‘tirof etilgan tarixiylik tamoyili turli davrlarda yaratilgan badiiy obrazlarni solishtirish va shu asosda imagologik nutq dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Bu yerda muallif va personajlarga xos bo‘lgan “o‘zining” va “o‘zganing” obrazlari ko‘pincha bir-biriga mos kelmasligiga e‘tibor qaratish o‘rinlidir. Xuddi shu to‘qnashuvga, ya‘ni Xitoy va G‘arb madaniyatining to‘qnashuvi va dialogiga asoslangan asarlarni taqqoslash istiqbolli ko‘rinadi va bizga bir xil mavzular va motivlarning imagologik komponenti turli davrlarda yozilgan matnlar orqali o‘tib, ijodkorlikni qanday o‘zgartirganini kuzatish imkonini beradi.

Yozuvchining dastlabki asarlaridan biri “Pavilion of Women” bo‘lib, u Perl Bakning otasi Absolom Seydenstrikerning tarjimai holi bo‘lgan romani

¹ Wen Yiming, Using ‘others’ to construct one’s image: An analysis of Pearl Buck’s self-reflection in “The Pavilion of Flowers”, Journal of Southwest Jiaotong University, 2006. Issue 6, Page 63.

xususan, “biografik durdona” sifatida tan olinib, yozuvchi Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Roman 1932-yilda, Bak hali Xitoyda yashayotgan va butun dunyodan Osmon imperiyasiga oqib kelayotgan missionerlar oqimining guvohi bo‘lgan bir paytda yakunlangan. Romanning syujeti yozuvchining otasi (kitobda Endryu nomi bilan taqdim etilgan), presviterian missioneri, Amerikaning ona qirg‘oqlarini abadiy Xitoyda va‘z qilish uchun abadiy tark etgan hayotiy hikoyasiga asoslangan. O‘quvchiga Endryu hayotidagi bir qator voqealar taqdim etiladi, ular fonida XIX-XX asrlar boshidagi imperiyaning qulashi, inqiloblar va xalq respublikasining yaratilishi kabi eng muhim voqealar sodir bo‘ladi.

Kitobda o‘zgalarga xizmat qilishga fidokorona xizmat qiladigan missioner ota obrazi xolisona tasvirlangan. Endryu obrazi Amerika milliy ruhining ifodasidir. Uning chuqur shaxsiy taqvosi, shuhratparastligi va iloji boricha ko‘proq xitoylarga ta’sir o‘tkazish istagi bilan birgalikda uni o‘z davrining yorqin vakiliga aylantirdi (Amerika kengayish davri). Uning uchun Xitoy bosib olish uchun pishgan yangi hududdir. Uning missionerlik faoliyati muvaffaqiyatli bo‘lganiga qaramay, uning oilaviy hayotini baxtli va farovon deb atash qiyin. Dilemmaning mohiyatini Perl Bak quyidagicha ifodalaydi: “O‘z suruvi uchun ajoyib missioner va ruhiy ota, u hech qachon o‘z farzandlariga ota bo‘lmagan. Uning qizlari va o‘g‘illari otalarining e’tiboridan mahrum bo‘lishdi, chunki u bor narsasini Xudoga berdi.” O‘z mohiyatiga ko‘ra, yozuvchi qashshoq ota va ona obrazlaridagi o‘xshashlikdan kelib chiqqan oiladagi ichki dramatismni ham ochib beradi¹.

Missionerlik mavzusi Bakning keyingi “Pavilion of Women” romanida ham ko‘rib chiqiladi, u hali tarjima qilinmagan. Perl Bak bu romanni Qo‘shma Shtatlarda, Xitoy va Amerika o‘rtasidagi munosabatlar ancha keskinlashgan va Bak Xitoy bilan ajralib, vataniga qaytishga majbur bo‘lgan bir paytda yozgan. Xitoy va Amerika o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy to‘qnashuvlar yozuvchining

¹ Безрук Ю.Л. Творчество Перл Бак 1920 – х начала 1930–х годов. Жанр, стиль, метод. Указ. Соч. С. 15.

shaxsiy kechinmalari bilan qo‘shilib, asosiy muammosi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi uyg‘unlik bo‘lgan romanni yozishga turtki bo‘ldi.

Muvaffaqiyatli va hamma tomonidan hurmatga sazovor bo‘lgan “Pavilion of Women” romanining qahramoni xonim Vu qirq yoshga to‘lib, hayotni noldan boshlashga qaror qiladi. Eriga ikkinchi xotin topib, 60 kishilik oilaga g‘amxo‘rlik qilish bo‘yicha barcha mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olib, ayollar qo‘li yetmaydigan kitoblarni o‘qishni, ingliz tilini o‘rganishni va dunyoni yangidan anglashni boshlaydi. G‘ayrioddiy, ilg‘or fikrli nasroniy ruhoniy birodar Andre bilan uchrashuv va keyingi darslar uning hayotini butunlay o‘zgartiradi va unga haqiqiy erkinlikni topishga yordam beradi.

Romanning bosh qahramoni xitoylik ayol bo‘lishiga qaramay, bosh qahramon Andredir. Andrening ismi va tashqi ko‘rinishi “Fighting Angel” romanining bosh qahramoni - Endryuga o‘xshashligi bejiz emas. Ularning obrazlari o‘z navbatida ularning “o‘zini” ikki xil ko‘rinishini ifodalaydi: tarixiy “o‘ziniki” (historical self), - konservativ, g‘arb markazli, bostiruvchi va ideallashtirilgan “ideal o‘ziniki” (ideal self) - liberal, ko‘p madaniyatli, dialogik.

Shuni ta’kidlash kerakki, qarama-qarshi bo‘lgan ikkita tasvir prizma orqali ko‘rib chiqiladi “o‘zgani” va faqat unga nisbatan baholanadi.

“Fighting Angel” va “Pavilion of Women” romanlaridagi Xitoy va xitoylar obrazi ikki nuqtai nazarni aks ettiradi - muallif (“Pavilion of Women” romanida biz muallifning nuqtai nazarini sinxronlashtirish haqida gapirishimiz mumkin) birodar Andrening nuqtai nazari) va amerikalik missionerlar. “Fighting Angel” biografik romanidagi muallifning o‘rni ochiq, hatto deklarativ tarzda o‘quvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatlarda, muallif sharhlarida berilgan.

Muallif uchun “uning” asosiy vakili sifatida Endryu obrazi romanda juda ziddiyatli tarzda taqdim etilgan. “O‘ziniki” tushunchasi orqasida xristian missionerlari bor, ular orasida Endryu ajralib turadi va “begona” Xitoy va Xitoy xalqini nazarda tutadi. Romanlar shuni ko‘rsatadiki, har bir milliy madaniyatda “begona” “o‘zinikini” tan olish kerak, xuddi “o‘zinikiga” tayanmasdan, “o‘zgani”

tan olish mumkin emas. Endryu va Kerrining “begona odamlarga” munosabati barqaror emas va ularning Xitoyda qolish muddatiga qarab o‘zgaradi.

Dastlab, Xitoy amerikaliklar tomonidan nafaqat “begona”, chet ellik, bu yerlik emas, balki dahshatli, tahdidli sifatida qabul qilinadi. “Fighting Angel” romanida Endryuning rafiqasi Kerri mahalliy aholining samimiyligi va mehmondo‘stligiga duch kelmaganidan keyin qo‘rquv boshdan kechiradi. “Heathen faces...How dreadful they were to look upon, how cruel their narrow eyes, how cold their curiosity!”¹. Biroq, xitoyliklarning o‘zlari tushunishlariga ko‘ra, chet ellik - bu noma‘lum, dahshatli, urush bilan kelgan odam. “Foreign devils”, “Swift and ruthless soldiery” – bunday epitetlar xitoyliklarning “begona odamlarga” munosabatini tasvirlaydi. “The Chinese have always been distrustful of foreigners, not only from other countries but even people of their own nation from other provinces or regions”², - deb yozadi Bak, xitoyliklarning madaniy o‘ziga xosligini - Sharq xalqlarining tashqi ta’sirga yaqinligini tushuntirib.

Diniy tafovutlar, ehtimol, missionerlar va mahalliy aholining o‘zaro ishonchsizligining asosiy sababidir. “Fighting Angel” romanida bosh qahramon uchun “do‘st yoki dushman” oppozitsiyasi diniy mansublikdan iborat edi: “do‘stlar” (xristianlar) va “begona” (xitoylar, jannatga ishonuvchilar va Xitoyning uchta ta’limoti - buddizm, Konfutsiylik, daosizm). Bundan tashqari, romandagi “begona odamlar” ko‘pincha “butparastlar” umumiy nomi ostida paydo bo‘ladi. Endryuning so‘zlariga ko‘ra, xitoylar najotga intilayotgan yo‘qolgan ruhlar, Xitoy esa “shaytonning qorong‘u mamlakati”. Xitoyning an’anaviy e’tiqodlari nafaqat Endryudan nafratlanadi, balki uni qo‘rqitadi. Dinlarning sinkretizmi va Jannatga bo‘lgan e’tiqodi faqat bitta qudratli Xudo bo‘lgan bosh qahramonga tushunarli emas. Endryu Konfutsiy haqida shunday deydi : “Confucius says some very nice things... but he knew nothing of God and of course understood nothing of the wickedness of human nature and the necessity of salvation from sin through our Savior, the Lord Jesus Christ”.

¹Buck P.S. Fighting angel. Op. Cit. P.100.

² Davis D., Trani P. E. Distorted Mirrors: Americans and Their Relations with Russia and China in the Twentieth Century – Columbia: University of Missouri Press, 2009. – P. 260.

Dinni falsafiy va axloqiy ta'limot darajasida qabul qiladigan xitoyliklar uchun xristianlikni qabul qilishning yagona imkoniyati Konfutsiylikning axloqiy ta'limotini Injil monoteizmi va Yangi Ahdning Najot haqidagi ta'limoti yordamida «to'ldirish» edi. Ikki ming yil davomida xitoyliklar tabiat falsafasi, konfutsiylik, daosizm va buddizmni shaxsiy va jamoat hayotini cheklovchi qonunlar va tamoyillar majmuasi sifatida tan oldilar. «Boshqa xudoga» bag'rikeng munosabat va qiziqish tabiiy edi: “one religion more or less meant nothing to the people. There was always the possibility that there might be an extra god somewhere of whom they had not heard, and whom they should propitiate for benefit. To add a white man's god could do no harm. Buddha himself had been a foreigner, though black”.

Aksariyat mahalliy aholi missionerlarga nafrat bilan munosabatda bo'lishdi, ammo tajovuzkorlik qilmadilar. O'zining va'zlari paytida Endryu xitoyliklarni qabul qilishga ishontirishga harakat qildi: “not all gods were good...there were false gods – gods of clay and stone – but his was the only true god”. “They listened, humoring him. After all, he was a foreigner — he could scarcely be expected to know manners”. “Pavilion of Women” romanidagi britaniyalik missioner Sia opa xitoylik boy xonimlarning uylariga tez-tez tashrif buyurib, va'zlarida shunday takrorlaydi: “There is only one true God”, u xitoylik ayollarning xayrixoh tabassumlarini qabul qiladi, ular uchun va'zlar uzoq mamlakatlar haqidagi qiziqarli hikoyalarni eslatadi.

Ba'zi missionerlar uchun “chet ellik” “ularniki” bo'lishi mumkin. Jarayon Endryu va Kerri Sharq madaniyatiga “yaqinlashish”ni mamlakatda bir necha yil qolgandan keyingina kuzatadilar. Endryu xitoyliklarni o'zining bo'lajak suruvi deb baholab, ularni “o'ziniki”ga aylantiradi. Endryuning samimiyligi va tinch niyatlarini ko'rib, u “yaxshi o'qituvchi” sifatida qabul qilinadi, u uchun asosiy narsa terining rangi emas, balki uning ruhidir: “Most of all the Chinese loved him because he knew no color to a man's soul and he took the part of the yellow man”¹.

¹ Buck P.S. Fighting Angel. P. 244.

Endryuning boshqa missionerlardan farqi shundaki, u missioner hamkasblarining va'zgo'ylik g'ayratini saqlab, Xitoy madaniyatini ichkaridan chuqur bilishga intilgan. Xitoy tilini mukammal bilish, bu unga mahalliy aholi bilan muloqot qilish imkonini berdi, Bibliyaning xitoy tiliga o'z tarjimasini yakunlash istagi bilan Endryu Xitoy xalqining hurmati va e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Asta-sekin Endryu o'z vatandoshlaridan ko'ra xitoyliklarga ko'proq ishona boshlaydi: "It was a complaint against him that if the choice were given him to believe a Chinese or a white man, he always believed the Chinese". Kerri ham oxir-oqibat xitoyliklar tomonini Tan oldi va ularni "begona" sifatida qabul qilishni to'xtatdi. "She came to love her Chinese friends, forgetting as she did so easily their differences in race and background".

"Pavilion of Women" romanida Andre uchun "begona" tushunchasi mavjud emas. Mamlakatlarning chegaralari o'chirildi, hamma odamlar uchun universal bo'lgan tushunchalar va qonunlarga asoslangan yagona umumiy dunyo mavjud. Bak o'z qahramonini shunday tasvirlaydi: "He has no country. Wherever he is, is his home."¹ Uning uchun Xitoy boshqa mamlakatlar kabi aziz, yaqin va "o'ziniki."

Andre Xitoy madaniyatining o'ziga xosligini ko'radi va tushunadi. Ko'p asrlik an'analar hurmat va ehtiromni uyg'otadi va o'zingizni va hayotingizni qayta ko'rib chiqishga imkon beradi. Madam Vuning o'g'li bilan ingliz tili darslari asta-sekin Sharq va G'arb, an'anaviy asoslar va axloq, hayotning mohiyati haqidagi falsafiy suhbatlarga aylanib boradi.

O'quvchini Xitoy madaniyati olamiga jalb qilish orqali Bak Sharq an'analari vakilini idrok etish orqali "begona" va "o'zimiznikini" o'rganish, idrok etish imkoniyatini beradi. Aynan Vu xonim romanda Xitoy dunyosiga yo'l ko'rsatuvchi rolni o'ynaydi. Romanning asosiy syujet komponenti - xitoy an'anaviy qadriyatlari va axloqiy tamoyillariga asoslangan Vu xonimning hayoti: ajdodlarga hurmat, kichikning kattaga so'zsiz bo'ysunishi, samimiy his-

¹ Buck P.S. Pavilion of women. Op. Cit. P. 115.

tuyg'ularni hurmat qilish, ta'lim-tarbiya va odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish, qoidalar bilan belgilangan xulq-atvor normalari.

Xitoy qiyofasini yaratishning ushbu elementlari konfutsiylikning asosiy tamoyillari bo'lib, uni "the harmony of a traditional Chinese family with different generations under the same roof"¹ ta'minlaydi.

Biroq, ko'plab amerikaliklar Xitoy davlatchiligining qulashi sababini ichki zaiflikning dalili Konfutsiy qadriyatlarini edi deb atagan. Imperialistik kuchlarning kuchayishi va Qing imperiyasiga bosimning kuchayishi missionerlarni o'z baholariga nisbatan murosasiz bo'lishga undadi. Ko'pgina missionerlar Xitoy madaniyatining axloqiy va diniy bankrotligini ko'rsatishga intilib, ularni o'rab turgan hamma narsada mutlaqo butparastlik, yovuzlik va xurofotni ko'rishda davom etishdi.

"Jangchi farishta" romanida nasroniy missionerlar, presviterianlar, baptistlar, metodistlar – "o'zlariniki"ni: inson Iso Masihga ishonadi, shu imon orqali gunohdan xalos bo'ladi va Xudo uchun najot topadi kelajak hayoti, yoki u sharmandalik va gunohga botgan g'azab va halokat bolasi" g'oyasi bilan birlashtirishga harakat qilishgan. Bak shunday izoh beradi: "They were blind. For the glory of God had made them blind. They were drunk with love of God, so that they saw nothing but His glory."²

Ko'pgina amerikaliklar uchun "kengayish siyosati" o'z davlati chegaralaridan tashqarida o'zlarini amalga oshirish uchun ajoyib imkoniyat bo'ldi, chunki Xitoyning qulflangan eshiklarini majburan "ochish" sharafli vazifasi xristian missiyasi edi. O'z mamlakatidagi ko'plab oddiy odamlar muvaffaqiyatli martaba va tan olinishi uchun Xitoyga ko'chib o'tishdi. Bundan tashqari, XIX-XX asrlar, yuqorida aytib o'tilganidek, missionerlik harakatining yuksalishi davri edi. Millionlab savodsiz, ma'rifatsiz xitoyliklar bo'lgan mamlakatga Xudoning elchisi bo'lish imkoniyati ko'plab missionerlar uchun jozibali bo'lib tuyuldi va ularga muhimlik va eksklyuzivlik hissini berdi.

¹ Wen Yiming, Using 'others' to construct one's own image: An analysis of Pearl S. Buck's self-reflection in The Pavilion of Flowers, Journal of Southwest Jiaotong University, No. 6, 2006, p. 65.

² Buck P.S. Fighting Angel. Op. Cit. P. 144.

Endryu obrazi Amerika milliy ruhining ifodasidir: “The very essence of a rock-ribbed individualism, a fiery zeal”¹. Bak romanni “Fighting Angel” deb atagani bejiz emas. Uning chuqur shaxsiy taqvosi, shuhratparastligi va iloji boricha ko‘proq xitoyliklarga ta’sir o‘tkazish istagi bilan birgalikda uni o‘z davrining yorqin vakiliga aylantirdi – “American Expansion Age”. Bak otasi haqida shunday yozadi: “Andre worked his territory, a space larger than Texas”, “he measured happiness by the success of souls crowding to be saved.”²

Endryu o‘z ishiga imon va sadoqat bilan qat’iy yondashadigan odam. Ammo, ko‘plab missionerlar singari, u boshqalarning his-tuyg‘ulari va fikrlari haqida o‘ylamasdan, o‘zini haq ekanligiga ko‘r-ko‘rona ishonadi. Aynan Amerikaning ruhi Endryuning missionerlik harakatini kuchaytiradi: “made by that blind certainty, that pure intolerance, that zeal for mission, that contempt of man and earth, that high confidence in heaven, which our (American) fore-fathers (protestants) bequeathed to us.”

Xitoyliklardan ustunlik tuyg‘usiga qaramay, Endryu hayotining ma’nosi “begona odamlar” bilan yaqin munosabatda bo‘ladi. Uning uchun “boshqa” - bu uning “men”i amalga oshirish uchun yagona imkoniyat. “When he stepped upon the Chinese shore, he no longer had the air of a foreigner that he had in his own country”.

“Pavilion of women” romanida ideal missioner obrazi boshqacha tasvirlangan. Perl Bak “Universal man” obrazini yaratadi – u uchun barcha dinlar teng va barcha madaniyatlar o‘ziga xos tarzda noyobdir. Romandagi Andre obrazi, Pavilion of women nafaqat Xudoning sevgisiga, balki insoniyatga bo‘lgan muhabbatga asoslangan nasroniylikning yangi kontsepsiyasini ifodalaydi. Faqat bitta to‘g‘ri dinning mavjudligiga pravoslav e’tiqodi va hamma “begona” narsaga nisbatan muhosasizlik “Pavilion of women” romanida odamlar o‘rtasidagi tenglik va hamma uchun bir xil bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlar mavjudligiga ishonch bilan almashtirildi.

¹ Buck P.S. Fighting Angel. Op. Cit. P. 144.

² O‘sha manba. - C. 258

“There is a God, but he has many names”, - mana shunday birodar Andre barcha dinlar o‘rtasida o‘xshashlik ko‘rsatadi. “Fighting Angel”dan farqli o‘laroq, Andre o‘z hayotini nafaqat Xudoga xizmat qilishga, balki odamlarga xizmat qilishga bag‘ishladi. U uchun inson qaysi madaniyat, irq yoki millatga mansubligi muhim emas. “Everyone is of his blood. There is no difference between one blood and another”.

“Fighting Angel” - Edryu, Xitoyga sodiqligiga qaramay, hali ham G‘arb sivilizatsiyasining ustunligiga ishonch hosil qiladi va Sharqning kelajagini faqat shu yerda ko‘radi. “Xristianlik bilan “begonalarni” tanishtirish,” – ushbu tarixiy tendentsiya Xitoyda muvaffaqiyatli bo‘lmadi va Perl Bakning qattiq tanqidiga uchradi. “Pavilion of Women” romani yozuvchining 1898-yildagi “Bokschilar qo‘zg‘oloni” bilan yakunlangan mustamlakachilik, Xitoy iqtisodiyoti, ichki siyosati va diniy hayotiga aralashuviga javobidir. Andre G‘arbning ideallashtirilgan qiyofasi sifatida va Madam Vu – Sharqning, ular ikkala sivilizatsiyaning eng yaxshi xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan. Bir-birini tushunish, uyg‘un muloqot o‘rnatish, umumiy til topish istagi - Perl Bak buni Sharq va G‘arb o‘rtasidagi “begona” va “o‘ziniki” o‘zaro munosabatlarning ideal modeli deb biladi,

Endryu va Andrening obrazlarini ko‘rib chiqib, Perl Bakning boshqa “Xitoy” romanlarida “biz va boshqalar” o‘rtasida ko‘plab to‘qnashuv holatlari mavjudligini ta’kidlash kerak. Xitoy va Amerika o‘rtasidagi uchrashuvning syujet motivlari ko‘pincha takrorlanadi, ular Bak ishining turli bosqichlarida Xitoy belgilarining kichik xorijiy belgilar bilan uchrashuvlari orqali bir-birini aks ettiradi.

O‘z matnlarida Bak kamdan-kam hollarda Amerikaning aynan milliy xarakterini ifodalaydigan belgilariga to‘xtalib, xurofotlarga asoslangan atributiv tashqi belgilar yordamida xarakterlarni tavsiflaydi.

Ijtimoiy-tarixiy va avtobiografik kontekst tufayli ko‘plab kichik xorijiy personajlar missionerlar bo‘lib, ularning prototipi yozuvchining otasi edi. Missioner qahramonlarning keng portret xususiyatlarining yo‘qligiga qaramay,

Bak bir nechta barqaror epitetlar va taqqoslashlar orqali xitoyliklar uchun “O‘zga”ning stereotipik ko‘rinishiga mos keladigan badiiy tasvirning muhim tomonlarini qisqa va ifodali tasvirleydi: “Blue eyes deep-set under bushy red eyebrows”, “pitted white skin”, “high nose broken”, “formidable face”, “huge hairy hands”, “strong hairy neck” (“The Living Reed: A Novel of Korea”, 1963); “very tall and lean as a tree that had been blown by bitter winds”. “eyes as blue as ice”, “hairy face”, “great nose projecting beyond his cheeks like a prow beyond the sides of a ship” (“The Good Earth”); «a fearsome thing to look at”, “twice as tall as men are”, “wool of a red color on his head”, “red and woolly beard”, “eyes as blue as ice”, “nose like the prow of a ship” (“The Young Revolutionist”, 1932). Ushbu epitet va taqqoslashlarda nafaqat Absalom Seydenstrikerning tashqi ko‘rinish xususiyatlari, balki Yevropa qiyofasining odatiy stereotipini ifodalovchi tashqi ko‘rinish tafsilotlari ham tan olingan – “qizil sochli shayton” (kángínín) - tipik xitoylik ko‘rinishining butunlay qarama-qarshisidir.

Imagologiya nuqtai nazaridan, Bak kontekstida tabiatan stereotipik bo‘lgan xorijiy belgilar amerikaliklarning meta-tasvirlarini ifodalaydi, ular Amerika millatining boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishi haqidagi g‘oyalarini ifodalaydi. Chet el qahramonlari yordamida Perl Bak Amerika va Xitoy madaniyatiga ham “ichkaridan”, ham “tashqaridan” qarashga harakat qiladi. Madaniyatlararo o‘zaro ta’sir vaziyatlari epizodlarida “biz” va “ular” o‘rtasida dialog yaratish orqali Bak Xitoy va G‘arb o‘rtasidagi milliy va madaniy farqlarni qayta baholashga va xalqlar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etishga hissa qo‘shadi.

2.2. Ernest Heminguey ijodida Sharq tasviriga o‘ziga xos munosabat.

Ernest Heminguey ijodida Xitoy mavzui aloxida o‘rin tutdi. Bu uning publicistikasi bilan bog‘liq¹. “Yozuvchining Xitoyda bo‘ganligi, shuningdek, uning bu mavzuda yaratgan maqola va reportajlari juda ham kam o‘rganilgan”², - deb yozadi taniqli amerikashunos B.A.Gilenson. Ushbu safar tafsilotlari rus

¹ Carlos Baker. Ernest Hemingway. A life story. -N.Y.,1969; Meyers J. Hemingway. A biography. -N.Y.,1985.

² Gilenson B.A. Хемингуэй в Китае//проблемы Дальнего Востока, 1988,№5, 116 bet.

tanqidchiligida biroz o`rganilgan bo`lsa-da, uning publitistikasi tarjima va tahlil qilinmagan.

Yozuvchi publisistikasining dolzarb mavzularidan biri – insoniyatga tahlika solayotgan eng katta xavf urushga qarshi norozilik mavzui. E.Heminguey qayta qayta Birinchi jahor urushi mavzuiga murojaat etar ekan, u, bu urushni “tarixda juda katta, shavqatsiz va maqsadsiz qirg`in”¹ deb baholaydi.

Hemingueyning insoniyat taqdiri uchun qayg`urishi, yozuvchining o`z vijdoni oldidagi masuliyati uning asarlarida aks etdi. Yozuvchining publitistikasi, masalan Xitoy mavzusi ham o`z vaqtida dolzarb bo`lgan muammoga bag`ishlangan edi.

Yozuvchi 1941 yilning fevral-iyun oylarida Xitoy-Yapon jang maydonlarida bo`lgan.

Yozuvchining tarjimai holidagi bu safar haqida qisman ma`lumot berilganligini B.Gribanov ta`kidlagan. Uning “Post Meredian”ga yuborilgan maqolalari quruq, ularda hech qanday shaxsiy taassurotlar yo`q², - degan fikrga qo`shilish mumkinmas.

1941 yil Heminguey Xitoyga tashrif buyurganda axvol juda keskin edi. Yaponiya to`rt yil mobaynida Xitoyga bostirib kirib, uning sharqdagi ko`plab turar joylarini bosib olgan edi.

Ernest Heminguey Xitoyga yo`l olar ekan, “Qo`ng`iroq kimni yo`qlab bong uradi” (“For Whom the Bell Toll Tolls”, 1940) asari ustidagi mehnatdan so`ng biror joyda dam olish niyatida edi. Ammo ashraq mavzui yozuvchida juda katta qiziaish uyg`otgan edi. Shu sababdan bu safarga katta qiziqish bilan tayyorgarlik ko`rdi. Bu borada u Sharq mavzuida ijod qilgan yozuvchilarning asarlari, maqolalari, ocherklari va boshqa ushbu mamlakatga tegishli barcha materiallarni sinchiklab o`rgandi. Natijada, Andre Malroning “Insonning tiriklik

¹ Baker.C. Ernest Hemingway. A life story. – N.Y.,1969,p. 479.

² Gribanov B.T. Xeminguey.-M., 1971,344-bet

shartlari”¹ (1933) romani eng sevimli kitoblaridan bo`lib qoldi. Ushbu kitobda 1927 yildagi Shanxay qo`zg`oloni haqida hikoya qilinadi.

Safarga yo`l olar ekan, yozuvchi kundalik siyosiy xabarlarini yorituvchi va sharxlovchi Nyu-York “Post Meridian” (“P.M.”) gazetasi bilan shartnoma tuzadi. Bosh muharrir Ralf Ingersol yozuvchini faqat jurnalistlik mahorati emas, balki harbiy masalalarda mutaxassisligi uchun ham qadrlar edi. Bosh muharrir yozuvchining oldiga kitobxonlarni qiziqtiradigan muammoli mavzularni qo`yadi. Xitoyda fuqarolar urushi xavfi bormi? Sobiq ittifoq- Yaponiya sulhining natijalari qanday bo`ladi? Bo`layatgan urush Amerikaning Sharqdagi savdo va siyosiy manfaatlariga qanday ta`sir etmoqda? E.Heminguey shu kabi savollarga javob izlashi zarur edi.

E. Hemingueyning safari 1941 yilning fevralidan iyuniga qadar davom etdi. O`z yurtiga qaytgandan keyin 1941 yil 9-18 iyun oralig`ida “Post Meridian”da qator asarlari, Ralf Ingersolga bergan intervyusi, yetti ocherk va sakkiz maqolasini bosmadan chiqardi. Gazetada Hemingueyning quyidagi maqolalari nashr etildi: “Yaponiya bilan urush muqarrar ekanligini aniqlash uchun Uzoq Sharqqa safari haqida hikoyasi” (9-iyun); “Rus-yapon sulhi. Bu sulh ruslarning Xitoyga yordamini to`xtatishga majbur etmaganligini aytadi” (11-iyun); “Gollandiya Vest-Indiya hududidagi kauchuk zaxiralari. Ernest Heminguey bu hududdagi kauchuk plantatsiyalarini Yaponiya talon-taroj qilishiga yo`l qo`yolmaymiz, deydi ” (11-iyun); “Aqshning Xitoyga yordami” (15-iyun); “Yaponlarning Xitoydagi ahvoli” (16-iyun); “Xitoy aviatsiyaga muhtoj” (17-iyun); “Xitoyliklar aerodrom qurishmoqda” (18-iyun). Bu asarlar keyinchalik bir to`plamga kiritilgan, biz monografiyada undan ayrim ma`lumotlar keltiramiz².

E. Heminguey va M.Gellhornlarning sayohati juda mashaqqatli bo`ldi. M.Gellhorn iste`dodli Amerika yozuvchisi va jurnalisti bo`lib, urush yillarida

¹ Malro Andre, fransuz yozuvchisi, sna`atshunos, siyosiy arbob. “G`olib” (1928), “Qirollik shoxona yo`l” (1930) kabi sharq mamlakatlari yangi inqilobiy ko`tarilishiga bag`ishkangan asarlar muallifi.

² Ernest Hemingway. By line selected articles and dispatches of four decades. – L.,1950

E.Heminguey bilan birgalikda publitistikaning maqola, ocherk janrlarida ijod etgan. Bu yozuvchi haqida II bobda batafsil to`xtalib o`tamiz.

E. Heminguey va M.Gellhorn Nayman (7-harbiy zona) shaxriga, keyin Shayguanga kelishdi. Bu davrga qadar amerikaliklar taniqli yozuvchilardan Agnes Smedli va edgar Snou harbiy bo`linmalar egallagan yerlarda bo`lishgandi. Endilikda amerikalik muxbirlar Heminguey va Gelhorn muntazam qo`shinlar orasida turib, vaziyatni tasvirlar edi.

Chunsinda yozuvchi asosiy e`tiborni siyosiy vaziyatga qaratdi. Yozuvchining yuborgan xabarida mamlakatda oziq ovqat masalasi qoniqarli holatda deb baho bergan.

Heminguey generalissimus Chan Kayshi bilan uchrashgan, uning xotini Sun Meylin ularga tarjimonlik qilgan edi. Suhbat mavzui harbiy, siyosiy va iqtisodiy masalalar haqida bo`lgan. Yozuvchi u inson bilan uchrashuvlarini shunday izohlaydi: “Generalissimus – harbiy yo`lboshchi bo`lib, u asta –sekin bosqichma-bosqich davlat arbobiga aylandi. Chan Kayshining maqsadlari har doim harbiy sohaga qaratilgan. O`n yil davomida kommunistlarni yo`q qilishga intilib, ularning ta`siri natijasida qarshi kurashni to`xtatdi va yaponlar bilan urushni davom ettirdi. Shu daqiqadan boshlab, uning maqsadi yaponlarni yengish bo`lib qoldi... ”¹.

Xitoy ichkarisiga safarning jurnalistlar uchun kattta ahamiyati shu bo`ldiki, yashirin holda va har doim xavf ostida yurgan Chjou En-Lay gollandiyalik taraqqiyparvar kinorejissor Yors Ivens bilan do`stlashgan bo`lib, Ernest Heminguey Ispaniyada u bilan “Ispaniya yeri” degan hujjatli filmni birga yaratgandi.

Yozuvchi Chunsinda sakkiz kun bo`ldi. Bu safar taassurotlari natijasida “Amerikaning Xitoyga yordami”, “Yaponlarning Xitoydagi axvoli”, va “Xitoy aviatsaga muhtoj” maqolalari yozildi. E. Heminguey maqolalari juda katta ahamiyatga ega edi, chunki Xitoydan turli qarama-qarshi harbiy ma`lumotlar

¹ Baker. C. Ernest Hemingway. A life story. _ N.Y., 1969,pp.550-553.

kelar, Amerika jamoatchiligi esa ishonchli ma'lumotga ega bo'lishni istar edi. Yozuvchining maqolalari esa ana shu talablarga javob berar edi.

Yozuvchining fikricha, Xitoy katta aholi resurslariga ega bo'lib, armiyasi o'zida ishlab chiqarilgan o'qotar qurollari bilan yetarlicha ta'minlangan edi. Yozuvchi yaponlar egallab turgan joylardan ko'pgina ma'lumotlar olib keladigan partizanlar bilan uchrashar edi. U partizan va armiyani hurmat qilardi. Amerikalik jurnalistlar Xitoyda nafaqat generalissimus diktaturasining shavqatsizligi, nopokligi, hatto, qashshoqligini ham ko'rdilar. E. Heminguey, odatdagidek, safar chog'ida o'zga xalqni, o'ziga xos milliy jihatlarini o'rganib borishga harakat qildi. Uni xitoyliklarni mexnatsevarligi, o'zlarini ayamadan qattiq intizom bilan ishlashlari hayron qoldirdi. Bu haqda u safar chog'ida yozgan "Xitoyliklar aerodrom qurmoqda" deb nomlangan ajoyib asarida ma'lumot berib o'tgan.

E. Heminguey ocherklaridan birida Xitoyda ko'p vaqtdan buyon yashayotgan va xitoyliklarning urf-odatlarini va yashash sharoitlarini yaxshi biladigan Amerikaning Chunsindagi elchisi Nelson Jonson bilan uchrashuvini tasvirlashdan boshlaydi. Elchixonaga peshayvoniga chiqqanda, elchining pastga mangu oqayotgan Yantzi suvlariga qarab: "Xitoy, xoxlasa, har bir ishni, albatta, bajara oladi"¹, - degan so'zlari yozuvchi xotirasidan chuqur o'rin olgan edi. Bu so'zlar avvaliga yozuvchini ajablantirdi. U "Buyuk Xitoy devori"ni ko'rmagan, ammo Xitoyning ko'pgina muhim muammolari, uning kelajagi haqida ko'p o'ylagan edi. U ikki kundan keyin Chenduga ko'chib ketadi. U shahardan shimolroqda janob Jonson aytgan narsani guvohi bo'ladi. Yozuvchi juda ko'plab odamlar ishlayotgan qurilishni ko'radi, u qadimda fir'avnlardan tomonidan sahroda piramidalar bunyod etilishini eslatardi. Bu aerodrom qurilishi edi.

Buni ko'rgan yozuvchi o'z ocherkini uning publisistikasida eng noyob bo'lgan tasvirlar bilan yakunlaydi. U mehnatni sharaflaydi. Ocherkni bu qismida E. Hemingway qiyin sharoitlarda qo'shiq aytib aerodrom qurayotgan ishchilar haqida muxandis bilan qilgan suxbatini shunday tasvirlaydi: "Parchalanayotgan

¹ Hemingway E. By line selected articles and dispatches of four decades. – L., 1950, p.293

toshlar tovushi, cho`kichlar zarbi, chang orasida, qoyalarga urilib parchalanayotgan to`lqin shovqinini eslatuvchi bir maromda, pastgina tovushdagi qo`shiq eshilar edi.”

E.Heminguey Xitoyda bo`lgan vaqtida hech kimga xat yozmadi. Yagona bir xatni u 1941 yil 29-aprelida do`sti va gazeta muxarriri Maksuell Parkinsga jo`natadi: “May oyining oxirida qaytaman. Vaqtni frontda xitoylik askarlar bilan birga foydali o`tkazdim. Safar og`ir va qiziqarli bo`ldi. Yurtga qaytayorganimdan xursandman. Bir necha hikoya yozmoqchiman”¹. Yozuvchining maqolalaridagi sezgirligi shuni ko`rsatar ediki, bu mintaqada yaqin orada yangi daxshatli voqealar ro`y berishi mumkin va unga tayyor turish kerak edi.

1941-yil 18 iyunda yozuvchining Xitoy mavzusidagi so`nggi maqolasi “Post Meridian” da e`lon qilindi. Ispaniyada bo`ganidek , Xitoyda ham E. Heminguey o`zining antifashist, ajoyib publitist ekanligini ko`rsatdi. 1945 yil sentyabrda yozuvchi “Ozod dunyo xazinasini” antalogiyasini yakunladi. Uni quyidagi so`zlar bilan tugatdi: “Bosqinchilik urushi – bu Yer yuzidagi har bir inson uchun qilingan jinoyatdir...Kelinglar, biz dushmanlarimizni hech qachon urush boshlay olmaydigan qilib qo`yaylik; kelinglar, o`zimiz hamma xalqlar va davlatlar bilan tinch-totuv va inoq yashashni o`rganaylik. Buning uchun biz barchani tarbiyalashimiz kerak bo`ladi. Lekin buning uchun avvalambor, ozimizni tarbiyalashimiz kerak”². E. Heminguey ijodini o`rganuvchilar tomonidan olib borilgan ishlar uning Xitoy mavzuidagi reportajlariga yetarli e`tibor bermaganliklarini ko`rsatadi.

Xitoy haqidagi ocherk, reportaj va tasvirlarida E.Heminguey bo`layotgan voqealarga baho berishda o`zining yuksak bilimdon, kata aql sohibi ekanligini ko`rsatibgina qolmay, bu ishni o`ziga xos tasviriylik hamda badiiy go`zallik bilan bajardi. Yozuvchining tasvirlari, ta`riflari, dialog, portretlari uning ajoyib san`atkor, buyuk ijodkor ekanini namoyish etadi. Biz uchun ahamiyatli tomoni

¹ Heminway E. Selected letters, 1917-1961. – N.Y., 1981, pp. 522-523

² Hemingway E. Introduction. – Treasury for the free World. – N.Y.,1946, p.15

shundaki, har qanday yozuvchi hamisha E.Heminguey kabi hayotga real va asosli nuqtai nazar bilan munosabatda bo`lishi kerak.

Xeminguey asarlarida dastlabki jurnalistik kuzatuv o`rnini tahliliy, qiyosiy mulohaza va mushohadalar egallaydi. U har qanday urushni qoralaydi, shu tufayli insoniyat aziyat chekayotganiga e`tibor qaratadi. Inson huquqlari yo`lida, ozodlik kurashida yolg`iz maydonga tushishning halokatli oqibatlarga olib kelishini oddiy kishilar obrazi orqali ifodalaydi. Asarlari orasida “Chol va dengiz” qissasi Xemingueyga katta shuhrat keltirdi. Yozuvchi asos solgan XX asrning o`ziga xos bo`lgan qat`iy xolislikka asoslangan uslubi keyinchalik Amerika yozuvchilari tomonidan yangi yo`nalish sifatida qaraldi va qo`llanildi.

“Chol va dengiz” asari haqida

Ernest Heminguey mashhur “Chol va dengiz” asarini 1952-yilda Bagama orollarida 51 yoshida yozgan edi. Kasallik yozuvchi hayotiga xavf solib turganda ham ushbu asari orqali betakror obrazlarni yaratdi. Asar ikki oy ichida davomida tugallangan edi. Qahramonlar oddiy obrazlar orqali tasvirlangan bo`lsa ham, zamirida hayot haqiqatining chizgilar bor.

Demak, asar Xemingueyning umri oxirda yozilgan mashhur asari. Unda kubalik baliqchi, keksa Santyagoning hayoti haqida hikoya qilinadi. Shuni aytish kerakki, “Chol va dengiz” asarida, avvalo, inson hamisha suyanadigan ishonch tuyg`usi va albatta, umid haqida so`z boradi. Asar bosh qahramonida ham tajribasiga suyanib yashayotgan, ishonchini yo`qotib qo`ymaslikka harakat qilayotgan obrazni ko`rishimiz mumkin.

Asar kitob ko`rinishida 1952-yil sentabrda 50 ming nusxada nashrdan chiqdi. 1953-yil may oyida Xeminguey Pulitser mukofotiga, 1954-yilda esa adabiyot bo`yicha Nobel mukofotiga sazovor bo`ldi. Shunday qilib roman yozuvchini dunyoga tanitdi.

Asarning syujetiga biroz to`xtalsak. Santyago ismli chol Kubadagi kichik baliqchi qishlog`ida yashaydi. Va baliqchilik bilan shug`ullanardi. U 84 kundan buyon dengizda qolib ketgan, ammo biror o`ljaga ega bo`lmagandi. Manolin – chol bilan birga baliq ovlagan bola. Ota-onasi cholni omadsiz sanagani uchun

unga boshqa qayiqqa chiqishni buyurgan edi. Ammo bola Santyagoni juda yaxshi ko‘rardi.

Xullas, bu gal chol omadiga ishonib dengizga yo‘l oladi. Dastlab, qahramonimiz kichkina tunets balig‘ini ushlaydi. So‘ng esa juda katta baliq qarmoqqa ilinadi. Ulkan baliq qayiqni uzoqqa tortib keta boshlaydi. Chol uning yonida Manolin yo‘qligidan xafa bo‘ladi, bunday paytlarda bolaning yordami juda asqotardi. Shunday qilib, chol baliq bilan uzoq “jang” qiladi. Umid va ishonch uni bir zumga bo‘lsa-da tark etmaydi. Santyagoga tashqi muvaffaqiyat yetishmasa ham, uning ishonch va umidi uni oldinga boshlayveradi.

Asarda adib inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni, insoniyatning hamisha kurashuvchanligini ham tasvirlaydi. Qissa uning ana shu jihatlari yorqin ko‘zga tashlanadigan asarlaridan. Shunday kurash oldida borayotgan o‘quvchi beixtiyor asardagi muvaffaqiyatsizlikdan og‘rinmaydi, balki insonning oldinga bo‘lgan ishonchi uni ruhlantirib boraveradi.

Roman 1952-yil 1-sentabrda Life jurnalida nashr etilgan edi. Ikki kun ichida jurnal besh million nusxada sotilishga muvaffaq bo‘lgan. Qissa atoqli olim va tarjimon Ibrohim G‘afurov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Quyida esa asardan keltirilgan iqtiboslar bilan tanishamiz.

- Itoatkorlik ruhi qachondan boshlab o‘z qalbida qo‘nim topgani ustida bosh qotirib o‘tirmoqlik uchun chol benihoya soddadil edi. Ammo u o‘zining itoatgo‘y bo‘lib qolganini va bu itoatdan u o‘z nomusi, insonlik qadr-qimmatini yo‘qotmaganligini bilar edi...
- Bir narsa ikki marta hech qachon qaytarilmaydi...
- — Men uchun qarilikning o‘zi qo‘ng‘iroq soat. Chollar nega juda barvaqt turisharkan-a? Nahotki, buni qolgan umrlaridan bir kunini bo‘lsa ham cho‘zish niyatida qilishsa?— Bilmadim. Faqat shuni bilamanki, yoshlar qattiq va ko‘p uxlashadi...
- Endi faqat bir narsa ustida bosh qotirish kerak. Gap mening nima uchun tug‘ilganim ustida boradi...

- Garchi adolatdan bo'lmasa-da, — fikran davom etdi u, — men odam bolasining nimalarga qodir ekanligi va nimalarga dosh berib, chidashi mumkinligini ko'rsatib qo'yaman...
- Ammo inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun yaratilmagan, — dedi u. — Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi...
- Umidsizlik — halokat, — deb o'ylardi u. — Buning ustiga, fahmimcha, umidsizlik hatto — gunoh. Nima gunoh-u, nima gunoh emas, deb bosh qotirib o'tirishning hojati yo'q. Busiz ham dunyoda boshni qotiradigan narsalar to'lib-toshib yotibdi. To'g'risini aytganda, men gunoh bo'lgan narsalarni yaxshi tushunmayman...

Xemingueyning asarlari sevgi, urush, sayohat, cho'l va yo'qotish mavzularini o'z ichiga oladi. Birinchi jahon urushida ishtirok etishi keyincha uning haqiqiy urush voqealari jonli ravishda tasvirlangan o'lmas asarlari yaratilishiga sabab bo'lgan. (1914- 18). Xeminguey 1928- yilgacha Parijda, 1939 -60 yillarda Kubada yashadi. Dastlabki hikoyalar kitobi — «Bizning zamonda» (1924). «Quyosh chiqadi» , «Alvido, qurol!» (1929) romanlarida urushning bemisl mantiqsizliklari, inson haq-huquqlari, erkiga tajovuz, ayni paytda, insoniy mardlik, qadr-qimmat va muhabbatning har qanday yovuz kuchlardan ustunligi yorqin ifodalangan. 1930- yillarning birinchi yarmida Heminguey ijodida tushkunlikni kuzatish mumkin. Shu davrda yozuvchi hayot yo'lini qayta mulohaza qilib ko'rishga, o'z ijodining muayyan yo'nalishlarini aniqlashga intiladi. Natijada «Peshindan keyingi o'lim» (1932), «Afrikaning yashil tepaliklari» (1935), «G'olibga bayroq berilmaydi» (1933) hikoyalar to'plami dunyo yuzini ko'radi. «Ho'kizning shoxi», «Frensis Makomberning baxti», «Kilimanjaro qorlari» (1936) hikoyalari, «To'qchilik va yo'qchilik» (1937) romanida Heminguey ijodiy yuksalishi ko'zga tashlanadi. Xeminguey asarlarida dastlabki jurnalistik kuzatuv o'rnini tahliliy, qiyosiy mulohaza va mushohadalar egallaydi. U har qanday urushni qoralaydi, shu tufayli insoniyat aziyat chekayotganiga e'tibor qaratadi. Inson huquqlari yo'lida, ozodlik kurashida

yolg'iz maydonga tushishning halokatli oqibatlariga olib kelishini oddiy kishilar obrazi orqali ifodalaydi. Alvido, qurol! (inglizcha: A Farewell to Arms) - Ernest Hemingueyning 1929-yilda nashr etilgan romani. Kitob Birinchi jahon urushi davridagi sevgi haqida hikoya qiladi. Roman asosan avtobiografikdir - Xeminguey Italiya frontida xizmat qilgan, jangda yaralangan va Milan kasalxonasida yotgan, u yerda hamshiraga ko'ngil qo'ygan. Asar voqealari ham shu hodisalarni o'z ichiga oladi. Amerikalik arxitektor Frederik Genri Italiyada Birinchi jahon urushida ko'ngilli sifatida qatnashadi. U leytenant unvoni bilan sanitariya bo'limining transport bo'limi komandiri bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda Frederik kasalxona hamshirasi ingliz Ketrin Barkli bilan uchrashadi va ular bir-biriga ko'ngil qo'yishadi. Ittifoqchi qo'shinlarning bir qator mag'lubiyatlari va chekinishidan ko'p o'tmay, Frederik o'zining amerikacha lahchasi tufayli Italiya dala jandarmeriyasi tomonidan josuslikda ayblovlar qurboni bo'lmaslik uchun qochib ketishga majbur bo'ladi. Ketrin bilan birgalikda u urushga neytral Shveysariyaga qochib ketadi, bu yerda ular dunyoning shafqatsizligidan va bema'ni qotilliklardan najot topganga o'xshaydi. Ammo ko'rinib turgan baxt qisqa muddatli bo'lib chiqdi - Italiyada homilador bo'lgan Ketrin Shveysariya kasalxonasida tug'riq paytida vafot etadi. Heminguey 1931—39 -yillari ispan xalqining milliy ozodlik kurashida harbiy muxbir sifatida qatnashadi. Shu yillarda uning bir necha ocherk va reportajlari, “Motam qo'ng'irog'I” (1940) romani chop etiladi. Bu asarlardagi qahramonlar xalq ozodligi yo'lida fashizmga qarshi kurashadilar, insoniyat taqdiri uchun o'zlarining mas'ul ekanliklarini qalban his etadilar, kishilar bilan birga iztirobga tushadilar, xavf-xatardan qutulish choralarini izlaydilar. Ikkinchi jahon urushidan keyin Heminguey ijodida yangi davr boshlangan. Biroq bu davrda yuzaga kelgan “Xavfli yoz” va “Okeandagi orollar” romanlari avvalgilariga qaraganda badiiy jihatdan ancha bo'sh asarlar sanaladi. Lekin ma'lum muddat o'tib, Heminguey insonning ruhiy holatini tadqiq etish bilan jamiyatdagi mavjud vaziyatni ochib berishga qodir asarlarni yaratdi. Badiiy jihatdan ancha yuksak bo'lgan “Daryoning naryog'ida, daraxtlar soyasida” (1950) romani, “Chol va dengiz” (1952) qissasi

Xemingueyga katta shuhrat keltirdi. Heminguey 20 asrda o‘zigagina xos bo‘lgan qat’iy xolislikka asoslangan xarakterli uslubni yaratdiki, keyinchalik Amerika qit’asidan yetishib chiqqan yozuvchilar bu uslubga teztez murojaat qiladigan bo‘lishdi. “Chol va dengiz”, “Alvido, qurol!” va boshqa asarlari o‘zbek tiliga Ibrohim G‘afurov tomonidan tarjima qilingan.

1932-yilda Ernest Xeminguey tomonidan yozilgan “Alvido, qurol” asari zo‘ravonlik va og‘ir voqelikni ta’sirchan tasvirlashdagi o‘ziga xos qobiliyatini namoyon etgan eng muhim asarlaridan biridir. Bu hikoyada Xeminguey mashhur boksning o‘ldirilishiga sabab bo‘lgan voqealar va bu uning hayoti va zo‘ravonlikka munosabati qanday ta’sir qilgani haqida hikoya qiladi.

Hikoya matnda tasvirlanadigan shafqatsizlik haqida ogohlantirish bilan boshlanadi. Ushbu murojaat o‘quvchini avtomobil kuzovlari do‘konida sodir bo‘lgan mashhur boksning o‘ldirilishi tasviridan hayrat va tuyg‘ularni boshdan kechirishiga to‘sqinlik qilmaydi.

Hikoyaning bosh qahramoni Jon Braun, sobiq boks chempioni, tikuvchi bo‘lib ishlaydi. U o‘tmishini eslatuvchi o‘lim soyasida yashaydi va bu fojining oqibatlarini yengishga harakat qiladi. Xeminguey Jonning his-tuyg‘ulari va fikrlarini yetkazish uchun kuchli va ifodali tildan foydalanadi, shuningdek, u sevgi va ishonch qobiliyatini asta-sekin yo‘qotayotganini ko‘rsatadi.

Qurol bilan xayrlashish - bu zo‘ravonlik va shubhalarga to‘la hikoya. Biroq, asarning asosiy mavzusi - fojia odamlarga qanday ta’sir qilishi va bu ularning hayoti va zo‘ravonlikka bo‘lgan munosabatiga qanday ta’sir qilishidir. Xeminguey zo‘ravonlik dahshat va yo‘qotish traektoriyasini qoldiradi, uni shunchaki qurolni almashtirish bilan davolash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Inson o‘z taqdiri va o‘tmishidan yashira olmasligi, zo‘ravonlik uning hayotining ajralmas qismiga aylanishi mumkinligini aytadi.

“Alvido Qurol” Ernest Xemingueyning adabiy merosidagi muhim asar bo‘lib, u zo‘ravonlik va og‘ir voqelikni ta’sirchan tasvirlash qobiliyatini namoyish etadi. Hikoya uning og‘ir sinovlarga duchor bo‘lgan va jinlari bilan doimiy kurashda bo‘lgan qahramonlarni yaratish qobiliyatini namoyish etdi.

Novateurpublication.org

Ernest Xemingueyning “Alvido Qurol” asari bizni zo‘ravonlik va uning murakkab oqibatlari haqida o‘ylashga majbur qiladigan ta’sirli hikoyadir. Xeminguey og‘ir voqelik va zo‘ravonlikni tasvirlashda o‘zining noyob qobiliyatini namoyon etib, uning ishini esda qolarli va ta’sirchan qiladi.

II BOB

AQSH ADABIYOTIDA SHARQ MAVZUSIGA YONDASHUV

2.1. Marta Gellhorn Sharq hayoti tadqiqotchisi sifatida

Hayotda biror buyuk zot boshqa shunday iste'dodli shaxs bilan yonmayon hayot kechirsa, ulardan biri biroz e'tibordan chetda qolgandek, go'yo bir shaxs ikkinchi buyuk shaxs soyasida qolib ketgandek tuyuladi. O'zbek adabiyotida ham Said Ahmad va Saida Zunnunova, Hamid Olimjon va Zulfiya kabi ijodkorlar bunga misol bo'la oladi.

Marta Gellhorn nomini eshitishimiz bilanoq birinchi navbatda E. Hemingueyning uchinchi rafiqasi bo'lganligi xayolga keladi. Lekin shuni aytish mumkinki, uning ijodi o'zbek kitobxonlari uchun va sobiq ittifoq o'quvchilariga ham deyarli ma'lum emas edi. U yaratgan roman va ocherklar Yer yuzining turli suronli nuqtalaridan olib brogan reportajlari o'z davrida juda mashhur bo'lgan. Tadqiqotchi Jaklin Orsak adiba hayotiga bag'ishlangan dissertatsiyasini 1978 yili yozdi.

Marta Gellhorn hayoti va ijodi o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilmagan va keng kitobxonlar ommasiga deyarli ma'lum emas. Shu sababli va uning yozuvchilik mahorati e'tiborga sazovorligi uchun u haqda to'laroq ma'lumot berishni lozim deb hisobladik. Chunki, yozuvchining Sharq mavzuidagi asarlari XX asr umumiy adabiy jarayonining bir qismi bo'lib, Garbning Sharqni to'g'ri anglab yetishiga o'z jo'shqin ijodi bilan qo'shgan katta hissasiga, qadr-qimmatiga haqqoniy baho berishimiz zarur.

Marta Gellhorn 1908 yili Sent-Luis shahrida e'tiborli oilada dunyoga keldi. Uning ota-onasi Dzhordzh Gellhorn (shifokor) va Edna Fishell ayollar huquqlarini himoya qiladigan etakchi edi. Yozuvchi iste'dodli va irodali qiz bo'lib voyaga yetdi. U 4 yoshidan she'rlar yoza boshladi va ularni mashhur Karl Sendbergga yubordi. Marta Sent-Luisdagi e'tiborli maktabni tugatib, onasi yo'lidan bordi. U Brin-Mor ayollar obro'li kollejiga o'qishga kirdi. Ammo o'zining mustqil qiz ekanligini ko'rsatib, ilk o'qish yilidayoq kollejni tashlab ketdi. Shundan keyin u o'ziga qoida qilib olgan tamoyil bo'yicha ish tutdi, ya'ni

agar o`zing xoxlagan cha yashashni istasang, buning uchun ba`zi bir narsalardan voz kechish kerak bo`ladi. Axir, hayotni iqtisodiy taminlash ham kerakku.

M.Gellhorn haqida Jaklin Orsak shunday yozadi: “Ko`pchilik bolalar hamma narsaga qodirman, meni hech narsa to`xtata olmaydi, istagan narsamni qila olaman, bu men uchun hech narsa emas, deb ishonadilar. M.Gellhorn ana shu e`tiqoddan hech ham chetga chiqmadi. U yozishga harakat qilar, dunyoni ko`rishga, amglashga intilar edi”. Izzat-nafs tushunchasi unga singib ketgan edi. Ammo bu uning uchun salbiy emas, balki, aksincha, ijobiy xususiyat edi. Uning tuganmas kuch-quvati, bilimga qiziqishi, yorqin iste`dodi ham shunday deyishga asos beradi. Undagi shaxsiy xususiyatlarning e`tiborli tomonlari insonparvarlik, ijtimoiy qiziqishlarining kengligida ko`rinadi.

“Men doim xizmat qilaman”, - der edi Marta. U jamiyatda yuksak maqsadlar uchun xizmat qilishini nazarda tutar edi. Bu, aslida, Gellhornlar oilasining shiori edi. Aqsh gazeta va jurnallarida ishlayatganida u o`ziga e`tibor bera boshladi. Yozuvchi Fransiyaga jo`nab ketdi, u yerda Parijda Amerika nashrlarida muxbirlik qildi va u yerdan maqolalar yuborib turdi. Yozuvchi Parijda uch yil bo`ldi.

M.Gellhorn uzoq va sermahsul hayot kechirib, XX asrning o`ziga xos solnomachisi bo`lib qoldi. Uning do`stlari juda ko`p bo`lgan, ular orasida Gerbert Uells, Jon Dos Passos, Irvin Shou, Archibald Maklish, mashhur bastakor va musiqachi Leonard Bernshteynlar bor edi.

M.Gellhorn dunyoning deyarli yarmini kezib chiqdi. G`am-tashvish va baxtsizlik holatlarini guvohi bo`ldi. U doim ko`rganlarini ifoda etishni odat qildi.

Dissertatsiya mavzusi taqozosi bilan M.Gellhorn ijodidagi Xitoy bilan bog`liq reportajlar, Xitoy tarixidagi og`ir davr va albatta E.Heminguey bilan birga Xitoyda bo`lgan safari, mavzuimizga oid ikki xil fikrni ko`ramiz.

Yozuvchi o`zining ilk qadamlaridayoq mustaqil qarashlari bilan ajralib turdi. Iqtisodiy yetishmovchiligiga qaramay, u ko`proq sayohat qilish va kuzatishga harakat qildi. Italiya, Ispaniya va Angliyada bo`ldi.

“Post dispatch” gazetasida muxbir lavozimida faoliyat yuritib, Vashingtonda boʻlganida yaxshi tavsiyanomaga ega boʻldi. Prezident Ruzveltning yaqin safdoshi Garri Gopkinsga oʻz xizmatlarini taklif etdi. U ishsizlar va muhtojlarga yordam berishga oid davlat dasturini amalda qanday bajarilayotganini bilishni istar edi. M. Gellhornni favqulotda yordam boʻyicha boshqarma tarkibiga kiritdi. Uni Angliya va Janubda azoblanayotgan toʻqimachilar shaharlaridagi axvolni oʻrganishga joʻnatdi. Oddiy xalqning ayanchli axvolini koʻrsatuvchi reportajlarini Gopkinsga yetkazdi, u esa Eleanora Ruzvetga berdi. Eleanora Ruzvelt xonim M.Gellhorn bilan tanishib, uni president bilan ham tanishtiradi. Eleanora Ruzvelt xonim bilan M.Gellhorn uzoq vaqtlargacha doʻstlashib qoldi.

Natijada jurnalistning “Oʻz koʻzim bilan koʻrgan musibatlar” (“The Trouble I have seen”, 1935) degan asari yaratildi. Kitobda aholi orasidagi ishsizlik qurbonlari, yoshlar, bolalar hayot darajasini koʻrsatib berdi.

M.Gellhorn oʻz qahramonlari bilan munosabatda boʻlar ekan, shunchaki beparvo muxbir, maʼlumot oluvchi emas, oʻz suxbatdoshini chin qalbdan tushunishni istovchi yozuvchi sifatida namoyon boʻladi. Shuning uchun ham odamlar unga ishongan holda qalblarini ochib berar, shundan uning sarlari samimiy ruxda chiqar edi.

Oq uyda kutilmaganda tanishib qolgan Gerbert Uells ushbu kitobga soʻzboshi yozib bergan edi. Ilk taqrizchisi esa Grem Grin boʻlib uni shunday taʼriflaydi: “Uning qissalari ayo kishiga xos emas. U ayollarga xos boʻlgan oʻta rahmdillik yoki oʻta shavqatsizlik kabi kamchiliklardan xoli edi; uning asarlarida yaratilgan erkaklar xarakteri xuddi ayollar obrazi kabi ishonarli edi; uning uslubi – qatʼiy va aniq”¹.

Jurnalist 1937 yil martda Ispaniya “Kolars” jurnalining maxsus muxbiri guvoxnomasini oldi. U boshlanishida harbiy jurnalist vazifalariga qiyinchilik bilan moslashib bordi: uning uchun bu yangilik boʻlib, ozini hech yozishga majbur eta olmas edi. Keyinchalik “Urushning qiyofasi” (“The face of War”,

¹ Gilenson B.A. Хемингуэй и его женщины. – М.: Olma-Press, 1999, 220-bet.

1959) degan xotiralar kitobida u shunday yozadi: “Men jiddiy ishlarni bajarib o`rganib qolgan, tajribali erkaklar, harbiy muxbirlar orqasidan ergashib yurar edim. Men ular bilan Madrid va uning atrofidagi frontlarga bordim. Men shuncha vaqt faqat ispan tilini o`rganib olganimni, biroz urushni va yaradorlarni ko`rganimni hisobga olmasak, hech narsa qila olmadim”¹.

Ko`p o`tmay jurnalda M. Gellhornning Ispaniya haqidagi ilk ocherki e`lon qilindi. Journalist 1940 yil “Kolyers” jurnalidan Sharqqa safar qilish taklifini oladi. Sharqdan Xitoy-Yapon urushining borishi haqidagi umumiy vaziyatni yoritib borishi kerak edi. Bundan oldin E. Hemingueyning “Qong`iroq kimni yo`qlab bong uradi ” (“For Whom the Bell Tolls”, 1940) romani bosmadan chiqdi. Bu asar M. Gellhornga bag`ishlangan edi. “Men shoshilish kerakligini sezar edim: shoshilish va yana shoshilish kerak, vaqt borida, - deb yozadi u. – men tirik ekanman, dunyo oxiriga yetmaguncha yoki yana bir hodisa sodir bo`lmaguncha Sharqni ko`rishga qaror qildim”². Uning bu tirishqoqligi, qiziquvchanligi va bilishga ko`rishga bo`lgan ishtiyoqiga E. Hemenguey ishonch hosil qilib bo`lgan edi.

Ularning birgalikdagi Xitoy va Uzoq Sharqqa safari ko`p vaqtga cho`zilib, 1941 yilning fevraligacha davom etdi. Ular qattiq charchashdi: bu – E.Heminguey uchun ham o`rganilgan hayot sahifasi edi. M.Gellhorn bu haqida ajralishgandan keyin yozgan “Ozim va yana bir hamroh bilan bo`lgan sayohat” (“Travels with myself and another”, 1978) degan xotira kitobida to`laroq yoritib berilgan. Bu asarda E. Heminguey nomi to`g`ridan-to`g`ri aytilmagan: M.Gellhorn uning obro`sidan foydalanib, kitobxonni o`ziga qaratishni xoxlamadi. U kitobda “Beozor yo`ldosh” nomi bilan tilga olinadi. Asarda yozuvchining ko`p qirrali va to`laqonli faoliyatini, 1941 yili qanday bo`lganini tasvirlab bera olgan.

Shuni alohida ko`rsatib o`tish kerakki, amerikalik yozuvchilarning Xitoyga safari E. Hemingueyning ijodiy sahifalarida, umuman, yozilmagan, M.

¹ Gellhorn, Martha. The Face of War. – N.Y., 1959, p. 112.

² Gellhorn, Martha. The Trouble I have seen. – B., 1935, p. 7.

Gellhorn haqida gapirmasa ham bo`ladi. B.T.Gribanov o`zining “Ernest Heminguey”¹ degan kitobida yozuvchining ijodiy sahifalarini yuzaki gapirib o`tgan.

Biz B.A.Gilensonning maqolasini o`qib, shunday xulosa chiqardik. XX asr Amerika adabiyotining tadqiqotchisi bo`lgan bu rus amerikashunos olimi E.Hemingueyning Xitoyga qilgan safari to`g`risida to`liq ma`lumotlar bergan².

Mart oyining oxirlarida jurnalistlar gomindon qo`shinlarining 7-zonasida joylashgan Nayminga, u yerdan esa Kanton frontiga jo`nab ketdi. Bu urush M.Gellhorn ko`rgan uchinchi urush edi. Ular jang olib borilayotgan joylarda ikki hafta mobaynida bo`lishdi: suvda ham suzishdi, quruqlikda ham yurishdi, ba`zida avtomobillar, sampanlar va otlardan foydalanishdi. Shunday xavfli va noqulay vaziyatlarda Marta jon-jahdi bilan: “Men yashashni istayman”,- deb baqirganida, E.Heminguey sovuqqonlik bilan: “Endi juda kech bo`ldi. Kim Xitoyga borishni xoxlagan edi?”, - deb aytgan gapi rafiqasi shikoyatlariga nisbatan inkor etib bo`lmas asos sifatidagi javobi edi. K. Beykerning yozishicha, “M. Gellhorn avvaliga sharoitlardan nolimagan, keyinchalik sovuqdan, ifloslik, uning oyoq-qollarida paydo bo`lgan yuqumli teri toshmalaridan qattiq azoblanib, asabi dosh bermasdi”³. M. Gellhorn ko`pgina boshqa murakkab vaziyatlarda, masalan, eskirib ketgan mashinalarda yurish paytida, uning hayoti kata xavf ostida bo`lganda, qoyil qolsa bo`ladigan sabr-matonat ko`rsatdi.

M. Gellhorn hamisha xitoyliklarning bardoshi va matonatidan hayratlanar edi; “Ular barcha qiyinchiliklarga – ochlik. Charchoq, sovuq, suvsizlik, xavf-xatarga sabr bilan bardosh berishadi”. “Ular inson aqli bovar qilmaydigan darajada chidamli insonlar...deb xitoy jangchilariga qoyil qolar edi: “”Ular yaxshi kiyinmagan, deyarli yarim yalang;och, ammo ular qanday jang qilishni bilishadi”⁴.

¹ Gribanov.B.T. Ernest Heminguey. – M., 1971, 342-343-betlar.

² Gilenson B.A. Хемингуэй в Китае//Проблемы дальнего Востока, 1988,№5, 115-132-betlar.

³ Baker. С Ernest Hemingway. A Life Story. – N.Y., 1969, p. 548.

⁴ Gellhorn, Martha. The Face of War. – N.Y., 1959,p. 176

Xitoyda bo`lganlarida u o`zi bilan E. Heminguey o`rtasida ma'lumotlarga yondashishdagi farqni anglay oldi. U ayol bo`ganligi uchun ko`rganlaridan qattiq ta'sirlanar edi. E. Heminguey esa falsafiy mulohazaga moyil edi.

M.Gellhorn Xitoy xalqining mehnatsevarligi va qahramonligi haqida yana shunday yozgan edi: "Yaponlaerhech qachon Xitoyni kuch bilan yenga ilmaydi. Uch marotaba poytaxtini ko`chirgan, fabrikaning mashinalari va universitet jihozlarini tog`lar orasiga yashirgan, frontga sampanlar va yuk tashuvchilar orqali yordam bergan, tog` cho`qqilarida yashirin joylar tayyorlagan, beto`xtov o`q yomg`irlaridan himoya qilish uchun minglab kishilar mashina yordamisiz yuz kun davomida aerodrome qurgan xalq uni oxirigacha yengishlariga sira yo`l qo`ymaydi"¹.

Ko`p ming sonli aholisining yapon bosqinchilari hujumi oldidagi himoyasizligi haqida M. Gellhorn guvohlik berib: "Shaharning bombardimon qilingan qismida armiya yo`q edi. Biz g`ishtlari vayron bo`lgan alanga ichidagi uylarning chang va tutuni bilan nafas olar edik. Bu davrda esa ko`priklar uloqtirib tashlangan, yo`llarda esa telefon simlarining uzilgan bo`laklari yotar edi"².

Xitoyda Ernest Heminguey va Marta Gellhorn, garchi senzura talabi bo`yicha salbiy holatlarni yumshoqroq qilib ko`rsatishlari kerak bo`lsa ham, yana bir bor o`zlarining ajoyib g`arbiy muxbir ekanliklarini ko`rsatdilar. Ikki jurnalistni ham tinch aholining har qanday qiyinchilikka mardlarcha chidashi ajablantirar edi.

Jurnalist va publisist sifatidagi M. Gellhorn sa'y-harakati aniq maqsadga yo`naltirilgan bo`lib, tez orada "Urush basharasi" asarida o`z aksini topdi. Kitob muharriri ushbu asar haqida yozgan so`zboshisida, muallif haqida quyidagi iliq gaplarni aytadi: "Ispan urushidan boshlab 8 yil mobaynida M.Gellhorn muxbir bo`lib ishladi. U eng og`ir urush yillarida muxbir sifatida 12 mamlakatda bo`lib, insonning kulfatga, nochorlikka, daxshatga qanchalik chidamliligi va

¹Same sorce,p. 104

²Same sorce,p. 104

mardligining guvohi bo'lgan. Bu kitob – muallifning ba'zi-bir o'zgartirishlari asosida tuzilgan, tanlangan reportajlaridir. Bu asarning asosiy mavzui – urush va uning shaxsga ta'siri bo'lib, hozir ham o'z dolzarbligini va hayotiyligini yo'qotmagan.

Asar syujetlari M.Gellhorn guvoh bo'lgan Ispaniya urushidan boshlab “takomillashgan” insoniyat urushlari asosida qurilgan. Urushning asl qiyofasini u o'zining Ispaniya urushi haqidagi “Qamaldagi shahar” va “Uchinchi qish”, Finlyandiya urushi haqidagi “Urushga boruvchi sustyurar qayiq”, “Xelsinki ostidagi bomba”, “Korelian fronti”, Xitoy urushi haqidagi “Xitoyga yo'l”, “Kanton fronti”, Ikkinchi jahon urushi haqidagi: “Bombardimonchilar”, “Olovli yo'llar”, “Italiyaga safar”, “Qamoqxona maxbuslari”, “Birinchi tibbiy kema”, “Karpal eskadroni”, “Gota mudofaa chizig'i”, “Yana Parijda”, “Gollandiyadagi kichkina shaharcha”, “Qora beva”, “Ruslar”, “Daxau” kabi maqola va ocherklarida ifodalagan. Adiba o'z kitobiga yozgan so'zboshisida: “Men bo'lgan to'rt urushning hammasi men uchun birday. Bu insoniyat boshidan kechirgan eng daxshatli urush edi. Nahotki, insoniyat uchun badanidagi bu “rak o'simtasi”niyulib tashlashi uchun 25 milliondan ortiq kishi qurbon bo'lishi, son-sanoqsiz odamlarning mayib-majruh, ko'r, nogiron bo'lishi, bor-budidan mahrum bo'lishi, qanchadan qancha bolalarning yetim-yesir bo'lishi, san'at va madaniyat obidalarining vaxshiylarcha vayron qilinishi kerak”, - deya afsuslanadi. M.Gellhorn fashizmni “rak o'simtasi” deb ataydi. Bu “rak o'simtasi”ning birinchi alomatlari paydo bo'lganda demokratik yevropaning qo'rqoqlarcha e'tiborsiz bo'lganini afsus bilan eslatib o'tadi. Jurnalist: “Bu qo'rqoqlarcha e'tiborsizlik fashizmning kuch yig'ishi va butun dunyoga hukmron bo'lish ishtiyoqi kuchayishi asosiy sababidir”¹, - deydi.

Bu kuzatuvlar asosida M.Gellhorn jurnalistning asosiy vazifasi – faqat haqiqatni yozish, vijdotsizlikka va nohaqsizlikka qarshi ayovsiz kurashi kerakligini ta'kidlaydi. Jamiyat esa qurbonlar va aybsizlarni, albatta, himoya qilmog'i darkor. “Men bilmadim, bu vazifani insonlar qanday bajaradilar, lekin

¹ Gellhorn, Martha. The Face of War. – N.Y., 1959,p. 98.

journalist bo`layotgan voqealarni o`z vaqtida ommaga etkazishi va har doim bu insonlarning qalb ko`zi bo`lishi kerak”¹, - deydi yozuvchi.

M.Gellhorn o`z turmush o`rtog`i E. Hemingueyning “ Jurnalistlar har doim senzura taqibi ostida ekanliklari va urush haqida o`z vaqtida hech qachon haqiqatni to`la yozolmasligi” to`g`risidagi fikriga qo`shilar edi. Uning urushning eng qizg`in paytlarida yozgan dolzarb ocherklari, urush tugaganidan keyin tahririyatlarda “qo`nim” topgani buning yorqin dalilidir . Garchi bu ocherklarni ba`zi o`zgartirishlar bilan bosib chiqarish mumkin bo`lsa ham , u ashaddiy antifashist bo`lgani uchun bunga sira shoshilmadi. Uning uchun haqiqat hamma narsadan ustun edi. Adiba urushning butun qayg`usi, vaxshiyliklari, yovuzliklari va dahshatini faqat hayotiy faktlargagina asoslanib, ko`ngilsiz voqealar bo`lsa-da, insonlarning dardi bitilgan haqiqatni yozsagina urushning haqiqiy basharasini ochish mumkin, degan xulosaga keldi.

M.Gellhorn kitoblari to`g`risida tanqidchilar aytgan ko`pgina mulohazalarda uning tariximizni jonlantirgani qayd etiladi. “Kimda-kim tarixni esda saqlasa, uni qayta boshdan kechirishi muqarrar”, - degan iborasini isbotlashga xizmat qilgan shaxs bo`lsa – u M. Gellhorndir, - deb yozadi u haqda Angliya “Lisner” jurnali.

Adiba hayotining songida Londondagi uyida yashadi va shu yerda 90 yoshida 1998 yil hayotni tark etdi.

Oltmish yildan ortiq davom etgan yozuvchilik faoliyatidagi o`nlab yirik mojarolarni yoritgan birinchi ayol muxbirlardan biri bo`lgan Marta Ellis Gellxorn Londondagi uyida 89 yoshda vafot etdi.

Gellxorn xonim o`ziga ishongan, individualist bo`lib, o`zini boylar va qudratlilar tomonidan yaratilgan mojarolarga tushib qolgan oddiy odamlarning himoyachisi sifatida ko`rardi. U ko`pchilikka 1940 yildan 1945 yilgacha Ernest Xeminguey bilan turmush qurishi orqali ma`lum bo`lganligi, ayniqsa, tanqidchilar uning bo`sh yozish uslubi va mashhurroq eri o`rtasidagi o`xshashliklarni topishga harakat qilganda, uni oxirigacha g`azablantirdi.

¹ Gellhorn, Martha. The Face of War. – N.Y., 1959,p. 103.

"Nega men bironing hayotida izoh bo'lishim kerak?" — deya achchiq so'radi u intervyusida Xeminguey bilan uchrashgunga qadar ikkita roman yozganini va u bilan ajrashganidan keyin ham deyarli yarim asr davomida yozishda davom etganini ta'kidlab o'tdi.

Jurnalist sifatida Gellhorn xonim xolislik tushunchasiga muhtoj emas edi. U nimanidir yoritishdan asosiy maqsad ko'rganlaringni aytib berish, yolg'onni yo'q qilish va uni yomon odamlarga yetkazish ekanligini his qildi. "Siz kasalxonaga borasiz va u yaralangan bolalar bilan to'la", dedi u bir marta. "Shunday qilib, siz ko'rgan narsangizni va qandayligini yozasiz. Siz bu kasalxonada 37 nafar yarador bola bor demaysiz, lekin narigi tomonda 38 nafar yarador bola bo'lishi mumkin. Siz ko'rganingizni yozasiz."

Gellhorn xonim o'zining kashshof jurnalistikasi bilan mashhur bo'lsa-da, shuningdek, mohir fantastika yozuvchisi, 5 ta roman, 14 ta roman va 2 ta hikoyalar to'plami muallifi bo'lib, ularning aksariyati o'zining ajoyib sayohatlari davomida duch kelgan odamlar va voqealarga asoslangan edi.

1927 yilda Bryn Mawr kollejini tugatgandan so'ng, u The New Republic uchun yozishni boshladi, keyin Albanydagi mahalliy gazetada jinoyatchi bo'ldi. Gellhorn xonim Yevropaga Holland American Line uchun risola yozib keldi va butun qit'a bo'ylab sayohat qildi. Keyinchalik u prezident Franklin Ruzveltning ishonchli odami Garri Xopkins bilan uchrashdi va uni Amerika bo'ylab sayohat qilib, Depressiyaning oddiy odamlarga ta'siri haqida xabar berib, uni New Deal bilan ishlashga ko'ndiradi.

1937 yilda u Ispaniyaga bor-yo'g'i ryukzak va 50 dollar bilan sayohat qildi, Collier's Weekly jurnali uchun mojaroni yoritib berdi va Xemingueyning bekasi bo'ldi. 1938 yilda u odatdagi xabarida shunday deb yozgan edi: "Barselonada bombardimon qilish uchun mukammal ob-havo bor edi". "Rambla bo'yidagi kafelar gavjum edi. Ichish uchun ko'p narsa yo'q edi; apelsin deb ataladigan shirin, gazli zahar va sherri bo'lishi kerak bo'lgan dahshatli suyuqlik. Albatta, ovqatlanadigan hech narsa yo'q edi. Hamma tushdan keyin sovuq

quyoshdan zavqlanib tashqariga chiqdi. Bombardimonchilar kamida ikki soat kelishmadi."

U Londondagi blitsni yoritgan. D-Day kuni u kasalxona kemasiga o'tirdi va hamshira sifatida qirg'oqqa yo'l oldi. U britaniyalik uchuvchilarni Germaniyadagi tungi bombardimon missiyalarida o'zlari bilan birga olib ketishga ko'ndirgan. Ittifoqchilar Dachau ni ozod qilganda, u bu haqda yozish uchun u erda edi.

"Tikanli sim va elektr panjara ortida, - deb yozadi u Dachauga tashrifi haqida, "skeletlar quyoshda o'tirib, bitlarni qidirdi. Ularning yoshi va yuzlari yo'q; Ularning barchasi bir-biriga o'xshaydi va agar omadingiz bo'lsa, hech qachon ko'ra olmaysiz."

U 1939-yilda Rossiyaning Finlyandiyaga qarshi urushini yoritgan, 1940-yilda Xeminguey bilan Xitoyga safar qilgan va o'zi "mustamlakachi davlat" deb hisoblagan Qo'shma Shtatlarni tobora qattiq tanqid qila boshlagan va oxir-oqibat chet elda doimiy joylashib qolgan. U Vetnam, Nikaragua kontrastlari, arab-isroil mojarosi va 81 yoshida Amerika Qo'shma Shtatlarining Panamaga bostirib kirishini yoritgan. Faqat urush Bosniyaga kelganida, bu unga muhlat berdi.

"Juda eski", dedi u. "Jang qilish uchun siz aqlli bo'lishingiz kerak."

Gellhorn xonimning urush yozishmalari 1959 yilda "Urush yuzi"da to'plangan. U har doim generallarga e'tibor bermay, oddiy piyoda askarlar va tinch aholiga e'tibor qaratdi. Uning tinchlik davridagi jurnalistikasi 1988 yilda "Yerdan ko'rinish" jurnalida to'plangan. Uning romanlari orasida fashistlarning Chexoslovakiyaga bostirib kirishidan sal oldin Pragadagi qochqinlar orasida o'tkazilgan "Qotil dala" (1940) va frantsuz Karib havzasida mulatta ayol va boy oq tanli erkakning turmush qurishi haqidagi "Liana" (1944) romanlari bor edi.

Ko'pgina sharhlovchilar Gellhorn xonimning romanchi sifatida yanada muvaffaqiyatli ekanligini his qilishdi va u "Afrikadagi ob-havo" (1988), ushbu qit'ada yozilgan uchta roman va "Marta Gellhorn Novellas" (1993) uchun maqtovga sazovor bo'ldi. Gellxorn xonim ba'zan siyosiy konservatorlar

tomonidan tanqid ostiga olindi, ular uni yozganlari ko'pincha didaktik va sentimental bo'lgan chap qanot diletant sifatida ko'rsatdilar. Boshqalar esa uning shov-shuvli jurnalistikasini badiiy adabiyotga o'xshatib, lakonik fantastikasini esa jurnalistikaga haddan tashqari o'xshatib tanqid qilishgan.

Ammo uning uzoq umr ko'rishi va hayotiy hikoyasining jozibasi bunday tanqidlardan ustun keldi.

Gellxorn xonimning otasi Sent-Luisda ilg'or qarashlarga ega bo'lgan shifokor bo'lgan, uning onasi esa sufragist va ijtimoiy islohotchi bo'lib, ba'zida qizini o'zi bilan miting va noroziliklarga olib borardi. Uning otasi rohibalar muhrlangan rasmlari bo'lgan darslikdan ayollar anatomiyasidan dars berayotganini bilib, uni monastir maktabidan olib tashladi va qizni onasi asos solgan progressiv qo'shma maktabga o'tkazdi.

Keyinchalik, Bryn Mavrda Gellhorn xonim o'z mutaxassisligini ingliz tilidan frantsuz tiliga o'zgartirdi, bu uning Yevropadagi jurnalistik faoliyati uchun foydali bo'ldi. 1934 yilda u fashistlar Germaniyasiga gastrol safariga taklif qilingan bir guruh amerikalik talabalar orasida edi va u fashizm bilan birinchi uchrashuvini hech qachon unutmadi.

U AQShga qaytib, Favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatish bo'yicha federal ma'muriyatda ishlaganida Eleanor Ruzvelt bilan do'stlashdi va bir muncha vaqt Birinchi xonimning Oq uyda mehmoni sifatida o'tkazdi. U bu haqda hikoyalar to'plamini ham yozgan, "Men ko'rgan musibat" (1936).

1936 yilda u Florida shtatining Key-Uest shahridagi barga kirib, Xeminguey bilan uchrashdi. Ular ichishdi, do'st bo'lishdi va keyingi yili u Madridda paydo bo'lganida, u yana Xeminguey va boshqa urush muxbirlari bilan do'stlashdi. U 1940 yilda yozuvchiga turmushga chiqdi va uning uchinchi xotiniga aylandi. Ular Kubadagi villada yashab, birga sayohat qilishgan va ishlashgan. 1945 yilda Gellxorn xonim Londondagi Dorchester mehmonxonasida janjaldan keyin Xemingueyni tark etdi. U Xemingueyning xotinini tark etgan yagona ayol edi va u uni hech qachon kechirmadi. Xeminguey tarjimai holi mualliflaridan biri ta'kidlaganidek, "Uning unga

nisbatan nafrati dahshatli edi". Uning aytishicha, u rashkchi va bezorilik qilgani uchun ketgan.

Gellhorn xonimning Time jurnali muharriri T. S. Metyus bilan uchinchi nikohi ham ajralish bilan yakunlangan. Uning so'zlariga ko'ra, u turmush qurishni juda zerikarli deb bilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Gellhorn xonim Italiyada o'g'il asrab oldi va uni asosan Meksika va boshqa mamlakatlarda yolg'iz o'zi tarbiyalagan, u yerda ayollar jurnallari uchun qator maqolalar yozib tirikchilik qilgan.

Uning o'g'li londonlik Jorj Aleksandr Gelxorn va ukasi Nyu-Yorklik Alfred Gelxornda qoldi.

Gellxorn xonim endi Qo'shma Shtatlarda yashay olmasligini tushundi va nihoyat Britaniyaga joylashishdan oldin Kubadan Italiyaga Meksikaga, Keniyaga ko'chib o'tdi, u erda so'nggi 15 yilni Uelsdagi kichkina kottej, Londondagi kvartira va boshqa kvartiralar orasida sayohat qildi. Dunyoning issiq nuqtalari, uning Janubiy Kensingtondagi kvartirasi yozuvchilar va xorijiy muxbirlar uchun o'ziga xos salonga aylandi.

Ilgari ingliz adabiy jurnali Granta muharriri bo'lgan The New Yorker gazetasining badiiy muharriri Bill Buford Gellhorn xonim va uning ijodi haqida shunday yozgan: "Marta Gellxornni birinchi marta o'qish ajoyib tajriba. U sayohatchi, jurnalist yoki yozuvchi emas. U bularning barchasi va 20-asrning eng so'zli guvohlaridan biri."

1979 yilda u "O'zi va boshqalar bilan sayohatlar" nomli sayohat kitobini ham yozdi. Bu kitobda dunyoning chekka burchaklariga, ba'zilari Xeminguey bilan bo'lgan eng noqulay sayohatlari haqida ko'pincha hazil-mutoyiba bayoni bo'lib, u faqat o'zini bexabar deb atagan. Hamroh.

Uning birinchi sevgisi hamon uning salibchilarning noaniq adabiyoti edi. "Jurnalistika men uchun ta'limdir", deb yozadi u. "Yozish - tomosha qilish va o'rganish imkoniyati uchun to'lash kerak bo'lgan narxdir." U eski, kaltaklangan yozuv mashinkasida yozgan va 1992 yilda katarakta operatsiyasi tufayli uni ko'rish qobiliyati yomonlashganidan keyin ketishga majbur bo'lgan.

U endi kalitlarni ko'ra olmadi va diktant yozishni o'rganish uchun juda keksa ekanligini his qildi.

Ammo u hech qachon aloqasini yo'qotmadi. U birin-ketin chekdi, ichdi va o'ziga yoqqanini yedi. "Men bu sog'lom narsalardan zerikaman", dedi u. U umrining oxirida u bilan suhbatlashish uchun kelgan bir ayolga to'xtash kerakligini aytdi. "Bu suhbat shunchalik zerikarliki, men hushidan ketaman deb o'ylayman", dedi u.

Gellxorn xonim Vetnam urushidan keyingi urush haqidagi xabarlarini unchalik qadrlamadi va bu mojaroga barham berishda matbuotning roli harbiy rahbarlarga saboq berdi, dedi. "Ular matbuotning kuchini anglab etishdi va o'shandan beri uni nazorat qilishdi", dedi u. "Ko'rfaz urushiga qarang. Agar siz tashqariga chiqmoqchi bo'lsangiz va askarga: "Qandaysiz, bolam?" Demochi bo'lsangiz, bola hech narsa demasligi uchun siz bilan birga vasiyni olishingiz kerak edi.

"Menimcha, ular har qanday narsadan mil uzoqlikda joylashgan mehmonxona bal zallarida bu bema'ni brifinglarda urush muxbirlarini ovqatlantirayotganga o'xshaydi." Uning so'zlariga ko'ra, jamoatchilik butun voqeani tushuna olmasligini tushunishi kerak.

Har qanday roman yoki reportaj uchun etarlicha rang-barang bo'lgan hayotga nazar tashlar ekanmiz, Gellxorn xonim bir marta shunday deb tan oldi: "Men juda imtiyozliman. Men ajoyib hayot kechirdim. Men bunga loyiq emas edim, lekin menda bor edi."

2.2. A.L.Strong ijodida Sharq bilan bog'liq xususiyatlarning o'rganilishi

Okean orti adabiyoti va matbuotining Sharqqa qiziqishi doirasiga Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hayotini yoritishga ham kiradi. Chunki Amerika uchun Xitoy va Markaziy Osiyo mavzui – bir yo'nalish hisoblanar edi. O'zbekistonni qiziqib o'rganagan amerikalik adiblardan biri Anna Luiza Strongdir.

Anna Luiza Strong 1885 yil Nebraska shtatida, boy oilada dunyoga keldi. A.L.Strongning ajdodlari asli britaniyalik bo`lib, Shimoliy Amerikaga 1630 yil ko`chib kelgan. A.L.Strong Chikago universitetini tamomlab , shu yerning o`zida jurnalistik faoliyatini boshladi. Yozuvchining Amerika haqiqatidan ixlosi qaytishi haqida “Nyu-York Tayms” gazetasi shunday yozadi: “Bu ajoyib ayol O`rta G`arbda, joni-dili bilan dinga e`tiqod qo`ygan oilada bolalarining eng kichigi bo`lib o`sgan. Keyinchalik hayotdan a`lam ila ko`ngli qolib, o`z hayotini yuksak maqsad-g`oyalarga bag`ishlaydi”¹.

U yoshligini Siyetlda o`tkazadi. Adiba 1918 yil Bullit missiyasi bilan Rossiyada bo`lgan Linkoln Steffens bilan tanishadi. L. Steffens yozuvchiga Moskvaga borib “o`ziga yo`l hozirlayotgan kelajak”ni o`z ko`zi bilan ko`rishni maslahat beradi.

Ushbu yozuvchi o`tgan asrning 20-yillarida O`zbekiston hayotini o`rgangan amerikalik adiblarning birinchilaridan edi. Mamlakatimizda bo`lish A.L.Strong ijodiga hal qiluvchi ta`sir ko`rsatdi. U o`zbek adabiyoti bilan do`st bo`lib qoldi. A.L.Strong. A.R.Vilyams, L.Hyuz kabi amerikalik yozuvchilar bilan birgalikda O`zbekistonda bo`lib, o`z xalqiga yurtimiz, uning madaniyati va dabiyoti haqida bor haqiqatni ko`rsatib berdi. Uning asarlari Amerikaning ayrim matbuotlarida zo`r berib yozilayotgan yolg`on to`qima ma`lumotlarni fosh etishga xizmat qildi.

A.L.Strong sodir bo`layotgan voqea-hodisalarning asosiy mazmunini ko`rsatib bera olish qobiliyatiga ega, uslubi oddiy va tushunarli, o`z taassurotlarini so`zlab berishga juda iste`dodli journalist edi. “Nyu-York Tayms” gazetasi: “A.L. Strong yaratgan roman, ocherk va maqolalar yorqin, jo`shqin, yengil hamda doim Amerika, Yevropa, Osiyo va Afrikada yashaydigan kitobxonlar orasida juda ommabop bo`lgan”², - deb yozgan edi. Uning Nyu-Yorkda 1932 yildan “Yangi dunyo taxlili” nomi bilan chiqa boshlagan jurnalda

¹ “The Nyu-York Times” . March 30, 1970, p. 43.

²Same source.

nashr etilgan maqolalari faqat jonliligi va ravshanligi bilangina emas, balki, ishonarliligi bilan ham ajralib turadi.

Jurnalist Amerika publisistikasining ajoyib an'analarini izchil davom ettirdi. U sobiq ittifoq va amerika xalqlari o`rtasidagi o`zaro hamkorlikni mustahkamlash ishiga kata hissa qo`shdi.

A.L.Strong o`zining sobiq ittifoq xalqlari haqidagi ("People of the USSR")¹ kitobining kirish qismida 1930 yili minglab amerikaliklar Rossiyaga kelganliklari, ulardan ko`pchiligi O`zbekistonda yashaganliklarini eslatib o`tadi. Jurnalist Moskvada ular uchun "Moscow News" haftalik gazetasini tashkil qildi, keyinchalik u kundalik gazetaga aylandi. Adiba ko`p yillar davomida shu gazetaning bosh muharriri bo`lib ishladi. "Moscow News" gazetasi sobiq ittifoqda ingliz tilida chiqadigan birinchi gazeta edi. U o`zining "Men dunyomni o`zgartiraman" ("I change Worlds", 1935)² avtobiografik kitobida A.L. Strong Rossiya podshosining qulashi haqidagi xabarni ijobiy zavq-shavq bilan kutib olganini eslaydi. U dunyoning qay bir nuqtasida inqilobiy harakat bo`lsa, uni kata qiziqish bilan o`rganar edi. Shu sababdan u 20-yillarda Xitoyda, 30-yillarda Ispaniyada bo`ldi.

Adiba sobiq ittifoqqa birinchi marta 1921 yili keldi, shu davrdan boshlab u bir necha bor tashrif buyurib, ko`p vaqtlar shu yerda yashadi. Uning shaxsiy hayoti ham sobiq ittifoq bilan bog`liq bo`ldi. U rossiya fuqarosi, ilg`or jurnalist – G. Shubin bilan turmush qurdi va Moskva, yozuvchining ta`kidlashicha, "uning o`z uyi bo`lib qoldi".

Yozuvchi 1928-1931 yillari Osiyo bo`ylab uzoq davom etgan sayohatga chiqdi. Adiba O`zbekiston va Pomirda bo`ldi. Sayohatining ijodiy natijasi "Samarqand uzra qizil yulduz" ("Red Star over Samarkand", 1929) va "Ko`hna pomirga yo`l" ("The Road to the Grey Pamir", 1931) hujjatli-ocherklardan iborat.

¹ Strong A.L. People of the USSR. – N.Y., 1945, p. 116.

² Strong A.L. I Change Wolds. – London, 1935, p. 235.

O`zbekiston haqida guvohlik beruvchi “Samarqand uzra qizil yulduz” kitobi amerika adbiyotida ilk hujjatli asar boldi.

Jurnalist: “Oktyabr to`ntarishidan so`ng ijtimoiy va iqtisodiy kuchlar o`zgardi, lekin geografiya ilgaridagidek qoldi”, - deb yozadi. U qadimiy va hamisha navqiron Samarqand va Buxoro shaharlarini nazarda tutar edi, “bu yerlarada qachonlardir ellin madaniyati, so`ng esa arab tilidagi tamaddun gullab yashnagan. XIII asrda Chingizxon boshchiligidagi mo`g`ul bosqinchilari tomonidan vayron etilganiga qaramasdan, bu shahar Temur davrida qayta tiklanib, Markaziy Osiyo uyg`onish davrining adabiyot va me`morchilik gullagan markazi bo`lib qoldi¹, - deb xulosa qiladi A.L.Strong.

A.L.Strong Turkistonda XX asrda yuz bergan ijobiy o`zgarishlarni adolat bilan qayd etadi².

Adibani, eng avvalo, ilgari chor hukumati qaramligida bo`lgan o`zbek xalqi orasidan yetishib chiqqan yangi, ilg`or fikrli insonlar qiziqtirar edi.

O`zbekiston mavzui uning “Men dunyomni o`zgartiraman” avtobiografik kitobida ham markaziy o`rinlardan birini egallagan .

A.L.Strong 1930 yil mayda Turksib temir yo`lining ochilish marosimida ishtirok etdi. Bu temir yo`ning ochilishiga bag`ishlangan yig`ilishda AQSh, Germaniya, Angliya, Italiya va boshqa ko`pgina mamlakatlardan kelgan 30 dan ortiq journalist ishtirok etdi. “Ular o`z ko`zlari bilan ko`rib, but emir yo`l bug`doy bilan paxtani tutashtirganiga, Markaziy Osiyo qishloq xo`jaligini industrilashirishga imkon berganiga ishonch hosil qildilar ”³.

Adiba o`z kitobida: “Bu temir yo`l faqatgina bug`doy bilan paxta o`zaro tutashganini bildiribgina qolmay, balki yangi yerlarni o`zlashtirishga yordam beradi”⁴, - deb yozadi.

Markaziy Osiyo mavzui uning “Ko`hna Pomirga yo`l” asrida ham o`z aksini topdi . Kitob yozuvchining Dunyo “cho`qqisi”ga sayohatidan olgan yangi taassurotlari asosida yozilgan. U “cho`qqi”ga ko`tarilishda “buyuk

¹ Strong A. L. Red Star over Samarkand. – N. Y., 1929, pp. 82-83.

² Same source, p 8.

³ Strong A.L. I change Worlds. – London, 1935, p. 281.

⁴ Same source, p. 273.

sarkardalar Iskandar Zulqarnayn, Mirzo Bobur va sayohatchi Marko Polo bosib o'tgan yo'llar"dagi barcha qiyinchiliklarni shijoat ko'rsatib, mardonavor va munosib yengib o'tdi¹.

A.L.Strong amerikalik kitobxonni ulug` o'zbek adibi Boburning tarjimai holi bilan qisqacha tanishtiradi va Farg`ona vodiysining O`sh, Andijon, Farg`ona kabi shahrlarini ta'riflaydi. Kitob shaxsiy taassurotlar asosida yaratilib, ijtimoiy va etnografik ma'lumotlarga juda boy. Kuzatuvchan jurnalist qirg`iz va o'zbek xalqlarining hayotini yoritadi, ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, turmushlarini tasvirlaydi, mahalliy xalqlar qadimiy afsonalarini esga oladi, yangi hayot alomatlarini ko'rsatadi.

Adibaning keying kitobi "People of the USSR" sobiq ittifoq xalqlari haqida bo`lib, unda har bir respublikaga alohida bir bob ajratilgan.

Adiba oldingi kitoblarida endigina boshlanayotgan tub hayotiy o'zgarishlarni tasvirlasa, bu asarida ana shu o'zgarishlarning ilk natijalarini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi 28 davomida, jurnalistning fikricha, kata muvaffaqiyatlarga erishdi: O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yangi zamonaviy mashinalar bilan ta'minlanishi, respublika poytaxti Toshkent shaxrining iqtisodiy va madaniy rivojlanishi, ko'pgina oliy o'quv yurtlari va boshqalarning paydo bo'lishi kabilarni bayon qildi. Yozuvchi ikkinchi jahon urushi davrida bunyod etilgan yirik inshootlarni ko'rib hayratlandi.

U O'zbekistonda yiliga turli ekinlardan ikki marta hosil olinayotgani haqida hikoya qiladi. O'zbek olimlarining tadqiqot ishlari yozuvchini zavqlantiradi: urush avj olgan davrda ko'plab asarlar bosmadan chiqqanligini va O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilganini alohida ko'rsatib o'tadi. A.L.Strong ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston xalqi ko'rsatgan jasoratlar, insonlar buyuk bag`rikenglik va baynalminal hislarini namoyon etganliklariga e'tibor berdi. O'zbekiston o'sha yillarda turli respublikalardan ko'chirib kelingan 3 mln. aholini qabul qildi: o'sha davrda "Har bir o'zbek oilasiga ko'chirib keltirilgan bir bola" vatanparvarlik shiori paydo bo'ldi.

¹ Strong A.L. The Road to the Grey Pamir. – Boston, 1931, p.3.

Temirchi Shoahmad Shomahmudovning “Baynalminal oilasi” turli millatga mansub 16 yetim bolani o`z tarbiyasiga olishi ana shu shiorning timsoli bo`lib qoldi.

Yozuvchi 1949 yili o`z vataniga qaytdi va shu yilning mart oyida Amerika Katta Hay’ati oldida javob berishiga to`g`ri keldi. Chunki 1948 yili Rossiyada yashagan vaqtida u hibsga olinib, Lubyanka qamoqxonasiga joylashtirilgan edi. A.L.Strongni chet davlatlar foydasiga ya’ni Aqsh va Amerika foydasiga josuslik qilishda ayblashdi. Uni butun ilg`or insoniyat ommasi himoya qilishga tushdi. Umumjahon noroziligi shunchalik kuchli ediki, sho`ro davlati yozuvchini ozod etishga majbur bo`ldi va u vataniga qaytdi, hatto shunday xo`rlashlar ham uni g`azablantirmadi. Jurnalist har doim adolat uchun kurashchi bo`lib qoldi, lekin vatanida uni yana og`ir sinovlar kutat edi. Adibani “kommunistik davlatlar” foydasiga josuslikda aybladilar. Lekin hay’at hech qanday dalil topa olmay, yozuvchining sog`ligini hisobga olib, uni aybsiz deb topdi.

O`zga mamlakatda yashayotgan har bir yozuvchi yoki jurnalistda bo`lganidek, A.L.Strongning hamma xulosalari ham to`g`ri emas edi, albatta. Ammo u o`z kasbiga mas’uliyat, o`ta halollik bilan yondashar edi. Yozuvchi sobiq ittifoq va Aqsh xalqlari o`rtasidagi o`zaro hamkorlik munosabatlarining rivojlanishiga kata hissa qo`shdi.

III BOB

AQSH YOZUVCHILARI TASNIFIDA O`ZBEKISTON

3.1.L.Hyuz asarlarida O`zbekistonga munosabatlarning aks etishi.

Jahon adabiyotida 30-yillar alohida o`rin tutadi, shu davrda chet eldan vatanimizga kelayotgan yozuvchilar soni ortdi. Ular orasida Lengston Hyuz ham bor edi. Lengston Hyuz shoir sifatida 20-yillarda Aqshda negr xalqining kata yuksalishi davrida oldingi safga chiqdi. Aynan shu adabiy-badiiy harakat keyinchalik “Negrlar Uyg`onishi (Renessansi)” deb ataldi. L.Hyuz shu adabiy harakatning eng iste’dodli vakili edi.

Lengston Xyuz (James Mercer Langston Hughes) — taniqli afroamerikalik shoir, yozuvchi, publitsist va jamoat arbobi. U amerikalik negrlar muhitida paydo bo`lgan jaz musiqasiga xos shakllarni she`riyat ko`chirishga uringan novatorlardan va Amerika madaniyatida katta o`rin egallagan «Harlem Renessansi» harakatining paydo bo`lishiga sababchi bo`lgan ijodkorlardan biridir. Uning bobosi AQSh kongressiga saylangan birinchi qoratanli bo`lgan. Shoirning ilk she`riy asari 1921 yili “The Crisis” jurnalida e`lon qilingan. 1922 yili o`ziga nisbatan salbiy irqiy munosabatlarga qarshi Kolumbiya universiteti tark etib, tahsilini Filadelfiyadagi Avraam Linkoln universitetida davom ettirgan. 1932–33 yillar Sovet Ittifoqida, shu jumladan O`zbekistonda tashrif buyurgan. Bu safar taassurotlari uning «Sovetlar O`rta Osiyosi negr nigohi bilan» kitobida aks etgan. Lengston Xyuz she`riyatida afroamerikaliklar folklori ohanglari, shakllari va mavzulari yorqin namoyon bo`lgan. Shoir hayoti davomida 16 she`riy to`plamini nashr ettirgan. Eng mashhur she`riy to`plamlaridan biri «Shekspir Harlemda» (“Shakespeare in Harlem”, 1942) deb nomlanadi.

Lengston Hyuz – shoir, nosir, dramaturg va publitsist bo`lgan. U Missuri shtatida tavallud topgan. Bolalaligi Kanzas va Illinoisda o`tdi. Onasi o`qituvchi otasi ish qidirib bir joydan ikkinchi joyga ko`chib yuruvchi kishi edi. Adib 1921 yil Kolumbiya universitetiga o`qishga kirdi. Lekin tez orada o`qishni tashladi va

bir necha yil mamlakat bo`ylab kezib yurdi. Ko`pgina kasblarda ishladi – matros, yuk tashuvchi, mexmonxona xizmatchisi, idish-tovoq yuvuvchi va shunga o`xshash vazifalarni bajardi.

Shoirning ilk she`rlari 20- yillarda yozilgan. Uning birinchi she`riy to`plami “Horg`in blyuzlar” (“The Weary blues”, 1926) nashr etilishi bilan tez orada mashhur bo`lib ketdi. Uning sheriyati Uitmen va Sendberg an`analari bilan negr folklori, eng avvalo, blyuz¹ bilan birlashtirilishi yanada nafislashadi. Uning qirq yillik adabiy ijodi davomida o`ttizta she`riy to`plami bosilib chiqdi. Hyuz L. – negrlar tarixi, madaniyati, san`ati muammolariga bag`ishlangan “Ko`z yosh ichra kulgu” (“Not Without laughter”, 1930) romani, olti hikoyalar to`plami, tarjimai holining ikki jildi, bir necha pyessa va kitoblar muallifi. Yozuvchi “New messis” so`l jurnali va “Harlem Liberator”, “Crisis”, “Chicago defender” kabi nashriyotlarda ishlagan. U 1932 yil kuzda o`ttiz ikki kishidan iborat negrlar vakillari bilan sobiq ittifoqqa keldi. Aslida ular “Mejraypom” kino birlashmasining taklifi bilan “Qoralar va oqlar” filmi suratga olishda ishtirok etishlari lozim edi. Lekin senariyning yaxshi chiqmaganligi tufayli film suratga olinmadi. Kelganlarning ko`pchiligi qaytib ketdi, faqat o`n bir kishi mamlakat bo`ylab safar qilish imkoniyatini qo`lga kiritdi.

Mehmonlar Markaziy Osiyoda ham bo`ldilar. Osiyo Hyuzni shunchalar qiziqdirdiki, u alohida ruxsat olib, sobiq ittifoqda qoldi. Adib O`zbekiston va Turkmanistonda yana yarim yilcha yurish imkoniga ega bo`ldi.

L.Hyuz 30-yillarda o`zining mashhur, ilg`or fikrlari bilan negr xalqi uchun ozodlik ruhidagi asarlarini yaratdi. Bu davr ko`pchilik amerikalik yozuvchi va madaniyat arboblari Aqshdagi iqtisodiy inqiroz, Yevropada fashistlar xavfi bilan tashvishga tushgan va kapitalistik jamiyat go`yalaridan ixlosi qaytib, mehnatkashlar ommasini bilan yaqinlashgan edi.

Negr yozuvchilaridan biri Feys Berri L.Hyuz haqida, haqli ravishda shunday deydi: “Uning isyonkor ilg`or faoliyatiga, Amerikaning ichki omillari bilan bir qatorda, uning Sovet ittifoqi, Xitoy va Ispaniya bo`ylab safarlari ham

¹ Blyuz – poetic shaklda insonning pessimistic va optimistic holatlarini ifodalovchi dramatik monolog.

ta'sir ko'rsatdi"¹. Feys Berri yozuvchi radikalizmini "Salom Inqilob" ("Good Morning, Revolution" 1973) kitobining kirish qismida xuddi shunday tushuntiradi. Kitobda L.Hyuzning ijtimoiy g'alayon ruhidagi she'rlari, ocherklar va maqolalari to'planib, kichik nashriyotlarda bosilgan va birinchi bor kitob holida nashr etilgan edi. Bu kitob uning ijodiga yangi nur bag'ishladi. Yozuvchi negr qalamkashlari orasida birinchi bo'lib oq va qora proletarlar birdamligi kuychisi sifatida chiqdi. Ilg'or fikrli tanqidchilar L.Hyuz asarlari nashr etilishini ijobiy kutib olishdi.

U.L.Patterson "Lengston Hyuz"² deb nomlangan maqolasida, Feyz Berri amalga oshirgan ishlarni yuqori baholadi. F.Berrining xizmati L.Hyuz ijodini Aqsh ilg'or adabiyotiga qo'shgan edi. U.L.Patterson o'zining "Genosidni qoralovchi inson" ("The Man Who Cried Genocide", 1971)³ degan kitobida L.Hyuzni Amerika negrlari ozodligi uchun botir va qo'rqmas kurashchi deb atadi.

Yozuvchining Toshkentda, paxta yetishtirish bo'yicha tajriba laboratoriyasida J.O.Golden bilan uchrashgani qiziqarli edi. Jon Oliver Golden Ozbekiston ijtimoiy hayotida faol ishtirok etdi va Toshkent shahri mehnatkashlar deputatlari kengashiga saylandi. L.Hyuz unga va O'zbekistonda yashayotgan boshqa negrlarga o'zini avtobiografik "Kezgan sari hayratlanaman" ("I Wander as I Wonder", 1956) kitobida bir nechta sahifani bag'ishlaydi. "L.Hyuzning O'zbekistonda bo'lishi uning ilg'or fikrlari va dunyoqarashining shakllanishiga kata ta'sir ko'rsatadi", - deb hikoya qiladi Vera Ippolitovna Aralova. Vera Ippolitovna, sobiq ittifoqda xizmat ko'rsatgan rassom – Loyd Pattersonning rafiqasi. L.Patterson sobiq ittifoqqa 1931 yil ko'ngilli amerikaliklar safida kelgan. U sobiq ittifoq fuqaroligini qabul qilib, o'z taqdirini Rossiya bilan bog'lagan. Umumittifoq radiosining suxandoni bo'lib ishladi, xorijiy mamlakatlar uchun ingliz tilida eshittirishlar olib bordi.

¹ Hughes L. Good Morning, Revolution. Introduction, ed. By Berry F. – N.Y., 1973, p. 13.

² Patterson W.L. Hughies Langston // New World Review. – N.Y., 1975, vol.43, N4.

³ Patterson W.L. The Man Who Cried Genocide. An Autobiography by W.L.Patterson. – N.Y., 1971

L.Hyuz L.Pattersonga 1961 yil xurmat ila do`stlik belgisi sifatida uning shoir bo`lib yetishgan og`li Jim Pattersonga¹ o`zining she`riy to`plamini yubordi. Bu kitob Shoirni o`zbek xalqining, umuman, Markaziy Osiyoda yashovchi boshqa xalqlarning hayoti va madaniyati bilan tanishtirdi. Yozuvchining fikricha, Markaziy Osiyo xalqlari XX asrning 20-yillarida sodir bo`lgan o`zgarishlar tufayli milliy madaniyatlarini rivojlantirish imkoniyatida ega bo`ldi. J.O.Golden va L.Pattersonlarning² eslashicha, L.Hyuz Markaziy Osiyodan bir qancha ijodiy rejalar va ilg`or fikrlar bilan jo`nab ketgan. Hamda vataniga qaytganida ularni amalga oshirgan. Markaziy Osiyo taasurotlari asosida L.Hyuz o`zining ko`tarinki ruhdagi publisistik asarlarini yartadi.

Yozuvchi uchun ham, u bilan birga kelgan guruh uchun ham, bu shunchaki, bir hayajonli o`n kunlik sayohat emas, o`zbek, tojik va turkman xalqlari bilan ko`p oylik yaqin aloqada bo`lish, ularning hayoti va madaniyatini o`rganishning boshlanishi edi. O`zbekiston poytaxti va Toshkent viloyatidagi zavod-fabrika va qishloqlarda bo`lib, L.Hyuz begona mamlakatning odamlari bilan tanishdi. “Markaziy Osiyoga safari, - deb yozadi keyinchalik L.Hyuz, - bu mintaqa xalqlari yutuqlari xaqidagi tasavvurlarimni kengaytirdi. Bolaligim menga boshqa millat vakillari bilan yaqin muosabatda bo`lishga imkon berdi”³. Adib vatanimiz hayoti, uning o`tmishi va hozirgi davri bilan tanishdi. Shu bilan birga, u oq podsho hukmronligi davrida, Aqshdagi kabi, transport va jamoat joylarida “osiyoliklar uchun” kabi taqiqlovchi yozuvlar bo`lganini qayd etadi. Toshkent – Samarqand – Buxoro – Ashxobod – Krasnovodsk yo`nalishi bo`yicha sayohat qildi, qaytishida ba`zi shaharlarda ko`proq to`xtab, amerikalik shoir xo`jaliklar, zavod-fabrikalar, choyxonalar, zarbdor qurilishlarda bo`ldi, osori atiqalar bilan tanishdi.

L.Hyuzning yurtimizga bag`ishlangan publisistikasini ikki davrga ajratish mumkin. Birinchi davr o`z ichiga 30-yillarni oladi. Bu davrda olingan taasurotlar asosida sobiq ittifoq va O`zbekistonda bir qator asarlar yaratdi. Ular

¹ Rejisyor G.V. Aleksandrovning mashhur “Sirk” filmida (1936) Jim Patterson negr bola rolini ijro etgan

² Rossiya Federatsiyasida xizmat ko`rsatgan rassom, Javoxarla'l Neru nomidagi xalqaro mukofot soxibi V.I.Aralova va J.Patterson o`rtasida Moskvada 1989 yil 6-aprelda bo`lgan suhbatdan.

³ Freedomways, vol.8, N2. – N.Y., 1968, p. 157.

ichida diqqatga sazovorlari “Internatsionalnaya literatura” (rus va ingliz tillarida) va “Za rubejom” jurnallarida hamda ba’zi markaziy va mahalliy matbuot nashrlarida e’lon qilingan maqolalari bore di. Yana bir o’ziga jalb etadigan narsa shundan iboratki, G’afur Gulomning “Turksib yo’llarida” she’rini L.Hyuz ingliz tiliga tarjima qildi.

30- yillarda yaratilgan barcha yozuvchi va shoirlarning asarlarida o’sha davr va xalq hayoti aks ettirilgan. G’.G’ulomning “Turksib yo’llarida” (1930) she’ri ham 30- yillar davrining maxsuli bo’lib, she’rda tuzum xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xalq turmushi o’tmishida faqat och-yalang’ochlikdan, xor-zorlikdan iborat edi, deb qora bo’yoqlarda tasvirlanadi. O’sha davrlarda haqiqiy hayot faqat sotsiolizmdan boshlanadi, degan noto’g’ri tushunchani singdirish uchun shunday qilinadi. G’afur G’ulom ham davr siyosati va talabidan tashqariga chiqqan olmadi. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, Turkiston-Sibir temir yo’li singari davr inshootlari qurilishi o’zbek xalqi hayotida muhim o’rin egalladi. Aynan shu jarayon bunyodkorlik misolida G’afur G’ulom tomonidan badiiy gavdalantirib berildi. Bu yo’l Markaziy Osiyo xalqlari taqdiri uchun ijobiy ahamiyatga ega bo’lganligini ta’kidlash joiz. Bugungi kunda shoir G’.G’ulomning “Turksib yo’llarida” she’riga ham shu nuqtai nazardan baho berilmog’i lozim.

G’afur G’ulomning “Turksib yo’llarida” she’ri shoir zamondoshlarining ham, hozirgi tadqiqotchilarning ham e’tiborini jalb qilib keladi. Bunday e’tiborning asosida albatta she’rdan ko’tarilgan mavzu emas, balki zamon tushunchasini asosiy emotsional mazmun darajasiga ko’targan shoirning badiiy mahorati yotadi. Zamon o’zida o’tmish xotiralarini, asoratlari va yutuqlari mujassam etadi va o’z navbatida o’rnini yangi bir zamonga bo’shatib beradi. G’.G’ulom asarining mazmuni ham mana shu kontrastga qurilgan. Asarning har bir bandi refrenga aylanib qolgan quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Bu yo’llar

Ko’p qadim yo’llardir...

V. Derjavinning ruscha tarjimasida:

Очень стар

Незапамятно стар

Этот путь ...

L.Hyuzning inglizcha tarjimasini:

Very old

Immemorially old

Is this road.

Korinib turganidek, shoir mazkur muqaddimani, ya'ni she'ning ilk misralarini mazmunini va ularning asarda tutgan o`rnini to`liq anglab yetgan va tarjimada aniq bera olgan. Ma'lumki, she'ning har bir bandi keltirilgan misralar bilan boshlanadi va ular asar g`oyasini o`quvchiga yetkazishda o`quvchiga emotsional hissiy zavq berishda alohida o`rin egallaydi. She'r kompozitsion jihatdan ikki qismdan iborat. Asarning birinchi qismida shoir tarix saxifalarini varaqlab, yaqin va uzoq o`tmish tasvirini yaratdi, Sharqu Garbni, shimolu janubni ulagan cheksiz-poyonsiz va kimsasiz yo`ldagi shamolning uvvillashini, dovullar guldirashini, otlarning dupur-dupuri va chang-to`zonini, do`mbiralarning urishi va shamshirlarning jarangini chizadi. Shu yo`llardan turfa toifa insonlar turfa sabablar bilan: kim "non deya", kim "qon deya" kim "qurbon deya" va yana kimlar "nom uchun shon uchun" daydib yuribdilar. Bularning hammasi "faqat bir tushday yo tutun-xayolday kechmishdir".

She'ning ikkinchi qismining ohangi o`zgacha – yuqoridagi "deya" radifidan so`ng "birinchi da'fa", "endi" kabi so`z va birikmalar paydo bo`ladikim bu albatta ko`hna qadim yo`lni yangicha qabul qilishdan darak beradi. Endi bu yo`llar, shu qadim yo`llar yangi, baxtli hayotga boshlaydi, ularning ustidan "ozodlik shamoli esadi".

"Turksib yo`llarida" she'ri uslubi va ohangi jihatidan V.Mayakovskiyning she'rlari tuzilishiga o`xshab ketadi. Biroq G` G`ulomning she'ri – o`ziga xos va o`zbek tili badiiy vositalari yordamida yaratilgan asar. Bundan tashqari "Turksib yo`llarida" she'ri o`zbek she'riyatidagi shoir o`tmishga yuksak balandlikdan, o`z

zamonasi balandligidan nazar solgan dastlabki asar edi . Keyinchalik bu adabiy kashfiyotdan ko`plab shoirlar foydalanishdi .

L.Hyuz tarjimasiga kelsang, asar ingliz tiliga moxirona ag`darilgan, tarjimon asliyatning ruhi va mazmunini tarjimada aniq berishga muvaffaq bo`lgan, zero uning o`zi Turksib bunyod bo`lishining shohidi bo`lgan. Asar G`G`ulomning vosita yordamida ingliz tiliga tarjima qilingan – shoir she`rini L.Hyuzga o`qib bergan, bu esa tarjimonga asar mazmunini ohangini, qofiyasi va, ayniqsa, ruhini to`g`ri anglab yetishda juda qo`l kelgan. Biroq, shunga qaramay she`rning inglizcha tarjimasida u bevosita o`zbek tilida emas, balki rus tili orqali tarjima qilinganligini ishira qiladi . She`rning ruscha va inglizcha muqobillarini solishtirsak, bunga aslo shubha qolmaydi. Bu holatni she`rning birinchi bandidayoq kuzatish mumkin .

Ingliz tilida:

Very old,

Immemorially old

Is this road.

Here Iskander, the bold,

And blood – thirty Chengiz,

And Chu Chin, tiger souled,

And Timur, -

All have come like a flood,

Widely lusting for blood.

Like a tempest they sped,

Sabres raised overhead,

Laying waste

All the lands by their warfare anthralled.

Keltirilgan misoldan ko`rinib turibdiki, bu misralarning inglizcha muqobili ularning ruschasiga aynan, ya`ni so`zma-so`z mos tushadi . birinchi band tarjimasiga alohida to`xtalish kerak. Bu yerda gap bandning ruscha va inglizcha tarjimalarida “Botu” ismining tushirib qoldirilganligi yoxud

“Jahonning fitihi Iskandar” ruschada “Здесь Руми Искандар”, inglizchada “Here Iskander, the bold” (Mard Iskandar) kabi berilganligi haqida emas, balki rus va amerikalik tarjimonlarning gʻoyaviy yetukliklari va bilimlarining chuqurligi haqida bormoqda.

Gʻ.Gʻulom mazkur sheʼrida moziyga nazar tashlab, endilikda Turksib relslari yotqizilgan oʻlkalar tuzroqlarini son-sanoqsiz lashkarlari toptagan fotihlarning nomlarini keltirat ekan, sohibqiron Amir Temur ismini uning forsiyzabon xalqlar orasida tarqalgan haqoratli “Temurlang” laqabi bilan almashtiradi. Shoir buni oʻsha davrdagi hukmron kommunistik mafkura talablaridan kelib chiqib qoʻllagan. V. Derjavin va L.Hyuz ham aslyat matniga sodiq qolgan holda “Temurlang”ni “Тимур-храмой”, “Тимур аксак” yoxud “Тамбурлаине” va “Тамерлан” shakllarida berishlari mumkin edi. Biroq ular bu yoʻldan borishmaydi. Sheʼrning inglizcha va ruscha muqobillarida Amir Temurning ismi “Тимур” deb beriladi va bu bilan tarjimonlar, shu jumladan, L.Hyuz ham tarixiy haqiqatni tiklashga oʻz hissalarini qoʻshdilar.

L.Hyuz tarjimada oq sheʼr anʼanalarini davom ettirib, aslyat vaznini toʻliq saqlashga erishgan. Inglizcha tarjimasida aslyatdagi deyarli barcha leksik takrorlar qayta yaratilgan. Masalan: “- Qon! – deya, - Qon! – deya ” inglizchada for blood, for blood. “- Non! – deya, - Non! – deya ” leksik takror esa ancha kuchaytirilgan:

Widly crying for bread

Widly crying for bread

Widly – yovvoyi, qoʻpol va crying – qichqirmoq soʻzlari ana shu maqsadga xizmat qilgan. V. Derjavin tarjimasida esa non birinchi oʻringa chiqadi:

Хлеба требуя, хлеба требуя.

Aslyatdagi “ – Qurbon! – deya , - Qurbon! – deya kechmishdir ” leksik birligini L.Hyuz sacrifice va claiming soʻzlari orqali tarjima qiladi: “Claiming sacrifice, claiming sacrifice”.

Ushbu asar ingliz tiliga rus tili vositasida o`girilganligini aytib o`tgan edik. She`r tarjimasining har ikki muqobilida ishlatilgan atoqli otlar ham aynan shundan dalolat beradi . asliyatda keltirilgan ko`plab atoqli otlar, jumladan, shahar va o`lkalar nomlari ruschada qisqartirilgan va o`zgartirilgan. L.Hyuz esa ruscha tarjimadagi nomlarni aynan saqlashga harakat qilgan. Ma`lumki bu asarda G`. G`ulom Turksib temir yo`li ham tarixiy, ham zamonaviy jihatdan nazar solidi va “Pekindan Rungacha, Bo`mbaydan to Maskov”gacha bo`lgan hudud haqida so`z yuritadi.

Ruscha matnda bu hudud (Pekindan Rungacha, Bo`mbaydan to Maskov) sherining birinchi, ya`ni moziyga bag`ishlangan qismida “от Пекина и Ханки до Рума и Киева и от Ганга до камских ворот” deb berilsa, ikkinchi qismida “от далекого Улан-Батора до Москвы и бухарских чинар” deb tarjima qilinadi.

L.Hyuz ham o`z tarjimasida “Pekindan Rungacha, Bo`mbaydan to Maskov” ni emas, ruscha matndagi hududlarni keltiradi va ularni birmuncha kengaytiradi. Birinchi qismda: “From Peking to Kiev, the walled”. Ikkinchi qismda: “To Moscow and Bukhara’s planes Into pastures and meadows has turned”. Bu o`zgartirishlar, qisqartma va qo`shimchalar, bir qarashda, arzimastuyulsada, asarning g`oyaviy mazmuniga putur yetkazadi, o`quvchini chalg`itadi va oqibatda uning hissiy ta`sirini susaytiradi.

She`rni tarjima qilishda yo`l qo`yilgan ayrim kamchiliklarga qaramay o`zbek shoiri G`. G`ulom va amerikalik shoir va tarjimon L.Hyuzning ijodiy hamkorligi foydadan xoli bo`lmadi. Aynan mana shu hamkorlik natijasida amerika-o`zbek adabiy aloqalariga asos solindi. Bundan tashqari, L.Hyuz ko`pgina maqolalar yozdi, ular Amerikaning “Theatre Arts Monthly”, “New Massis”, “Harlem Liberator”, “Crisis” va boshqa jurnallarida bosilib chiqdi. Bu maqolalar, asosan, shoirning vataniga qaytganidan so`ng yaratildi.

Publisist qachonlardir podshoh tuzumi zulmi ostida bo`lgan xalqlar yutuqlari haqida hikoya qilib, Markaziy Osiyo respublikalari muvaffaqiyatlarini

maqtab, o'z maqolalarida siyosiy keskinlik ruhini kuchaytirdi va shu tariqa ularning dolzarbligini oshirdi.

U o'zining "Moskva va men" ("Moscow and I" 1933), "Oqlar va qizillar" ("White and Red" 1933) maqolalarida L.Hyuz chuqur mamnuniyat bilan Markaziy Osiyoda hamma ko'rganlari, qadimiy Samarqand va Buxoro shaharlarining tiklanishi, turmushdagi yangi munosabatlar to'g'risida, savodsizlikni tugatish va asrlar davomida yashab kelgan odatlar (ko'p xotinlik) haqida yozdi. She'rlarining O'zbekistonda bosib chiqarilishi to'g'risida gapirib, L.Hyuz shunday deb yozadi: "O'zbek tilida, ko'pchilik amerikaliklar, hatto, eshitmagan millat tilida bosib chiqarilgan she'rlarim uchun shuncha haq to'lashdiki, men bir necha yil kamchiliksiz, yashashimga yetadi. Bu mening she'rlarimga o'z vatanimda berilishi mumkin bo'lganidan ancha ko'p"¹. Lekin L.Hyuzni kata haq to'laganidan ko'ra ham ko'proq uning she'riy kitoblarini Samarqand va Buxoro, Qo'qon va Farg'onada o'qishlari quvontirdi. Shoirning she'riy to'plamini u O'zbekistonga kelishidan avval, ajoyib o'zbek tarjimoni Sanjar Siddiq o'zbekchaga o'girib, chop ettirdi.

30-yillarda tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasida Sanjar Siddiq samarali mehnat qilgan. Ustoz tarjimashunos G'aybulla Salomov ta'kidlaganidek, Sanjar Siddiq tarjimashunoslik va tarjima sohasida o'z davridan ancha ilgari ketgan edi va shuningdek S.Siddiq ijodining ilk tadqiqotchisi, shoir Otayor Nahanovning yozishcha (Guliston, 1977 yil, 7-son) u rus, ingliz, fors tillarini puxta o'rgangan.

Tarjimon Sanjar Siddiqning L.Hyuz ijodidan tarjimalari amerikalik olimlarning ham diqqatini jalb etmoqda. L.Hyuzning asarlarini tadqiq etayotgan amerikalik adabiyotshunos David Chioni Mor o'zining "Jahon adabiyoti" jurnali tahririyatiga yozgan xatlaridan birida (2000 yil, 13 sentyabr) L.Hyuzning O'rta Osiyo haqidagi asarlarining o'zbekcha tarjimalari uning ayrim she'rlarini qayta tiklashga xizmat qilishi mumkinligini yozadi. Uning fikricha, shoirning she'rlaridan ba'zilari u 1933 yili O'zbekistonga qilgan safari paytida yozilgan.

¹ "New Massis", - N.Y., 1934, August.

Ular o`zbek tiliga tarjima qilingan, ammo ingliz tilida chop etilmay qolib ketgan. Hozirda o`sha inglizcha matn saqlanib qolmagan. Ularning o`zbek tilidagi tarjimalarini yana ingliz tiliga o`girib, o`quvchilarni ularning mazmuni bilan tanishtirish mumkin. Taniqli shoir asarlarini bu yo`l bilan tiklash amerika adabiyoti uchun muhim voqea bo`lar edi, deb ta`kidlaydi xorijlik adabiyotshunos. sanjar Siddiqning mehnati tufayli amerikalik shoir asarlarining qayta dunyoga kelishi juda nodir hol bo`lib, o`zbek-amerika adabiy aloqalarini yana bir pog`ona ko`taradi.

L.Hyuz ijodidan kelib chiqib aytish mumkinki, Sanjar Siddiq tarjimalarida muallif uslubi saqlab qolingani, ular asliyatga mutanosib tarzda o`girilgan. Boshqa ko`pgina tarjimonlardan farqli o`laroq, u tarjimaga ortiqcha sayqal berishga, uni o`zgartirib tashlashga harakat qilmaydi. Uning tarjimalarida muallif asliyat uslubida gapiradi . Bu xususiyat shoir tarjimalari uchun alohida ahamiyatga ega .

Tarjimon Sanjar Siddiq tarjimalarining yuqori saviyada ekanligi 30-yillar o`zbek adabiy muhiti, shu qatorda tarjimomlikni ham yuqori saviyali va salohiyatidan dalolar beradi¹. “Osiyodagi oq oltin” (“White gold in Soviet Asia” 1934)² maqolasida L.Hyuz Turkmaniston va O`zbekiston paxtachilik jamoalarida bo`lishi paytidagi o`z taasurotlari haqida yozadi. Amerikaning janubiy Alabama, Missisipi, Jorjiya shtatlaridagi paxta plantatsiyalaridagi insonlar mehnatiga taalluqli ma`lumotlar keltiradi . Uning nazarida o`zbek va turkman paxtakorlarining yangi jamiyatdagi mehnatlari janubdagilar mehnatidan tubdan farq qiladi . L.Hyuzning yana bir maqolasi Nyu-Yorkning “Theatre Arts monthly”³ jurnalida bosilib, u O`zbekiston milliy san`atiga, milliy opera, teatr, xalq ansambllari yuzga kelishi, ularning Tamaraxonim, usta Alisher Komilov va Ahmadjon aka Usmonzoda kabi vakillarini ta`riflashga ba`g`ishlangan. O`zbekistonga kelganida L.Hyuz Toshkentdagi O`zbekiston musiqali teatrida

¹ Sanjar Siddiqqa bag`ishlangan quyidagi maqolalarga qarang: Ahmedov S. Xalqi uchun yongan (Sanjar Siddiq hayotiga bir nazar) // Guliston, 1990, №1, 8-9-betlar; Baqoyeva M. Merosimiz qadriga yetaylik // Muloqot, 2000, №6, 26-27-betlar.

² New Massis. – N.Y., 1934, August.

³ Theatre Arts monthly. – N.Y., 1934, November.

bo`lib “Farxod va Shirin” operasini tomosha qiladi . Yozuvchi tilini tushunmasa ham, operani juda yaxshi tushunadi, his etadi, opera “haqiqiy mahorat bilan qo`yilgan juda ajoyib sahna edi”¹, - deb baholaydi.

Ijodkor, bir tomondan, mehnatkash dehqonlar, ikkinchi tomondan eskirgan an`analar va mahalliy boylar o`rtasidagi qarama-qarshilik asosida yangi haqiqatga bag`ishlangan ko`pgina pyesalar yaratilishi haqida eslab o`tadi. U “Farxod va Shirin” operasini batafsil ta`riflaydi. Maqolada Tamaraxonim shaxsi va ijodiga kata e`tibor qaratiladi, uning iste`dodi amerikalik yozuvchida zavq uyg`otadi. L.Hyuz iste`dodli raqqosa va qo`shiqchi Tamaraxonimni birinchi marta “Farxod va Shirin ” operasida ko`rdi. Keyinchalik u aktrisa bilan bir necha bor uchrashdi. Uning tarjimai holidan xabar topdi. Uyida mexmon bo`ldi va oilasi bilan tanishdi. Tamaraxonimni 1925 yili Parijda bo`lishi², parijliklarning o`zbek qo`shiqchisi va raqqosasi san`atidan hayratlanganini yozadi. “Tamaraxonim misolida, san`t ham hayotni o`zgartiruvchi va yaxshilashga olib keluvchi ijtimoiy kuch ekanligiga ishonasan, bu haqiqatan ham, shunday”³, - deydi L.Hyuz. U asarlari orqali amerikaliklar ko`pgina o`zbek milliy cholg`u asboblari: doira, karnay, nay kabilar haqida qiziqarli ma`lumotlar oldilar. Kata qiziqish va bilimdonlik bilan L.Hyuz o`zbek xalq raqslari haqida gapirib, shu bilan birga, ularning folklore an`analari bilan aloqasini ta`kidlab ko`rsatdi.

L.Hyuz ko`pgina o`zbek hikoya va qissalarini to`plab, ularni o`zbek yozuvchilaridan birining yordamida amerika matbuoti uchun ingliz tiliga tarjima qilgan. U yozuvchining ismini aytib o`tmagan bo`lsa ham, bizning fikrimizcha, bu yozuvchi – G`afur G`ulom bo`lishi kerak edi.

Jon Rid, Dos Passos, Sinkler Lyuis va boshqa amerikalik yozuvchilarning nomlari o`zbek o`quvchilari orasida mashhur ekanligi L.Hyuzni quvontiradi. Yozuvchi Markaziy Osiyoda bo`lganida o`zbek va Turkman nashrlarida o`z

¹ Hughes L. Tamara Khanum. Soviet Asia's Greatest Dancer, Theatre Arts Monthly. – N.Y., November, 1934, p. 829.

² Tamaraxonim 1925 yili san`at bo`yicha jahon festivalida ishtirok etish uchun sobiq ittifoq hukumati tomonidan Parijga yuboriladi.

³ Hughes L. Tamara Khanum. Theatre Arts Monthly. – N.Y., November, 1934, p. 831

maqolalarini bosib chiqaradi. O`z navbatida, L.Hyuz she`rlari, eslatib o`tganimizdek, S. Siddiq tarjimasida o`zbek tilida, 1934 yili bosib chiqariladi¹. Publisistning ocherklar kitobi Markaziy Osiyo mavzuiga bag`ishlangan. Kitobga “O`zbek raqsi va musiqasi” (“Dance and music of Uzbek people”, 1934) va “Yangi xalq” (“New people”, 1934) degan boblari alohida qiziqish uyg`otadi. L.Hyuz Samarqand va Buxoro shaharlarida kasaba uyushmasi tashkilotlari shahar ijroiya qo`mitasi bilan birgalikda Aqshdan kelgan negrlar guruhi uchun maxsus folklore musiqa va raqs konserti tashkil etganliklari haqida gapiradi. U safari chog`ida F. Xo`jayev bilan uchrashdi. Shuni eslatib o`tish kerakki, F. Xo`jayev o`zining jahon adabiyoti va chet tillardan boxabarligi, bilimdonligi bilan yozuvchini lol qoldirdi. U bu shaxs misolida yetuk xalq rahbarini ko`rdi.

Ijodkor ayollarning jamiyatdagi o`rniga kata e`tibor berdi. Bunda, adibning fikricha, joylardagi ayollar klublarining xizmati kata bo`ldi. “Yevropa yigit-qizlari va O`zbekiston yigit-qizlarining ijtimoiy faolligini hech qachon tenglashtirib bo`lmaydi”², - deb yozadi. “O`zbekiston yoshlari dunyo siyosati haqida mendan ham yaxshi bilishadi. O`zbek bolalarining urush va jahon inqilobi kabi muhim voqealar haqida ishonch bilan o`z fikrlarini bayon etishlari meni lol qoldirdi, bular haqida Nyu-Yorklik bola hech qachon o`spirinlik davrigacha eshitmagan”³. Safr vaqtida L.Hyuz Buxoro shaxri hokimiyat rahbari Qurbonov bilan tanishadi . Qurbonov bilan bo`lgan suhbatda yozuvchi Markaziy Osiyoning ko`pgina shahrlarida raxbarlar mahalliy millat vakillari ekenini bilib oladi. “Amir davrida, - deb hikoya qiladi Qurbonov, - hayot boshqacha kechad edi, hozir esa hammasi o`zgargan, boshqa xalqlar: ruslar, tojiklar, qozoqlar va boshqalar bilan birga yashaymiz va ishlaymiz. Ilgari boshqa millatlar bilan nikohlar yo`q edi, ammo hozirgi vaqtda – bu odatiy hol”⁴.

Yozuvchi Toshkentda yashaydigan rossiyalik ayol bilan suhbatlashadi va u L.Hyuzga ko`p sonli kitoblar lotin alifbosida, o`zbek tilida bosib chiqarilgan

¹ Hjus L. Langston Hjuys sherlari inglizchadan tarjima S.Siddiq. – T. –S.: Osnashr, 1934.

² Hugles L.A Negro Looks at Soviet Central Asia. – M. – L., 1934.

³ Hugles L.A Negro Looks at Soviet Central Asia. – M. – L., 1934.

⁴ The same source. P. 79.

va o`zbek o`quvchilarining soni tez sur`atlar bilan oshib borayotgani haqida faxr bilan gapirib beradi. Amerikalik negrlar guruhi va O`zbekiston vakillari o`rtasidagi fikrlashish jarayonida L.Hyuz va uning yurtdoshlari o`zbek ishchilarining hayot sharoiti amerikaliklarnikidan ancha yaxshi degan xulosaga keladilar.

Maqolalarida ijodkor mahalliy millatlar, asosan, o`zbeklar va turkmanlar hayoti masalalarini ko`rib chiqadi, ularning amirlik qulagandan so`zng tubdan o`zgargan edi. L.Hyuz ajoyib amerikalik jurnalist Linkoln Steffensning mashhur mulohazalarini keltiradi: “Men kelajakni ko`rdim va u keldi”.

L.Hyuz sog`liqni saqlash sohasi haqida gapirib, Ozbekiston hukumati eng chekka turar joylardagi aholi haqida ham g`amxo`rlik qilishini, bepul tibbiy xizmat joriy qilinganligini ta`kidlaydi. Bunga u shaxsan ishonch hosil qildi. U Toshkentda bo`lganida brtob bo`lib qoldi va yozuvchilar uyushmasining mehmoni sifatida berilgan guvohnomasini ko`rsatganida unga toshkentlik shifokorlar bepul tibbiy yordam ko`rsatishadi va adib bundan juda ta`sirlanib ketadi. Gospitalda L.Hyuz yevropaliklar va o`zbeklar birga davolanishlarining guvohi bo`ldi. U amerikalik o`quvchilarga o`zbek yozuvchi hamkasblari bilan birga Chirchiq qurilishida bo`lganliklari to`g`risida ham hikoya qilib beradi. Uning o`n olti-o`n yeti yoshli Tog`ayev familiyali o`zbek yigiti bilan uchrashuvi ta`sirli voqea bo`ldi. Oddiy ishchi, rasmiy shaxs bo`lmasa ham, yozuvchiga yotoqlarini ko`rsatib, qurilish bo`yicha yo`l ko`rsatuvchilik qildi. L.Hyuz u bilan juda oz vaqt birga bo`ldi, lekin bu ochiq, sodda, yoqimtoy yigit uning xotirasidan o`rin oldi.

Hyuzning yuqorida ko`rib chiqilgan ocherk va esselarini ishonch bilan Markaziy Osiyo haqidagi hujjatli publitistika sirasiga kiritish mumkin. “Kezgan sari hayratlanaman” kitobi endi hujjatli publitistika doirasidan chiqib, aslida, publitistika va badiiy nasrning sintezi kabi edi. Yozuvchi oddiy yuzaki tasvirlashni umumlashtirishga o`tadi, bu ma`lumotlarning keyinchalik chuqur ma`nosini anglash, yozuvchining mahorati o`shishiga guvohlik qiladi. Kitobning

kattagina qismi “Janubga, Samarqand – O`zbekistonga” deb nomlanadi. Bu hajmi bo`yicha boblarning eng kattasi edi.

Amerika delegatsiyasining Toshkentga kelishi haqida ocherk juda qiziqarli edi. Bu yerda uni Garvard universitetini tamomlagan, O`zbekistonda yo`l qurilishida ishtirok etayotgan Bernard Pauer kutib olishi juda hayron qoldirdi. Delegatsiya xotin-qizlar klubi mehmoni bo`lib, O`zbekiston rahbarlari tomonidan qabul qilindi. “Ulug`vor Buxoro” ocherkidan kitobxon L.Hyuzning keksa o`zbek Xo`ja Mir Bobo bilan tanishib, olib borgan suhbatidan xabardor bo`ladi.

O`zbekistonda bo`lar ekan L.Hyuz faqatgina yozuvchilik bilan cheklanmadi. U Hayotni sotsiolog tadqiqotchi sifatida o`rgandi, yirik qurilishlarga bordi, O`zbekistonning qadimiy madaniyati va me`morchiligi bilan tanishdi. U yon daftarchasini diagramma, sxema va raqamlar bilan to`ldirib bordi. Bu Markaziy Osiyo, xususan, O`zbekistonimiz haqida badiiy tadqiqotlar kitobi edi, deyish mumkin.

Ko`pgina afro-amerikaliklar singari, Xyuzning ham oilasi metistlardan hisoblangan. Xyuzning ikkala buvisi ham afrikalik qul bo`lgan, ikkala bobosi ham Kentukkida oq tanli quldorlar edi. Xyuzning so`zlariga ko`ra, ulardan biri Genri okrugidagi shotland-amerikalik viski distillovchisi Sem Kley bo`lib, davlat arbobi Genri Kleyning qarindoshi bo`lgan. Xyuz tilga olgan yana bir taxminiy ajdodi Silas Kushenberri, Klark okrugidagi qulfurush edi. Xyuz Kushenberri yahudiy qulfurush bo`lganini yozgan, ammo XIX asrda Kushenberri oilasining genetikasini o`rganish natijasida uning yahudiylarga aloqasi yo`qligi aniqlagan. Xyuzning ona tomonda buvisi Meri Patterson afro-amerikalik, fransuz, ingliz va asl amerikalik nasablariga mansub edi. Oberlin kollejida o`qigan birinchi ayollardan hisoblangan buvisi Lyuis Sheridan Liri ismli xuddi o`zi kabi aralash nasabli kishiga turmushga chiqadi ammo birinchi turmush o`rtog`i 1859-yilda G`arbiy Virjiniyada dahshtali darajada yaralanadi.

O‘n yildan so‘ng, 1869-yilda beva Meri Patterson Liri yana elita, siyosiy faol Langston oilasiga turmushga chiqdi. Uning ikkinchi eri afro-amerikalik, yevroamerikalik va toza amerikalik nasablariga ega bo‘lgan Charlz Genri Lengston edi. U va ukasi Jon Merser Langston abolitsionizm harakati jonkuyarlari bo‘lgan va 1858-yilda Ogayo shtatidagi qullikka qarshi jamiyat boshqaruviga yordam berishgan.

Turmush qurishganidan so‘ng Charlz Langston oilasi bilan Kanzasga ko‘chib o‘tdi, u yerda muallim va afro-amerikaliklar huquqlarini himoya qiluvchi jamoat arbobi sifatida faol ishladi. Uning va Merining qizi Karolin (Kerri nomi bilan tanilgan) o‘qituvchilik kasbini tanladi va Jeyms Nataniel Xyuzga (1871—1934) turmushga chiqdi. Ularning ikki farzandi bo‘lib, Lengston Xyuz kenjasi edi; (garchi Xyuzning o‘zi tarjimai holida 1902-yilda tug‘ilganligini da’vo qilsa-da) aksariyat manbalarga ko‘ra u 1901-yilda Missuri shtatining Joplin shahrida tug‘ilgan degan ma’lumot uchraydi.

Langston Xyuzning bolaligi O‘rta G‘arbning bir qator shaharchalarida o‘tgan. Xyuz tug‘ilganidan ko‘p o‘tmay otasi oilani tark etadi va Kerri bilan ajrashdi. Katta Xyuz AQShda davom etayotgan irqchilikdan qochish uchun Kubaga, keyin esa Meksikaga sayohat qildi.

Ajrimdan so‘ng Xyuzning onasi ish izlab yurdi. Lengston asosan Kanzas shtatining Lourens shahrida ona buvisi Meri Patterson Langston qo‘lida tarbiyalandi. Qora tanli amerikaliklarning og‘zaki an‘analari va o‘zi mansub avlodining faol tajribasidan foydalangan holda, Meri Lengston nabirasiga butun umr irqidan g‘ururlanish tuyg‘usini singirdi. Buvisidan rqdoshlariga ko‘makchi bo‘lishni o‘rgangan Xyuz butun umri davomida qarovsiz va ezilgan qora tanlilar bilan tanishdi, o‘z asarlarida ularni ulug‘ladi. U bolaligining ko‘p qismini Lourensdan o‘tkazdi. 1940-yilgi "The Big Sea" (Katta dengiz) avtobiografiyasida u shunday deb yozgan edi: „Buvim bilan uzoq vaqt yolg‘iz va o‘yin-kulgisiz hayot kechirdim. Keyin hayotimga kitoblar kirib keldi, kitoblar va ularda tasvirlangan ajoyib dunyodan boshqa hech narsaga ishonmaydigan bo‘ldim —

unda odamlar azob cheksa ham, Kansasdagi kabi qisqa soʻzlar bilan emas, goʻzal tilda azob chekishardi.

Buvisining vafotidan keyin Xyuz ikki yil davomida oilaviy qarindoshlari Jeyms va xolasi Meri Rid bilan yashaydi. Keyinchalik Xyuz yana onasi Kerri bilan Illinoys shtatining Linkoln shahrida yashashni boshlaydi. Chunki onasi u oʻsmirlik chogʻida qayta turmushga chiqqan edi. Oila Ogayo shtatining Klivlend shahridagi Fairfaks mahallasiga koʻchib oʻtadi, Xyuz shu Markaziy oʻrta maktabda oʻqiydi va ustoz Helen Mariya Chesnuttdan bilim oldi.

3.2. H. Lemb ijodida Oʻzbekiston mavzusining yoritilishi

Oʻtgan asrning 30- yillarida adabiyot maydoniga ajoyib amerikalik yozuvchi Herold Lemb koʻzga tashlandi . U oʻz qalamkash doʻstlaridan farqli oʻlaroq, Sharq Uygʻonish davrining ulugʻ siymolari haqida badiiy asarlar yaratdi. Biroq bu mahoratli yozuvchining hayoti va ijodi shoʻro zamonida Oʻzbekistonda, umuman, sobiq ittifoqda ham kam oʻrganilgan.

Ijodkor Nyu-Jersida tavallud topgan, Kolumbiya universitetining sharqshunoslik fakultetini tamomlagan, arab va fors tillarini juda yaxshi oʻrgangan. Aqsh armiyasida xizmat qilgan . Ikkinchi jahon urushi davrida arab davrlari va boshqa Sharq mamlakatlarida alohida vazifalarni bajardi, bu ishlari uchun kopʻlab orden va medallar bilan mukofotlandi. Oʻz hayotining yetuklik davrini u Osiyo, Rossiya va Yaqin Sharq madaniyati tarixini oʻrganishga bagʻishladi. Uni Sharq tarixi va madaniyatiga oid IX-XV asrlardagi Uygʻonish davri qiziqtirar edi. Biz “Sharq Renessansi” haqida gapirar ekanmiz, albatta, bu “Yevropa Renessansi”dan farq qilishini esda tutishimiz shart. Sharqda antik madaniyat vujudga kelishi davri, buyuk geogrfik kashfiyotlar davri rivojlanishi va bir qator boshqa tarixiy hodisalar yuz bermagan. Ammo dunyo savdosining rivoji (Buyuk Ipak Yoʻli), markazlashgan davlatlar tashkil topishi, ilm-fanning ravnaq toipishi, islom didnida turli oqimlarning yuzaga kelishi, falsafa, matematika, astronomiya, tibbiyot, adabiyot va madaniyatlarning rivojlanishi, gullab-yashnashini aytib oʻtish juda muhim. Sharq jahon taraqqiyoti uchun

buyuk insonparvarlarni yetishtirib berdi: Rudakiy, Firdavsiy, Farobiy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Temur, Ulug`bek, Navoiy, Bobur va boshqalar shular jumlasidan. H. Lemb Sharq tarqqiyotining aynan ana shu davrini o`z ijodining muhim qirrasini deb bildi.

Ijodkor adabiyotdagi faoliyatini “Nyu-York Times ” gazetasidan boshladi. H. Lemb jurnalistikada kata yutuqlarga erishdi. Jurnalning bosh muharriri Artur Hofman bo`ljak yozuvchiga o`z xohishiga qarab tanlagan mavzui bo`yicha maqolalar yozishga ruxsat berdi . Jurnalning 1928-yilda Nyu-Yorkda nashr qilingan “Jahonni titratgan Temur” romanini alohida ta`kidlaymiz . Adib XX asrning boshida Amerika adabiyotida birinchi marta , haqiqiy , hayotiy , barcha yutuqlari va kamchiliklari to`laqonligicha aks ettirilgan – buyuk Sohibqiron obrazini yaratdi. H. Lemb yaratgan Temur obrazi o`quvchi oldida birinchi navbatda o`z farzandlari va nevaralarida yaxshi harbiy ta`lim bergan mehribon inson sifatida gavdalantirilgan . Sohibqiron O`lmas g`oyalari avvalo uning buyuk “me`mor” ekanligida, uning g`oyalari avtor iborasi bilan aytganda “toshlarda bitilgan dostonligi” asar sahifalarida hayotiy yoritilgan . Amir Temur yaratgan bog`u-rog`lar adibni g`oyat hayratlantiradi . Amerikalik adiblar orasida H. Lemb birinchi bo`lib Markaziy Osiyoni tushunib bo`lmas hudud yoki Sharq tarixining “qorong`i” sahifasi sifatida emas, balki faktlarga asoslangan holda jahon madaniyati, fani, tarixi va adabiyotshunosligida buyuk allomalarni, faylasuflarni, shoir va yozuvchilarni hamda fan arboblarni yetishtirgan mashhur Sharq Uyg`onish davri sivilizatsiyasi mamlakati sifatida qaraydi. Sohibqironning butun jahon madaniy merosiga qo`shgan hissasi qanchalik ulug`vorligini ta`kidlab, adib Sharq “Uyg`onish” davrida Temurga o`xshagan buyuk shaxslarning paydo bo`lishi bu tarixiy zarurat degan xulosaga keladi . Avvagi zamonlardan o`zbek mumtoz adiblari G`arb kitobxonlari va ziyolilarining obro`-e`tibori, hurmatiga sazovor bo`lgan . Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlar o`zbek mumtoz adabiyotini butun dunyo miqiyosidagi durdonalar darajasiga ko`tarib jahon adabiyotining yetuk namoyandalari bo`lib qoldi. XVII asrdan beri Bobur asarlari bir necha bor

ko`pgina Yevropa tillarida bir necha bor qayta nasht etildi . Bular haqida juda ko`p yozilgan . Biz uchun XX asr muhim . Chunki bu davrda Bobur asarlari tarjimasi orqali Amerika qit`sigga borib yetdi . Maqola va taqrizlar bilan bir qatorda Aqshda yozuvchining “Bobur – Yo`lbars” nomli asari yaratildi. Kitob 1961-yili Nyu-Yorkdan bosmadan chiqdi .

H. Lembning tarixiy esse va maqolalari bevosita ijodiy syohat va o`rganishlar asosida yaratildi . U Marko Polo, Chingizxon, Iskandar Zuqarnayn, Amir Temur, Umar Xayyom va Boburning shaxsi v faoliyatini chuqurroq o`rganish maqsadida ko`p yerlarda sayohatda bo`ldi. Yozuvchi qaysi xalq haqida yozsa, osha xalqning adabiyoti, og`zaki ijodi va an`analarini sinchiklab o`rganib so`ng Uyg`onish davri milliy xususiyatlari haqida so`zladi.

Yozuvchining asarlarini Aqshda keng tarqalgan badiiylashtirilgan avtobiografik janr uslubiga qo`shish mumkin . Ulardan badiiy va biografik bayon etish turlarining barchasidan biografik romanlar ko`proq ahamiyatli hisoblanadi. Qanday janr bo`lishi mumkin ? Fikrimizcha, bu savolga javob toppish uchun mazkur janrning nafaqat mashhur ustasi, balki nazariy asoschisi bo`lgan A.Moruaga mujojaat etish lozim . U Kembridj universitetida qilgan ma`ruzalarida biografik romanlarni alohida mustaqil, ocherk kabi san`at va fanga taalluqli, janr deb hisoblaydi¹.

Badiiy tarjimai holda yetarli darajada taniqli bo`lgan muayyan tarixiy shaxsning turli jihatlari tasvirlanadi . Bu tasvirlar doimo ilmiy asosda berilishi lozim . Shu tariqa bu badiiy biografi roman janrining asosiy mezoniga aylanadi . Bunday romanlarda, odatda, qahramon hayoti yoritiladi . Badiiy biografik romanlarda hayotning tarixiy arbob xarakteri orqali ifodalanishi talab etiladi . Boshqa barcha badiiy asarlardagide, biografik badiiy romanlar kitobxonga jamiyatning ijtimoiy tabiatini anglashni, g`oyaviy-axloqiy mavzularni, insoniyatni u yoki bu vaqtlarda to`lqinlantirgan voqealarni tushunishga yordam beradi .

¹ Могуа А. Современная биография // Прометей, 1968, №5, 396-бет.

U o`zining ilmiy-ma'rifiy ahamiyatini saqlagan holda biografik badiiy janr qahramonlar axloqiy xususiyatlarining ochilishiga yo`naltirilgan bo`ladi . Ularning hatti-harakatlariga, axloqiy me'yorlariga baho berishda yozuvchi, haqqoniy va adolatli nuqtai nazarda bo`lishi kerak . Shuning uchun ham ijodkorning g`oyaviy-axloqiy joylashishi kata ahamiyatga ega . Tarixiy shaxsning badiiy obrazini yaratishda badiiy-biografik asar muallifi oldida juda kata va mas'uliyatli vazifa turadi. "Ikki yo`l chorrahasida, ya'ni psixologik roman va tarixiy tadqiqot munosabatida adbiy janr-biografik romanlar vujudga keladi . Bunda muallif uchun bosh muammo – badiiy usullarga ilmiy yondashuvning, san'atning "kamalakdek yengil" ravishda bir-biriga hamohanglashib ketishidan iborat" ¹. Yozuvchining iste'dodi shunda namoyon bo`ladi . H. Lembning ijodi bilan biografik janr ustasi Irving Stoun kitoblari o`rtasida hamohanglik bor. I.Stounning keng tarqalgan Mikelanjelo haqidagi mashhur "Mashaqqatlar va quvonchlar", J.London haqidagi "Egardagi dengizchi", V.Van-Gok haqidagi "Hayotga chanqoqlik", Ch.Darvin haqidagi "Ibtido" romanlari va boshqa ko`pgina kitoblarini eslaylik . Yozuvchining "Chingizxon" ("Chengis khan", 1972), 1930-yili Villiam Sijil Illyustratsiyasi bilan bosilib chiqqan "Chingizxon o`gillari" ("The boys Chengis khan"), "Dunyoni larzaga keltirgan Temur" ("Tamerlan, the Earth Shaker", 1928), "Salibchilar" ("The Crusades", 1930), "Temir insonlar va avliyolar" ("Iron Men and Saints", 1930), "Islom alangasi" ("The Flame of Islam", 1931), "Umar hayyom" ("Omar Khayyam", 1934), "Hayot" ("A Life", 1934) kabi asarlari buni isbotlaydi. Bu kitoblar 1978 yili "Pinikl Buks " nashriyotida qayta bosib chiqarildi. "Fors jilolari" ("Persian mosaic", 1943) nomli ikkinchi kitobi Sharq uslubida yozilgan . U ulug` Umar Hayyom hayoti tasviriga bag`ishlangan va 1943-yili "Xeyl" nashriyotida chop ettirildi . Asar keng kitobxonlar ommasi tanqidchilar orasida katta qiziqish uyg`otdi . Bu Sharqqa, ayniqsa Umar Hayyomga bo`lgan qiziqish haqida guvohlik qilar edi .

¹ Narkiryer F. Книга о титане. – Кишинёв, 1980, 6-bet.

Alohida ta'kidlash muhimki, 1951- yili yozuvchi katta imperiya tashkil etgan Ulug` Sulaymonga bag`ishlangan romanini nshrdan chiqardi . U hukmdorligi davrida Usmoniyar imperiyasi o`zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy qudratining cho`qqisiga chiqqan va u Uyg`onish davrining yorqin vakili deb hisoblangan.

Tilga olingan asarlar bir necha bor qayta nashr etilgan va ular asosida filmlar suratga olingan . H. Lembning asarlari Gollivud uchun bebaho mavzu bo`lib, Sharqqa bag`ishlangan asosiy romanlarining deyarli hammasi ekranlashtirilgan . “Bobur – Yo`lbars” romani rus tiliga tarjima etilib 1979-yili “Zvezda Vostoka” jurnalida bosib chiqarildi .

H. Lembning Bobur haqidagi asari biz uchun katta ahamiyatga ega . Chunki bu roman orqali birinchi marta jahon adabiyotida shoir va jangchi, farzandlarga mehribon ota, ajoyib fazilatlariga ega chin inson obrazini ko`rsatishga urinish ko`zga tashlangan .

Bobur haqidagi bu kitob kirish va sakkiz bobdan iborat . Asarni yaratish jarayonida H. Lemb Toshkentda bo`lib ko`zga ko`ringan sharqshunos olimlar bilan suhbatlashdi, akademik V.V.Bartold, prof. S. Azimjonova va boshqa sharqshunos olimlar ishlarini o`rgandi . Kitobning tuzilishi, boblarga bo`linishi “Boburnoma”dagi tartibni eslatadi . Muallif Bobur asariga to`la suyangan, unda juda ko`p ayrim o`rinlarda bir necha varaqlab parchalarni aynan keltirib, keyin voqeaning davomini sharhlab bergan . Bu keltirilgan parchalarni, “Boburnoma”ning o`zbek tilidagi asl nusxasiga solishtirganimizda ular ingliz tiliga, asosan, to`g`ri tarjima qilinganligi aniqlandi.

Asar Boburning Shayboniyxon bilan kurashi va chekinishi haqida hikoya bilan boshlanadi . Boburning Farg`ona vodiysi, Toshkent va Samarqand shaharlari oralig`idagi sargardonliklari Kobulni ishg`ol qilish Hirotga kelib, Shayboniyxonga qarshi lashkar to`plaganligi haqidagi voqealarga batafsil to`xtab o`tilgan . Keyingi boblar Boburning Hindistonni bosib olishi va Buyuk imperiya tashkil etishiga bag`ishlangan .

“Bobur – Yo`lbars” kitobining oxirgi sakkizinchi bobida Hindistonda Ulug` boburiylar saltanatiga asos solinishi Boburning Hindistondagi hayoti jonli lavhalarda chizib berilgan . H. Lemb Bobur Mirzoning mamlakatni boshqarish davridagi ijobiy tomonlarini romanda quyidagi satrlar bilan ifoda etadi:

“With him he brought to India the Timurid devotion to music and verse – and wine . His fondness for building gardens in the most unlikely spots earned him the name of the Gardener King . More than tree-shaded gardens followed him to Agra . Out of white and red stone, palace dwellings, great mosques, and tombs began to rise in the pathway of the moguls . Babur hardly lived to see it, but Samarkand, his lost city, was brought to India”¹.

Mazmuni : “U o`zi bilan Hindistonga timuriylarning kuy va sh`eriyatga va yana ...sharobga bo`lgan qiziqishlarini ham olib keldi . Nobop yerlarda ham bog`-rog`lar barpo etishga intilishi unga “Bog`bon shoh” deb nom berilishiga sababchi bo`ldi . Soya-salqin bog`lar u bilan birga Agragacha cho`zildi . Oq va qizil toshlardan ular qadami yetgan yerda saroylar, buyuk masjidlar, madrasalar qad ko`tardi.

Shunday qilib, Bobur qo`ldan boy bergan sevimli shahri Samarqandni Hindistonga olib keldi”.

Asarning xotimasida yozuvchi Bobur Mirzo amalga oshirgan ishlarga xolis baho beradi .

H. Lemb asarda Bobur obrazini yoritar ekan uning faoliyatini haqqoniy baholashga harakat qiladi:

“The Tiger had torn the map of India apart, across the old mountain barriers, joining Kabul and Kashmir to the Punjab rivers and the Ganges`basin, and ended, in so doing, the feudal hegemonies of the Lodi sultans and Rajput princas, and religious conflict as well . He restored the power of a single monarch, long absent in Indian lands . His dominion had a new outlook, toward the future rather than the past . Local traditions and economies were preserved .

¹ Lamb H. Babur the Tiger: First of the Great Moguls. – N.Y.: Doubleday & Company, Inc. Garden City, 1961, p. 331.

Government, however, came, into the hands of the ministers of the throne . The monarch remained aloof, to judge the conduct of his administrators . His subject could appeal to him as judge against his own government”¹.

Mazmuni: “Yo`lbars Hindiston xaritasini parchalab, nuroniy tog` tizmalari to`siqlarini olib tashladi va Kobul bilan Kashmirni Panjob daryolariga va Gang daryosining quyilishlariga bog`ladi . Shunday qilib, Lo`diy sultonlari, Rajput shahzodalarini feodal gegemonligiga hamda diniy nizolariga barham berdi . Hindiston zaminida ko`p yillardan beri unutilgan yakka hokimlik davlatini qurdi . Buyukligi shundan iboratki, uning nigohi o`tmishga emas balki kelajakka qaratilgan edi . Milliy an`analar va maxalliy iqtisodiyot saqlab qolindi. Shunga qaramasdan hukumat, taxt, vazirliklarning qo`liga o`tdi . Shohning o`zi yagona ma`muriy boshqaruvning hakami bo`lib qoldi . Uning qo`l ostidagilar o`z shikoyatlarini Boburga yetkazar edilar . Xullas, Bobur ham shoh, ham qozi edi”.

Muallif so`nggi so`zida Bobur vafotidan keying ayrim voqealar, uni dafn etish, Bobur maqbarasi, songgi davr Osiyo tarixidagi ayrim o`zgarishlar ustida to`xtagan . Bobur buyuk so`z ustasi sifatida to`g`ri imlo, ravon uslub va talaffuzga katta e`tibor bergan . u soda va tushunarli yozishni tavsiya etgan . Bobur o`g`li Xumoyunni xatida ayrim imloviy xatolar borligi va murakkab uslubda yozgani uchun qattiq tanqid qiladi, maktubni tushunarli, soda va ravon yozsa, o`ziga ham o`quvchiga ham qiyin bo`lmasligini uqtiradi:

“Xatingni xud tashvish bilan o`qisa bo`ladur, vale asru (juda) mutloqdur (chalkash) . Nasriy muammo hech kishi ko`rgan emas . Imlong yomon emas, agarchi xili rost emas...xatingni xud har tavr (ravishda) qilib o`qisa bo`ladur, vale bu mutloq alfoz (so`zlar) ingdin maqsud tamom mafxum (tushunilmoq) bo`lmaydur . Golibo, xat bitirda qohilliging (suslik) ushbu jihatingdur . Takalluf (bezak) qilay dursa, mundin nari be takalluf va ravshan pok alfoz bila biti, ham senga tashvish ozroq bo`lur ham o`quvchiga”². Aynan shu satrlar H. Lembning

¹ Lamb H. Babur the Tiger: First of the Great Moguls. – N.Y.: Doubleday & Company, Inc. Garden City, 1961, p. 330.

² Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1960, 421-bet.

asarida ham takrorlangan¹. Yozuvchi o'zining "Bobur – Yo'lbars" romanini yaratishda "Boburnomaning " A.B.Ilinisliy , S.Azimjonova nashrlari, shuningdek E.Barri, L.Bulvat, I.Prasad va akademik V.V.Bartold asarlaridan unumli foydalanganini qayd etsdi .

Yozuvchi Pokistonga qilgan safarida doktor Aziz Ahmad huzuriga tashrif buyurib Boburning Lahurgacha bo'lgan harbiy marshrutini, shoir to'g'risida ko'p ma'lumolarni qo'lga kiritgan .

H.Lemb 1960 yil yozida Toshkentda, Ozbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida bo'lib, olimlardan Shayboniyxon xarakteri va odatlari, temuriylar davrida Samarqand shahri me'morchiligi va boshqa masalalar bo'yicha yordam olganligini romanda minnatdorchilik bilan eslab o'tadi. Yozuvchining Sharq tarixiga bag'ishlangan romanlari , xususan Amir Temur va Bobur haqidagi asari biz uchun katta ahamiyatga ega . Shuni aytish kerakki, muallifning asarlari sobiq ittifoqda taqiqlangan edi . Ular tarjima qilinmagan va nashr etilmagan .

H. Lembning biografik romanlari adabiyotda yangi sahifalar ochgan ulkan hodisa bo'ldi . Ular Sharqdagi Uyg'onish davri haqida badiiy-tahliliy ma'lumot beradi. Bu davrning noyob shaxslariga bo'lgan qiziqishni qondirish uchun qisman bo'lsa-da, kitobxonga xabar yetkazadi. H. Lemb alohida obrazlar misolida butun dunyoga inson va uning imkoniyatlari haqida o'z hayratini ifodalaydi .

Buyuk Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi romanlar o'z vaqti-soatini kutib turibdi, o'ylaymizki, ularni o'zbek tiliga tarjima qilishga allaqachon kirishish kerak . Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri, ilg'or ijodkorlik yo'li, hamma sohalardagi faoliyatda inson barkamolligi, uning ruhi va his-tuyg'ulari ko'kka ko'tarilishiga imkon berdi . Inson idroki va qo'li orqali yaratgan durdonalar bugungi kunda hammani hayratlantiradi . Buni ajoyib Sharq bilimdoni H. Lemb o'z ijodida juda yaxshi ko'rsatgan .

¹ Lamb H. Babur the Tiger: First of the Great Moguls. – N.Y.: Doubleday & Company, Inc. Garden City, 1961, p. 292.

Harold Lemb ko‘plab avtobiografik asarlarni muallifi hisoblanadi. U uzoq o‘tmishni shunday mohirona tasvirlar ediki kitobhon o‘zini asar ichida yurganday tasavvur qiladi. U 1960 – yilda Xalqaro sharqshunoslar anjumanida ishtirok etdi. Anjumandan so‘ng u Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida tashrif buyurdi. Va shundan so‘ng yozuvchi 1961-yilda “Babur the Tiger”(Bobur Yo‘lbars) asarini New Yorkda nashr qildirdi. Bizning ushbu maqolamiz asarda ifodalangan metaforalarning ayrimlari tahliliga bag‘ishlanadi.

“Tangri taoloning marhamatiga umid bog‘lab ilgari harakatlanar ekan, Bobur mirzoning ko‘nglida uning mamlakati va xalqining taqdiri haqidagi mas‘uliyat unga tinchlik bermasdi”. Ushbu matnni tahlil qilishda badiiy vositalarga e‘tibor qaratamiz, ya‘ni gapda qo‘llangan “bog‘lab” so‘zi o‘z ma‘nosida ishlatilganda, tugunni bog‘lamoq yoki arqonni bog‘lamoq ma‘nosida keladi, lekin asarda keltirilgan yuqoridagi parchada bu so‘z ko‘chma ma‘noda “umid bog‘lab”, ya‘ni umid qilib degan ma‘noda kelyapti va metaforani yuzaga keltiryapti. Yoki ushbu qo‘shma gapimizning ikkinchi qismida o‘ziga xos lingvopragmatikadan foydalanilgan, ya‘ni “ko‘nglida mamlakati va xalqining taqdiri mas‘uliyati tinchlik bermasdi” ifodamizda tarjimon “mas‘uliyat” so‘zini jonlantiryapti va bu orqali kitobxonning diqqatini uslubiy bo‘yoqlar orqali yanada tortishga xizmat qilyapti. Qo‘rquv, qahatlikdan omonlik topdik, Yangi jonu, yangi jahonlik topdik. (Bobur) Bobur yuqorida keltirilgan misralarini izohlab, shunday deydi: “O‘lim vahimasi ko‘ngildan ko‘tarilib, ochlik shiddati eldan daf bo‘ldi. Umr bo‘yi omonlik va arzonchilik qadrini bunchalik bilmagan edik”. “Ko‘ngildan ko‘tarilib” birikmamizdagi “ko‘tarilib” so‘zi o‘z ma‘nosini yo‘qotgan, ya‘ni vahimani ko‘tarib bo‘lmaydi, bunda “endi o‘lim hammaning esidan chiqdi” degan ma‘no bo‘ladi. “Ochlik shiddati daf bo‘ldi” satrlarimizdagi “shiddat” so‘zi holatga nisbatan ishlatilib, uni jonlantirib, ma‘noni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Badiiy til vositalari asar tilini kitobxonga yanada ta’sirli va obrazli qilib yetkazish, qolaversa, nutqning rang-barangligini va hissiyotni oshirishga olib keladi. Yana bir misolni ko‘rsak, “Xon bu gapdan biroz ranjigan bo‘lib, Xoja Abulmakorimni huzuriga chorladi va Bobur mirzoni

sovuqroq qabul qilishgani uchun ranjiganmikan, degan xayolga bordi”. Bu matnda “sovuqroq” so‘zi o‘zining asl ma‘nosi, ya‘ni havoga nisbatan ishlatiladigan “sovuq” o‘rnida emas, balki kishilarning yomon xulq-atvorini, xususiyatini ochib berish uchun ishlatiladigan “yomon”, “bee’tibor”, “xohlamay” ma‘nolarida qo‘llanilgan. Bu ham metafora san‘atining yana bir namunasidir. Keling, buni yanada yaxshiroq tushunish uchun izohli lug‘atga murojaat qilamiz:

Sovuq

1. *ot* Past harorat, past temperatura.

Sovuq oyoqdan urar, Issiq — boshdan. Maqol

◆Toshkentdan kelgan rektor Oyda hayot bormi? degan mavzuda leksiya o‘qib: — Oyda kechasi yuz gradus sovuq, kunduzi yuz gradus issiq bo‘ladi, — degandi.(S. Ahmad, Ufq)

◆Albatta, yo‘l yaxshi bo‘lib, jadalroq yurishsa, sovuq uncha bilinmas, lekin iz tushmagan yo‘ldan yurish mushkul.(O. Yoqubov, Er boshiga ish tushsa)
8. *Ko‘chma ma‘noda*. Ko‘ngilga yoqmaydigan, xush kelmaydigan; qo‘pol, dag‘al. Sovuq hazil. Sovuq javob. Sovuq muomala.

◆[Yigit] Davron tomon yaqinlasharkan, sovuqqina iljaygancha: — Odamni qo‘rqitib yubordingiz, oka, — dedi. (N. Qilichev, Chig‘iriy)

◆Po‘lat u [Husniddin] bilan juda sovuq salomlashdi — ensasi qotib, qo‘lining uchini berdi.(Mirmuhsin, Qahramonnoma) “Bobur mirzoning Xitoyga ketish rejasi havoda muallaq osilib qoldi” kontekstida rejaning amalga oshmaganligini yozuvchi juda chiroyli o‘xshatishlar bilan tavsiflab bergan, o‘z ma‘nosi bo‘yicha olsak, reja hech qachon havoda osilib qolmaydi, u miya va ongning mahsuli hisoblanadi. Mana shunday go‘zal tashbehlari, metaforalari orqali ham tarjimonning qanchalik ustamonligini bilishimiz mumkin. “Havasi kelib, insonga huzur bag‘ishlab, unga ilhom beradigan olovli maydan tatib ko‘rdi” matnida “olovli may” birikmasida metafora ma‘no ko‘chishi mavjud, ya‘ni bu olovdan tayyorlangan may emas, ta‘mi va mazasini olovga o‘xshatgani uchun ushbu usuldan foydalangan. Bundan maqsad, voqea rivojini o‘quvchiga

aniqroq tasavvur qildirishdir. So‘z badiiy adabiyotning eng asosiy quolidir. Mana shu so‘zni qanchalik ta’sirchan qilib yetkazib berish yuqoridagi misollar kabi badiiy tasvir vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunday tasvir vositalari ichida eng keng tarqalgan ko‘chim turi bu, albatta, metaforadir. Metafora, nafaqat, nazmda, balki nasrda ham keng qo‘llaniladi. Umuman olganda, xalqimiz o‘z nutqida metaforadan ko‘p foydalanadi. “Qahraton qish qochoqlarning dovondan o‘tish yo‘lini to‘sib qo‘ydi” matni asl, ya’ni o‘z ma’nosida tasviriy ifodalarsiz qo‘llansa, qishning o‘ta darajada sovuqligi tufayli qochoqlar dovondan o‘ta olishmadi, degan holat vujudga kelardi. “Mana shunday umidsizlik onlarida Boburning qalbida umid uchqunlari paydo bo‘ldi” gapida ham “umidsizlik onlari” va “umid uchqunlari” birikmalarida metafora san’ati mavjud. O‘z ma’nosida olsak, Uchqun “olovdan sachrab turadigan zarracha”. Masalan, tandir og‘zidan uchqunlar sachrardi, ko‘chma ma’noda esa “umid uchqunlari paydo bo‘ldi” ifodasi orqali ozgina bo‘lsada umid borligini aytib o‘tmoqda. Tahlillardan shunisi ayonki, badiiy tasvir vositalari asarga lisoniy joziba va kitobxonga badiiy estetik zavq bag‘ishlaydi.

Insoniyat tarixida hech bir jahongirga halihanuz Amir Temurga ato etilgan muzaffariyat in’omi nasib etmagan. Zero, hech qachon, hech qaerda, hech bir jangu mahorabada mag‘lub bo‘lmagan, bu dunyodan faqat g‘olib ketgan hukmdor tanho Amir Temurdir. Bu g‘olibliklar shunchaki beiz ketgan yohud hoyuhavas yoki mahobat nashidasi ilinjida voqe bo‘lgan muzaffarlik emas, balki aniq va qutlug‘ maqsad yo‘lida olib borilgani uchun dunyo taqdiriga daxldor bo‘la olgan g‘olibliklardir. Ayni shu ulkan va beqiyos tarixiy voqealar Osiyo va Yevropadagi mutaraqiy kuchlar tafakkur olamini ham junbushga keltirdi. Shu zayldagi Amir Temur shaxsiga nisbatan katta qiziqish Sharqu G‘arbda u haqida to‘plagan ilmiy-tarixiy asarlar qatori, uning zamonidayok rivoyat va afsonalar, badiiy, tarixiybadiiy va memuar shakldagi (Esdaliklar, Kundaliklar, sayohatnomalar tarzidagi) turli-tuman asarlar paydo bo‘lishiga olib keldiki, bu Amir Temur taxtga o‘tirgandan to hozirgacha bo‘lgan olti asrdan ziyodroq vaqtni o‘z ichiga oladi. Amir Temur siymosining inglizzabon adabiyotda talqin

etilishi haqida batafsil ilmiy asnoda o'rganishdan oldin, dastlab Sohibqiron timsolini, ba'zi bir, bizning fikrimizcha, e'tiborga loyiq tarixiy asarlarda yaratila boshlash jarayonini tahlil etib o'tishni taqozo etadi. Bu savolga jo'yali bir javob berish uchun tarixiy adabiyotga Temur va Temuriylar davriga oid ushbu tarixiy asarlarga murojaat etib, bu manbalarning uslubiy xususiyatlarini inobatga olib ish ko'rishga to'g'ri keladi. Zero, ulardan muayyan darajada badiiylikning primitiv unsurlari mavjudligini unutmash kerak. Tarixiy asarlar deganda, biz, – Edvard Gibonning 1787 yili yozilgan “Rim imperiyasining yakuni va qulash tarixi” (asliyatda: *The History of the Decline and Fall of the Roman Empire*, Vol. VII), 1928 yil Garold Lembning “Amir Temur hukmdor va sarkarda” (asliyatda *Tamerlane, the earth shaker*), Devid Nikolning 1990 yili nashrdan chiqqan “Temur davri” (asliyatda: *The Age of Tamerlane*), Beatris Forbes Mansning “Kembrij stadi in Islamik sivilizeyshn” seriyasida 1999 yilda “Kembrij Yuniversiti Press” nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan “Temurning taxtga o'tirishi va hukmronligi” (asliyatda: “*The rise and rule of Tamerlane*”) asari, 2006 yil De Kapo nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan Jastin Marotstsining “Temur: islom shamshiri, dunyo zabtkori” (asliyatda: *Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World*) deb nomlangan ijod mahsuliga murojaat etishni lozim topdik. Mazkur maqolada biz, faqat, Gerold Lembning “Amir Temur hukmdor va sarkarda” asari haqida to'xtalib o'tamiz. Gerold Albert Lemb (Harold Albert Lamb 1892-1962) – Amerikalik tarixchi olim, ssenarnavis va yozuvchi. U 1892 yil 1 sentyabrda Alpayn, N'yu-Jhersida tug'ilgan. Kolumbiya universitetida tahsil olayotgan davrda Osiyo mamlakatlari va ularning madaniyatiga qiziqish paydo bo'ladi. Yoshlik paytidayoq u yozuvchilik faoliyatini boshladi. Boshida kichik (pulp) jurnallarda keyinchalik nufuzli “Adventure” jurnalida asarlari bosib chiqarildi. 1927 yili Chingizxon hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan kitobi katta muvaffaqiyatga erishdi va shundan keyin umrining oxirigacha ilmiy-ommabop, ko'p sonli biografik va tarixiy kitoblar yozadi. “Adventure” muharriri, Artur Sallivant Hoffman (Arthur Sullivant Hoffman), Lembning yozuvchilik mahoratiga baho berarkan, shunday

deydi: "always the scholar first, the good fictionist second" ya'ni "birinchi navbatda Lemb olim, keyin esa yaxshi yozuvchi". 1928 yil Lemb Amir Temurga bag'ishlangan "Amir Temur hukmdor va sarkarda" (asliyatda Tamerlane, the earth shaker) nomli kitobini yozadi. Mazkur asarining kirish so'zida muallif: "The Attempt Five Hundred And Fifty Years Ago a man tried to make himself master of the world. In everything he undertook he was successful. We call him Tamerlane. In the beginning he was a gentleman of little consequence-master of no more than some cattle and land in that breeding ground of conquerors, Central Asia. Not the son of a king, as Alexander was, or the heir of a chieftain, like Genghis Khan. The victorious Alexander had at the outset his people, the Macedonians, and Genghis Khan had his Mongols. But Tamerlane gathered together a people. One after the other, he overcame the armies of more than half the world. He tore down cities, and rebuilt them in the way he wished. Over his roads the caravan trade of two continents passed. Under his hands he gathered the wealth of empires, and spent it as he fancied. Out of mountain summits he made pleasure palaces-in a month.

More, perhaps, than any human being within a life he attempted "To grasp this sorry Scheme of Things entire... and then, Remould it nearer to the heart's desire." Tamerlane he was, and only as Tamerlane is he known to us to-day". "Besh yarim asr oldin bir odam butun dunyo egasi bo'lishga harakat qildi. U qanday tadbir qilmasin bu ish unga zafar olib kelgan. Biz uni Tamerlan deb ataymiz. Aslida bu shaxs kichik ahamiyatga ega bo'lgan: bir qancha mol va yer egasi – Markaziy Osiyoda yashagan, buyuk fotihlarni etishtirib bergan hudud. U, Aleksandr Makedonskiy kabi, qirol farzandi, yoki Chingizxondek, qudratli qabila sardorining vorisi bo'lmagan. Zafarli Aleksandr yurishlarida o'z xalqi, makedoniyaliklar boshchiligida bo'lgan, Chingizxon o'z navbatida mo'g'ullar ustida turgan. Temur esa atrofiga odamlarni yig'ishga to'g'ri kelgan. Birin-ketin u deyarli dunyoning yarmidan ko'p davlatlarning qo'shinlarini tor mor etdi; shaharlarni vayronaga aylantirib, o'z ra'yiga ko'ra qayta qurgan. Uning nazorati ostida bo'lgan hududlarda ikki qit'a savdo karvonlari o'tgan. Zabt etgan

imperiyalar boyliklarini yiqqan Tamerlan, bularni o‘z xoxishiga binoan sarflagan. U bir oy ichida tog‘ cho‘qqilarida ajoyib qasrlar qurdirishga qodir bo‘lgan”. Lemb o‘z asarining “Shoirilar” qismida Amir Temur siymosining Yevropa adabiyotiga kirib borishi tarixi haqida ham to‘xtalib o‘tgan: “- Amir Temurning kutilmaganda Yevropa chegaralarida paydo bo‘lishi va bu zotning xuddi shu tarzda g‘oyib bo‘lishi ushbu mintaqa shoir va dramaturglarining boy tasavvurlarini qo‘zg‘otdi. Yunon va turklar rivoyatlarining mahsuli sifatida Temur afsonaga aylandi. Biz Temur shaxsiga, dushmani Boyazidga (XVI asrda nemislar Usmonli Sultonni shunday ataganlar) bag‘ishlangan bir necha ilk manbalarni topdik. Zamonaviy tarixda buyuk Tartariya xoni deb e‘tirof etiladi, – kelib chiqishi Gerodot nasli – Skifiya cho‘ponlaridan. Biroq bularning hammasi oxirgi tarix yozmalarida keltirilgan bema‘ni rivoyatlarga teng kelmaydi. Ko‘p yillar mobaynida Yevropa yozuvchilari nazarida Temur faqat turklar nomi, Anatoliyani zabt etishi yoki Misr sultoni ustidan g‘alaba qozongani va Ierusalim hamda Bobilni zabt etish haqidagi sayoz noaniq tasavvurlar bilan bog‘lanib kelgan. Yelizavetta davri dramaturgi Kristofer Marlo ham yuqoridagi ma‘lumotlardan ortig‘ini bilmagan. Temur siymosida Marlo tengsiz kuch-qudrat va sirli Sharqning buyukligini ko‘rardi. Dramaturg bu siymoni fojeaviy shaklda tasvir etib, she‘riy tarzda ilk ingliz sahna asarini yaratishga muvafaq bo‘ldi. Uning “Buyuk Amir Temur”i yunon-fors manbalaridan olingan tasavvurlariga qurilgan”. Tobe qilingan butun Osiyo hukmdorlari qo‘shilgan mashhur jang aravasida Temur sahnada paydo bo‘ladi: 1586 yil (manbalarda 1587 yil M.Ya) ingliz shoirining ijodiy jo‘shqinligi va shijoati bu tragediyani o‘lmas asarlar sirasiga kiritdi. Marloning Temuri o‘zining hokimiyatga va buyuklikga intilishi bilan Amir Temurni eslatadi, binobarin muallifni o‘zi ham bu xususiyatlarga befarq emas. Shunisi aniqki, Marlo 1582 yili chiqqan va Temurga oid bir muncha qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan to‘ldirilgan Klaviho kundaliklarining ispan nashri bilan tanish bo‘lmagan. Biroq shu paytdan boshlab Evropa tarixchilari Temur siymosiga tez-tez murojaat etgan, lekin ularning talqini noto‘g‘ri bo‘lgan. 1588 yili Leunklavius (Leunclavius), 1600 yili esa Perondinus

(Perondinus) Temur haqida yozadilar. Jan de Bek (Jean de Bek) 1595 yili hech kimga ma'lum bo'lmagan Al Xusaynning biografiyasining afsonaviy talqinini nashr ettiradi. Oliyjanob Richard Nolles (Richard Knolles) Temurni ko'p jildlik Turklar haqidagi yozmalariga qo'shdi, bu asar 1603 yili chop etildi. Bu ilk yozuvlarning ko'pchilik qismi Perchas sayohatlarida (Purchas, his Pilgrimes 1625) yig'ilgan. 1634 yil P'er Berjeronning "Tartariyaga sayohatlar" (Pierre Bergeron. Voyages en Tartarie) to'plamida tartarlar va musulmonlar haqida ishonchli ma'lumotlar salmoqli tarzda yig'ilgan. Magnon 1647 yili "Buyuk Temur va Boyazid" (Le Grand Tamerlan et Bajazet) nomli o'ziga xos asarni yaratadi. Bu davrdan boshlab Temur xayoti va faoliyatiga xolis baho berish vaqti keladi. Yevropa yaqinida paydo bo'lgan payt, mahalliy qirollar Temurga elchilarini va "Buyuk Temur, Tatariya hukmdoriga" nomli xatlarini jo'natishga shoshildilar. Ingliz qiroli Genrih IV, o'sha payt u nemis ritsarlari bilan o'z qirolligi hududidan tashqarida jang qilayotgandi, notanish fotihni g'alabalari ila qutladi. Frantsuz qiroli Karl VI "Ulug'g'olib va oliy hazratlari Temurga" nomli maqtovinoma jo'natdi. Yaratganning inoyati ila Kastiliya qiroli Don Genrih, Temur saroyiga elchi sifatida ritsar Rui de Gonsales Klavixoni jo'natadi. Bu ritsar, zabtkor ketidan Samarqandga borib, Temur haqida o'z xotiralari bilan qaytib keladi. "Temur, Samarqand hukmdori, mo'g'ullarning barcha hududlarini va Hindistonni egalladi. Ulkan ulush hisoblangan Quyosh yerini (Xuroson) ham egalladi. Xorazmni zabt etib, uni bo'ysuntirdi, butun Persiyani va Hindistonni, Tabriz imperiyasi va uning sultonining shahri, ipak hududlarni, Darvoza hududi ila kichik Armaniston, Arzirum va kurdlar yerlarini bosib oldi, Hindiston hukmdorini jangda mag'lub etib, bu hududning salmoqli qismini tortib oldi. Damashqni vayronaga aylantirdi, Halab, Vavilon va Bag'dod shaharlarini o'z izmiga bo'ysundirdi. U turli yer va hududlarga ko'plab yurishlar qildi, ko'p janglarda zafar qozondi (g'olib bo'ldi), ulkan yutuqlarga erishdi. Turk sultoni – dunyoning eng qudratli hukmdorlardan biri Boyazidga qarshi chiqadi, zafar quchadi va uni xibsga oladi". Temurni o'z ko'zlari bilan ko'rgan va hukmdorning Samarqanddagi saroyida dunyoning turli yerlaridan kelgan

hukmron oilalardan bo'lgan malikalarni, Misr va Xitoy elchilarni kuzatgan Klavixo yuqoridagi satrlarni yozgan. Uning o'zi, franklar elchisi sifatida, ehtirom va hurmatga sazovor bo'lgan, chunki "dengizda hatto kichik baliq ham o'z o'rniga ega".

XULOSA

Mazkur dissertatsiya dunyo xalqlari dabiyotining o'zaro munosabati va o'zaro ta'sirining ko'p qirrali muammolarining muayyan bir qirrasini talqin etishga bag'ishlangan. Unda dunyo adabiyotida salmoqli o'rin egallagan, kitobxonni o'ziga jalb etuvchi, biroq adabiyotshunoslar tomonidan yetarli darajada o'rganilmagan, amerikalik yozuvchilar ijodidagi Sharq asosan, Xitoy va Ozbekiston madaniyati hamda sharqiy xalqlar hayoti, urf-odatlar aks ettirilgan asarlar tadqiq etilib, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilishga harakat qildik.

Dissertatsiya natijalariga ko'ra shunday xulosa qildik:

1. Ishimizda adiba Perl Bak ijodida Sharq mavzui alohida o'rin tutganligi, u butun hayotini Sharq va G'arb orasida o'ziga xos "ko'prik" o'rnatishga, osiyoliklar va yevropaliklar o'rtasidagi o'zaro do'stona munosabatlarni qaror toptirishga bag'ishlaganligi va bu ezgu maqsadlar uning hayot falsafasiga aylanganligi ko'rsatildi.
2. Adiba bebaho merosga ega va bu ijod hali adabiyotshunoslar tomonidan yetarli darajada o'rganilmagan. Uning adabiyotga qo'shgan hissasi, Xitoy mavzusi bilan bog'liq bo'lsa-da, shubhasiz, Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasida geografik va mintaqaviy yaqinlik, milliy qadriyatlar o'xshashligi mavjudligi uchun ham bu amerikalik yozuvchilarning Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonga qiziqishlariga sabab bo'ldi.
3. P.Bakning "Zamin makonimiz" trilogiyasiga kirgan "Saxiy yer" romani, amerika, rus, va xitoy adabiy tanqidchilarining fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, XX asrning eng muvaffaqiyatli romani hisoblanadi. Uning asarlarini badiiy jihatdangina emas, balki adiba ijodining, ijtimoiy hayotdagi o'rnidan kelib chiqib baholanganda ham shu xulosaga kelish mumkin.

“Saxiy yer” romani faqat madaniy hayotdagina emas, balki Aqsh siyosiy hayotida ham boshqa amerikalik yozuvchilarni asarlaridan ko`ra muhimroq mavqe tutdi. Adiba ijodi birinchi marotaba amerikalik va G`arbiy yevropalik kitobxonlar ko`z o`ngida Xitoy haqiqatini ko`rsata bera olganligi bilan qadrlidi. P.Bakning uslubi o`ziga xos tarzda shakllandi. U tasvirda haqiqiylik va obyektivlikning oliy namunasini ko`rsatdi deyish mumkin.

4. Ernest Heminguey iste`dodi uning publisistik asarlarida ham namoyon bo`ldi. Undagi tahlil mahorati Xitoy haqidagi ocherklarida yaqqol ko`zga tashlandi. Uning ocherklarini o`rganib, buyuk iste`dod har narsada, hatto, eng ko`zga ko`rinmas, kichik xabarda ham namoyon bo`lishiga ishonch hosil qilindi.

5. Marta Gellhornning avtobiografik asarlari, publisistikasi, xususan ocherklari tahlili shuni ko`rsatadiki, ijod uchun faqat mavzu tanlashgina emas, balki badiiy tasvir vositalari qo`llashdagi o`ziga xoslik ham muhim ahamiyatga ega.

6. XX asrning 20-30 –yillarida O`zbekiston, uning madaniyati, me`morchiligi A.L.Strong, L.Hyuz, H.Lemb va boshqa amerikalik yozuvchilar e`tiborini tortdi. Ular vatanimizga katta qiziqish bilan qaradilar. Bu yozuvchilar hujjatli-ocherk janrida ijod qilib, O`zbekiston haqida ajoyib asarlar yaratdi.

7. Herold Lemb ijodi, xususan, uning Sharq Uyg`onishi davri buyuk siymolari – sohibqiron Amir Temur, ulug` shoh va shoir Bobur Mirzo, shuningdek, Umar Hayyomga bag`ishlab yozgan biografik romanlari adabiyotshunoslarimiz tomonidan juda kam o`rganilgan. Bu yozuvchining O`zbekiston haqidagi, umuman, Sharq mavzuida yozgan asarlarini o`rganish shuni ko`rsatadiki, G`arbda merosimizga qiziqish biz shu paytgacha tasavvur qilib kelganimizga qaraganda bir necha barobar kuchli.

8. Amerika shoiri va publisisti Lengston Hyuzning Markaziy Osiyo, jumladan, O`zbekiston bo`ylab safri uning ijodiga juda katta ta`sir ko`rsatdi. L.Hyuzning “Kezgan sari hayratlanaman” nomli asari 40- yillar jahon publisistikasida Sharqni badiiy idrok etishdagi yangi bosqich bo`ldi.

9. Anna Luiza Strongning “Samarqand uzra qizil yulduz”, “Ko`hna Pomirga yo`l” kitoblari va talay ocherklari Amerika adabiyotida O`zbekiston haqidagi birinchi jiddiy hujjatli asarlar bo`ldi.

10. Amerika adabiyotida Sharq mavzui yoritilishining adabiy-tarixiy miqyosda ko`rib chiqish orqali, birinchidan, Sharq-G`arb muammosini to`laroq yoritildi, ikkinchidan, ishimizda dunyoga tanilgan mashhur mualliflar qatorida, umuman, ijodi kam o`rganilgan va uncha taniqli bo`lmagan adiblar ijodi umumlashtirildi, uchinchidan bu mavzuning yanada kengroq ishlash imkonini berdi.

11. Sharq mavzuini turli mualliflar nuqtai nazari bilan yaratilgan ko`pchilik badiiy adabiyotlar va turli yondashuvlar tahlili shundan dalolat beradiki, G`arb va Sharq adabiyotlarini bir-biridan tamoman ayri holda tasavvur qilish mumkin emas. Chunki ular doimiy ravishda o`zaro yaqinlashib, bir-biriga muttasil ta`sir o`tkazib boradi.

12. Sharq o`zining boy tarixi va madaniyati bilan turli mamlakatlardagi yozuvchilarni o`ziga jalb qilib kelgan. Bu Sharqning G`arbdan ko`p jihatdan farq qilishi bilangina emas, balki boy ma`naviy-axloqiy salohiyati bilan ham bog`loq. Shu narsa ijod ahlini katta kuch bilan ijod etishga undayveradi. O`zbekiston o`z tarixi va madaniyati bilan ko`pgina yozuvchilar e`tiborini tortganligi va tortayotganligini ko`rsatish, bizda nafaqat ona Vatanimiz, balki G`arb madaniyatini ham chuqur hurmat qilish tuyg`ularini shakllantiradi, bu kishilarimizni umuminsoniylik ruhida tarbiyalashga katta hissa qo`shadi. Hamda ilm ahlini o`tmish madaniy merosimizni faol o`rganishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:O`zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O`zbekiston XXI ars bo`sag`asida: xavfsizlikkaa tahdid, barkamollik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O`zbekiston, 1997.

4. Ilmiy monografiya, maqolalar va boshqa asarlar:

- 4.1. Gilenson V.A. Дорога длиной в шестьдесят лет. Советский Узбекистан глазами прогрессивных американских писателей // Звезда Востока, 1977, №11.-102с.
- 4.2. Gilenson V.A. Социальная сила, преобразующая мир // Иностранная литература, 1971, №8.-110с.
- 4.3. Gilenson V.A. Хемингуэй и его женщины. – М.: Олма-Пресс,1999.-202с
- 4.4. Gilenson V.A. Эрнест Хемингуэй. – М.: Просвещение, 1991.
- 4.5. Gribanov B.T. Heminguey.v-M.,1971.-280pc
- 4.6. Jirmundskiy V.M. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад.- Л.: Наука, 1979.-718с

- 4.7. Konrad N.I. Средневосточная Возрождение и Алишер Навои. Проблемы современного сравнительного литературоведения. Избранные труды. Литература и театр.-М.,1978.-516с
- 4.8. Mirzayev S. Hayot va adabiyot (ilmiy asarlar, publisistik maqolalar).-T.: Sharq. 2001.-612b
- 4.9. писатели США. Краткие творческие биографии.-М.: радуга,1990-624с
- 4.10. Rifting B.A Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада.-М., Наука, 1974.-400с.
- 4.11. Sulaymonova F.K. Sharq va G`arb.-T.:O`zbekiston, 1997- 210b.
- 4.12. Sulaymonova F.K. Shekspir O`zbekistonda.-T.:Fan, 1978.- 240b.
- 4.13. Akobirova S.T. Amerika adabiyotida Sharq mavzusi (Perl Bak ijodidan sahifalar) // Til va adabiyot ta'limi, 1998, №5, 48-51 betlar.
- 4.14. Akobirova S.T. Perl Bakning ijodi va Sharq. Toplamda: "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar sohalarining muhim masalalari", 1 chiq., Toshkent, 1998, 45-48 betlar.
- 4.15. Akobirova S.T. Bu mukofot barchamizniki (Perl Bakning Nobel mukofoti bilan taqdirlangan kundagi nutqi) // Jahon adabiyoti, 1999, fevral, 174-bet.
- 4.16. Akobirova S.T. Milliy qadriyatlar va jahon adabiyotini o`qitish // Xalq ta'limi, 2000, 3- son, 36 -38 betlar.
- 4.17. Akobirova S.T. "Американская литература и Восток (на примере первой половины XX века)". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Ташкент 2002, Национальный университет РУ. Объем 26стр.
- 4.18. Otajonov N. "Boburnoma" jahon adabiy jarayonida. Qiyosiy tipologik tahlil. Doktorlik diss.avtorefer.- T., 1994.-50b.
- 4.19. Rafikov K.K., Akobirova S.T. Восточный ренессанс в творчестве Х. Лемба. В сб.: "Литература на рубеже тысячелетий" (материалы международной научно-практической конференции посвящённой 60-летию Щрехово-Зуевскому пединституту), вып.1, Орехово-Зуево,2001,сю108-112.

4.20. Rafikov K.K., Akobirova S.T. Китайская тема в творчестве Э. Хемингуэя. В сб.: “Актуальные вопросы в области гуманитарных, социально-экономических и технических наук”, вып.4, Ташкент, 1997, с.226-232.

5.Xorijiy adabiyotlar:

- 5.1. “The new World Review”, 1956, vol.24.
- 5.2. “The New-York Times”, March, 30, 1970.
- 5.3. “The Washington Post”, March, 30,1970.
- 5.4. Baker C. Ernest Hemingway. A Life Story.-N.Y.,1969.-228p.
- 5.5. Beverly Rizzon. Pearl Buck. The final Chapter. Copyright, Palm Springs. California, 1989.- 420p.
- 5.6. Block Irvin. The Lifes of Pearl Buck.- Toronto, 1973.-355p.
- 5.7. Doyle P.A. Pearl Buck.-N.Y., 1980.-288p.
- 5.8. Golden L. Africans in Russia. New world Review.- N.Y.,vol.39,N1-2, 1971.
- 5.9. Golden L. Black people in the Soviet Union. New world Review.- N.Y., vol.43, N5, 1975.
- 5.10. Helen Foster Snoy. My China Years: A Memoir.-N.Y.,1984.-432p.
- 5.11. Kiang Kang-hy. Comments on the Good Earth. The in the new Chinese Christian Student. The new-York Times.1993.
- 5.12. Meyers J. Hemingway. A biography. – N.Y., 1985 -288p.
- 5.13. Patterson W.L. Hughes Lanhston. –New world Review.- N.Y., 1975.- 585p.
- 5.14. Patterson W.L. The Man Who Cried Genocide. An Autobiography by W.L.Patterson.- N.Y., 1971.-718p.
- 5.15.Stirling Nora. A woman in Conflict –N.Y., 1983.-444p.
- 5.16.Younghill Kang. China is different. “The new republic”, 1931.- 32-40pp.

6. Badiiy adabiyotlar:

- 6.1. Buck, Pearl S. East Wind, West Wind. – N.Y.: John Day, 1930.-720p.
- 6.2. Buck, Pearl S. The Good Earth. –N.Y.: John Day, 1931.-560p.
- 6.3. Buck, Pearl S. Sons. – N.Y.: John Day, 1932.-604p.

- 6.4. Buck, Pearl S. Far and Near: (stories of Japan, China and Amerika). –N.Y.: John Day, 1934.- 714p.
- 6.5. Buck, Pearl S. The mother. – N.J.: John Day, 1934-388p.
- 6.6. Buck, Pearl S. Wors of Love. – John Day, 1974.-474p.
- 6.7. Gellhorn M. The Trouble I have seen. – B., 1934.-644p.
- 6.8. Gellhorn M. The Wine of Astonishment. – N.Y., 1948.-338p.
- 6.9. Gellhorn M. Travels with myself and Another. – N.Y., 1978.-448p.
- 6.10. Gellhorn M. The Face of War. – N.Y., 1978.- 412p.
- 6.11. Hemingway E. For Whom the Bell Tolls. – N.Y., 1940-643p
- 6.12. Hemingway E. By line. Selectec articles and dispatches of four decades. – L., 1950-320p.
- 6.13. Hemingway E. Selected Letters : 1917-1961. Ed. by C.Backer. –N.Y., 1981- 244p.
- 6.14. Hughes L. Negro Looks at Soviet Central Asia. –M.- L. 1934 -202p.
- 6.15. Hughes L. Tamara Khanum. Soviey Asia's Greatest Dancer, Theatre Arts Monthly. –N.Y., November,1934.
- 6.16. Hughes L. I Wander as I Wander. –N.Y., Toronto, 1956-240p.
- 6.17. Hughes L. Lengston Hyuz She'rlari Inglizchadan tarjima S.Siddiq.-T.-S.Osnashr, 1934-226p.
- 6.18. Lamb H. Babur the Tiger: First of the great Moguls. – N.Y.: Doubleday and Company. Inc. Garden City, 1961- 788p.
- 6.19. Lamb H. Tamerlan, the Earth Shaker. Mc Bridge, 1928-896p.
- 6.20. Lamb H. The boys Chingis Khan. Mc Bridge, 1930- 646p.
- 6.21. Lamb H. Omar Khayyam: A life, Doubleday, 1934- 567p.
- 6.22. Strong A..L. Red Star over Samarkand. –N.Y.: 1929- 569p.
- 6.23. Strong A..L. The Road to the Gray Pamir. –Boston,1931-556p.
- 6.24. Strong A..L. I Change Worlds. –L., 1935- 437p.

7. Internet saytlari :

- 7.1. [https://en.m.wikipedia.org>wiki>Orientalism](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Orientalism).
- 7.2. [www.postcolonialweb.org>poll1](http://www.postcolonialweb.org).

Novateurpublication.org

7.3. [www2.ivcc.edu>Rambo>hemingway_paragraph](http://www2.ivcc.edu/Rambo/hemingway_paragraph)

7.4. [https://www.britannica.com>biography](https://www.britannica.com/biography)

7.5. [https://en.m.wikipedia.org>wiki>Pearl_S](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Pearl_S)

7.6. [https://www.pearlbuck.org>edresources](https://www.pearlbuck.org/edresources)

7.7. [https://www.lambcerlane.com>articles](https://www.lambcerlane.com/articles)

7.8. [https://www.amazon.com>Harold-Lamb](https://www.amazon.com/Harold-Lamb)

7.9. [https://en.m.wikipedia.org>wiki>Anna](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Anna)

7.10. [www.nytimes.com>1986/03/22>arts](http://www.nytimes.com/1986/03/22/arts)

7.11. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/download/11814>

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. Sharq davlati sifatida Xitoy - AQSh yozuvchilari ijodida	6
1.Xitoy romanchiligining Perl Bak tomonidan tadqiqi.....	6
2.E.Heminguey ijodida Sharq tasvirida o`ziga xos munosabat.....	22
I bob bo`yicha xulosa.....	27
II BOB. AQSh Sharq mavzusiga yondashuv	28
1.M.Gellhorn Sharq hayoti tadqiqotchisi sifatida.....	28
2.A.L.Strong ijodida Sharq bilan bog`liq xususiyatlarning o`rganilishi..	35
II bob bo`yicha xulosa.....	40
III BOB. AQSh yozuvchilari tasnifida O`zbekiston	41
1.L.Hyuz asarlarida O`zbekistonga munosabatlarning aks etishi.....	41
2.X.Lemb ijodida O`zbekiston mavzusining yoritilishi.....	54
III bob bo`yicha xulosa.....	62
Xulosa	63
Adabiyotlar ro`yxati	67

